

82(50)ya7
4-96.

M. JO'RAYEV, J. ESHONQULOV

FOLKLORSHUNOSLIKKA KIRISH

TOSHKENT

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M. JO'RAYEV, J. ESHONQULOV

**FOLKLORSHUNOSLIKKA
KIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5151600 – Xalq ijodiyoti (Folklor va etnografiya) ta'lim yo'nalishi uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2017

UO'K: 398(575.1)(075)

KBK: 82(5O')ya7

J 96

- J 96 M.Jo'rarev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish.
(O'quv qo'llanma). -T.: «Barkamol fayz media», 2017,
180 bet.**

ISBN 978-9943-5010-9-6

Ushbu o'quv qo'llanmada o'zbek xalq folklor san'atining tarixi, rivojlanish bosqichlari, folklorshunoslik maktablari va metodlari, folkloarning tur va janrlarga bo'linishi, motiv va syujet, o'zbek folklorshunosligini tarixiy taraqqiyoti, epes va uning ilmiy o'rganilish muammolari kabi masalalarni qamrab olgan.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lif muassasalarida o'tiladigan "Folklorshunoslik tarixi va nazariyasi", "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" fanlarida qo'llash uchun qo'shimcha adabiyot sifatida mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma folklorshunoslik bilan qiziquvchi keng ommaga hamda musiqa san'ati yo'nalishida saboq olayotgan Oliy va o'rta ta'lif muassasalari talaba va o'qtuvchilari uchun mo'ljallangan

UO'K: 398(575.1)(075)

KBK: 82(5O')ya7

Mas'ul muharrir:

T.Mirzayev – filologiya fanlari doktori, professor.

Taqribchilar:

O.Axmedova -- O'zDSMI «Folklor va etnografiya» kafedrasidotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

Sh.Turdimov – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori.

ISBN 978-9943-5010-9-6

©«Barkamol fayz media» nashriyoti, 2017.

KIRISH

Xalqimizning eng qadimiylarini hayotbaxsh milliy qadriyatlaridan biri folklor san'atidir. Bu san'at badiiy an'analari tizimi sifatida xalqimizning ilg'or umuminsoniy g'oyalarini takomillashtirib, kela-jakka umid, ezungulik, mehr-sahovat, insoniylik, vatanparvarlik bilan bog'liq milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

“Folklorshunoslikka kirish” fanini o'rganish, folklor san'ati merosini chuqurroq tatbiq etish, bugungi zamondoshlarimiz ma'naviy ehtiyojini qondirishda katta muhim manba vazifasini o'taydi. Bu fan milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirishda o'z hissasini qo'shami, ya'ni folklorshunoslikning an'anaviy tur hamda janrilarni amaliy va nazariy jihatdan bosqichma-bosqich o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek folklorining so'z san'atiga asoslangan janrlar tizimi dos-ton, ertak, qissa, rivoyat, naql, afsona, mif, lof, latifa, marosim folklori, bolalar folklori, og'zaki drama, maqol va hikmatli so'zlar, afsun, avrash, olqish va qarg'ishlardan iboratdir. Bu ulug'vor badiiy meros ajdodlarimiz poetik tafakkurining mahsuli o'laroq shakllangan. Har bir janrga oid folklor materiallari o'ziga xos poetik tizimi, ijro usuli, hayotiy-maishiy vazifasi, musiqaga munosabati, vogelikni badiiy aks ettirish tarzi va boshqa jihatlariga ko'ra bir-biridan farqlanib turadi. Xalqimiz orasida folklorshunoslikning yuqori malaka va salohiyatiga ega bo'lgan ijodiy maktablari shakllangan bo'lib, ularning merosini o'rganishda “Folklorshunoslikka kirish” fanining ning o'z o'rni bor.

Xalq ijodiyotida mujassamlashgan yuksak ma'naviy barkamollik an'analari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishning milliy negizi hisoblanadi. Shu bois, o'zbek xalq ijodining boy

va serqirra an'analarni qayta tiklab, keng rivojlantirish, yoshlarning bugungi kundagi ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda yetarli darajada imkoniyatlar yaratish uchun folklor va etnografiya bo'yicha mutaxassislarini tayyorlash amaliy ahamiyatga egadir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun ham mamlakatimiz ma'naviy hayoti uchun g'oyat zarur bo'lgan shunday malakali, intellektual salohiyati yuqori, ma'naviy olami teran mutaxassislarni tayyorlash lozimligini taqozo etadi. Folklor va etnografiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning milliy negizi – xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini yanada takomillashtirish, ommanning ijodiy iqtidorini o'stirish, yosh avlod ongiga mustaqillik mafkurasi g'oyalarini, milliy qadriatlarni singdirishdan iborat. Chunki bunday mutaxassislar ajdodlarimiz ijodiy salohiyatining eng yaxshi an'analarni kelgusida ham davom ettirishni ta'minlashga o'z hissalarini qo'shmog'i kerak.

Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-estetik va falsafiy qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi xalq og'zaki ijodi folklorshunoslikning nodir manbalaridan hisoblanadi. Folklor asarlari ona diyorimizda yuksak madaniyatni buniyod etgan ulug' ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-tilishlari, urf-odat va marosimlari, an'analari-yu o'zbekona samimiyatini mukammal aks ettirganligi uchun ham qadrlidir.

An'naviy xalq ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur biladigan, mustaqillik davri o'zbek folklorining taraqqiyot qonuniyatlarini teran anglaydigan xalqning ma'naviy ehtiyojlari va qiziqish doirasini yaxshi tushunadigan, havaskorlik ijodiyotini tashkil qilish, boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini to'la o'zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalaridan biridir. Shu sababli ham mazkur sohaning ilmiy salohiyatini takomillashtirishda "Folklorshunoslikka kirish" fanini o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-BOB FOLKORSHUNOSLIK TARIXI

1.1. MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI

Ma'naviyat kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan tushuncha emas, u asrlardan buyon xalqimiz bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan buyuk bir qadriyatdir. Inson dunyoga kelgan kuni-dan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto o'zini folklorga begona deb bilgan, bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu an'analari ichida ulg'aygan, uning ongi, shurri shu qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi.

Har bir sohaning o'z tarixi bo'lgani kabi, folklorshunoslik bora-sidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozil-gan bo'lsa, bularning bari o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qushgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishish ostonasida birinchi Prezidentimiz tomonidan ko'plab hayotbash farmonlar bilan bir qatorda, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va Navro'z bayramini gayta tiklanishi xalqimizning ma'naviy hayotida katta iz qoldir-di. Shubhasiz, aytish mumkinki, bugun mamlakatimiz iqtisodiy, madaniy sohada nimaiki yutuqlarga, yuksalishlarga erishgan bo'lsa, ana shu sa'y-harakatlarning alohida o'rni bor. Zero, til millat tafakkurini shakllantiruvchi bir mezondir. Til va tafakkur bir-biriga bog'liq jarayon. Millatning til ravnaqi, shubhasiz, uning badiiy asar-larida namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi ana shunday tafakkurni shakllantiruvchi assosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Folklor-turli davrlarda turlicha o‘rganilgan, turlicha yondoshuvlar bo‘lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma’noda yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi.

«Alpomish» dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, «O‘zbekiston xalq baxshisi» degan unvon joriy etildi. Bu esa milliy ma’naviyatimizning asoslaridan biri bo‘lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi.

«Alpomish» dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shib idir, – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – yengilmash kuch» kitobida. – Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi».¹

Bu nafaqat «Alpomish» dostoniga, balki butun folklor asariга, milliy ma’naviyatimizga berilgan yuksak bahodir. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor milliy ma’naviyatimizni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda.

Mustaqillik davridan oldin folklor asarlari o‘rganilmaganmi, nashr etilmaganmi, degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. O‘rganilgan, tadqiq va nashr ham etilgan. Biroq bu nashrlar mukammal nashrlar emasdi. Ularda ko‘plab qisqartirishlar, buzib talqin qilinishlarga yo‘l qo‘yligandi. Birgina misol: “Rustamxon” dostonining folklor arxivida saqlanyotgan qo‘lyozmasida Sultonxonning farzandli bo‘lishi oldidan tush ko‘rgani shunday tasvirlanadi: “Sultonxon” ul kecha yotib tush ko‘rdi. U tushida shunday ayon bo‘ldi. Bu xudoy bergen farzanding, Qurudum mamlakatiga safar qilsang, o‘n to‘rt jil deganda borib kelsang shu bolang turadi, bo‘lmasa nobud bo‘ladi” (Hodi Zarifov nomidagi folklor arxivi. Qo‘lyozma, inv.№ 112 , 6–7-b).

Bu tush motivi Sultonxonning Qurudum mamlakatiga safarga chiqishining sababini hamda tug‘ilayotgan farzand Rustamning oddiy

¹ Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.--Тошкент:Маънавият, 2008, 32-33 б.

farzand emas, balki ilohiyot bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi muhim bir jihatdir. Aytish mumkinki. doston anashu tush motivi bilan boshlanadi va doston so‘ngidagi voqealar shu tush bilan bog‘liq holda kechadi. Biroq “Rustamxon” dostonining 1965 va 1985-yil nashrlarida bu motiv tushirib qoldirilgan. Oqibatda Sultonxonning safarga chiqishi ham noayon bo‘lib qoladi.

***Yoxud qulyozmada:** Ko‘rolmaysan, bildim yolg‘iz qo‘zingdi,*

Kelgin sarson opa, endi birga jilayik,— deya

Ximchaoyim Xuroyimga murojaat qiladi. Bu murojaatda “Sarson-sargardon bo‘lgan opa, kelgin, birga yig‘laylik”, – deyilayapti. Nashrda esa oxirgi misra: “Kelgin, chopson, opa, endi birga yig‘laylik” – tarzida berilganki, oqibatda chopson so‘zining misradagi ma’nosni noaniq bo‘lib qolgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Folklorni tadqiq etish borasida mafkuraviy tazyiq va chegaralanishlar ta’siri yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun mustaqillik davri folklorshunosligi tamomila yangi folklorshunoslikdir. Bugungi kunda ham faol ijod qilib kelayotgan T.Mirzayev, O.Safarov, O.Madayev, M.Jo‘rayev, SH.Turdimov, J. Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning izlanishlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari»ning 100 jildligini nashr etish yo‘lga qo‘yildi. Bu loyihaning amalga oshishi, shubhasiz, mammakatimiz ma’naviy hayotida ulkan voqeа bo‘ladi.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kitobxonlikka, umuman ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Zero, ma’naviyat masalalari ham davrda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. XX asr boshida ma’rifatparvar jadidchilar til, adabiyot va tarbiya masalasi o‘z davri uchun muhimligini ta’kidlashgan. Bu bejizga emas, millatning mavjudligi, erkinligi, ozodligi, taraqqiyoti uning tilidan, tafakkuri – ma’naviyatidan boshlanadi.

Biz bugun global jamiyatda yashayapmiz. Tilimizga, madaniyatimizga, o‘zligimizga bo‘layotgan ma’naviy tahdid ko‘lami ham globaldir.

Biz ma'naviyat to'g'risida har qancha qayg' urmaylik, jon koyitmaylik, bizni qurshab turgan muhit ommaviy madaniyat ta'sirida hamda bolalarimiz tili va tafakkuri shu madaniyat ostida shakllanayotgan ekan, bizning qilayotgan barcha urinishlarimiz o'z samarasini bermaydi. Shu ma'noda bugungi folklorni o'rganish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida, bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi. Mommolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamalar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biderid. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik eng avvalo har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'naviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa, ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to oliy o'quv yurtlarida til o'qitishda, o'rganishda folklorga va yana folklorga qaytib ish ko'rish lozim bo'ladi.

Xalqning til boyligi birinchi navbatda uning folkorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi.

Og'zakilik, variantlilik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini urg'ulaydi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlari ning yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor – shunchaki so'z san'ati namunasigina emas, balki xalqning til zaxirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda

xalqning o‘zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir.

Folklor asarlarida birinchi navbatda mifologik tafakkurdan poetik tafakkurga o‘tish jarayoni aks etgan ekan, demak, til tarixini o‘rganishda xalq ijodi namunalariga suyanib ish ko‘rish lozim bo‘ladi. Tildagi hech bir so‘z o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u zarurat tufayli tarixiy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladi yoki o‘zlashadi. Qachonlardir mifologik tasavvurni ifodalagan so‘z keyinchalik o‘zining asil ma’nosini unutib yoki dastlabki ma’no qatlami xiralashib, keyingi ma’no qatlamini yuzaga keltiradi. Bizdagи mavjud ertak, doston, qo‘sish va boshqa janrlar tahlilidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, folklor asarlarida ko‘proq xalqimizning samoviy jismlar, o‘simliklar olami va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq eng qadimgi tasavvurlari o‘z ifodasini topgan. Bu tasavvurlar tilimizdagi ko‘plab so‘zlarning kirib kelishiga, obrazli badiiy tafakkur tarzining shaklanishiga zamin yaratgan.

O‘zbek tilidagi «bo‘ri» so‘zi bugun qaysidir o‘rinda salbiy ma’nodagi so‘z sifatida, ko‘chma ma’nosida ishlatiladi. Biroq dostonlarimizda doimiy ravishda keladigan «chopinganda bo‘riday» misralari, jonli tildagi «bo‘rimi, tulki» iborasi «bo‘ri» so‘zining yuzaga kelish ildizlari qadimiy, totemistik tasavvurlar bilan bog‘liq ekanini urg‘ulaydi.

Alloma Hodи Zarifov: «Folklor asarlarining ilmiy va badiiy qiymati ularning lug‘at boyligi bilan belgilanadi»—degan edi. Xalq dostonlari o‘zbek tili tarixining serqatlamlligini va bo‘yoqdorligini o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun xalq dostonlarining tili ni tadqiq etish, bir tomondan til tarixining qadimiy ildizlari haqida kengroq ma’lumot bersa, ikkinchi tomondan hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilini to‘laqonli o‘rganishda, uni boyitishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Baxshilarimizning xalq tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishi, bar galgi ijroda bu badiiy tilning tovlanishi, uning yangicha mazmun va mohiyat kashf etishi epik ijodning o‘ziga xos xususiyatidir.

Chunki, xalq og‘zaki ijodi og‘zaki ijro etilgani uchun emas, balki og‘zaki ijro jarayonida yuzaga keladigan san’at asari bo‘lgani uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa jonli ijro jarayonini, ya’ni epik ijod tilini bilmasdan turib uning badiiati haqida so‘z yuritib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili ijod namunalarida tilimizning dialektologiyasi, leksikologiyasiga oid juda ko‘p qimmatli so‘z va iboralar mavjud. Bu so‘z va iboralarni, ayniqsa, xalq ijodining gultoji hisoblangan dostonlarimiz tilini o‘rganish nafaqat o‘zbek tili, balki umumturkiy til uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, dostonlarimiz tili nafaqat folklorshunoslarimiz uchun, balki tilshunoslarimiz, barcha til o‘rganuvchilar uchun ulkan manba va tadqiqot obyekti bo‘la oladi.

Folklor asarlari leksikasini tadqiq qilar ekanmiz, biz unda hozirda iste’molda bo‘lgan sheva va arxaik so‘zlar bilan bir qatorda, bugungi kunda qadimiylar ma’nosini o‘zgargan yoki unutilgan so‘zlarni ham ko‘plab uchratamiz. Demak, adabiy til leksikasining shakllanishi, rivojlanish va o‘zgarish bosqichlarining xususiyatlarini aniqlashda epik ijod namunalari alohida o‘rin tutadi shu sababli, ulardagi qadimiylar so‘z va birikmalarning lug‘atini o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Tilni o‘rgatishda folklor asarlarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish talab etiladi. Doston, ertak kabi yirik epik janrlar til taraqqiyotida qanchalik muhim o‘rin tutsa, qo’shiqlar, maqol, matalar kabi eng kichik janrlar ham birdek qimmatli va ahamiyatlidir.

Folkloarning yozma adabiyotga ta’siri, umuman, so‘z san’at haqidagi ketar ekan, folklor ko‘plab san’atlarning ibtidosi ekanini, badiiy ijod, musiqa, raqs va tasviriy san’at ildizlari folklor bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Qaysiki ijodkor folklor an’analari ichida yashagan, uni o‘ziga singdirgan bo‘lsa, o‘sha ijodkorning asari til jihatdan ham, badiiylik nuqtayi nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o‘rnini beqiyosdir. Yuksak saviyada ijro etilgan yoxud yozilgan har qanday badiiy asar—bu eng avvalo

til hodisasidir. Ona tilining eng go'zal jihatlarini, nozik tovlanishlari namoyish eta olgan asargina mukammal asar hisoblanadi. Har bir tilning o'ziga xos milliy fazilatlari va go'zalliklari bo'ladi. Ana shu fazilatlar va go'zalliklarni faqat yuksak saviyadagi asarlarga namoyish eta oladi. Bunday asarda til yana bir bor yangilanadi, yana bir yuksak pog'onaga ko'tariladi. Bunday asar tafakkurni yangilaydi, tilga mehr uyg'otadi, tilimizni har xil buzilishlardan asraydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar bиринчи navbatda so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalariga suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi.

Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman, badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor-bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir.

Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi, millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab-avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir.

Savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillik davri folklorshunosligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun xalq ijodi namunalariga milliy ma'naviyatimizning asoslaridan biri sifatida qaraladi?
3. Mustaqillik davri folklorshunosligiga xos jihatlar xususida so'zlab bering.
4. Folklor va ommaviy madaniyat masalalariga munosabatingiz?
5. Folkloring bugungi kun yoshlar tabiyasidagi o'rni haqida so'zlab bering.
6. Bugungi kunda nima uchun aynan kitobxonlikka, ma'naviyatga ko'proq ahamiyat berilayotganining sababalarini tu-shuntiring.

1.2. FOLKLORNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, u "xalq donoligi" degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari – me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqlarini, arxitektor xalq me'morchilagini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.²

Dastlabki vaqtarda "el adabiyoti", "xalq adabiyoti", "og'zaki adabiyot", "xalq og'zaki ijodi" deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarifov (1934-35 yillar) tomonidan qo'llanilgan "folklor", "O'zbek folklori" sifatida keng ommalashdi.

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi ko'plab janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati namunalari bo'lib, xalq hayoti, tarixi, orzu-intislislari, dunyoqarashlarini badiiy tarzda o'zida aks ettiradi, ijro etiladi va ijro jarayonida og'izdan-og'izga, avloddan-avlodlarga o'tib keladi.

Folklor – sinkritik xususiyatga ega bo'lib, barcha san'at turlariiga xos elementlarni o'zida mujassamlashtirgan, unda so'z, kuy va ma'lum turlarida raqs uyg'unlikda ijro etiladi.

Folkorda xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklor asarlari mag'zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushinchalardan mukammal diniy e'tiqodiga bo'lgan tushinchalar tadrijiy ravishda bo'y ko'rsatadi.

Folklor asarlari so'z san'ati sifatida, o'ziga yaqin yozma adabiyot namunałarı va san'atning boshqa turlaridan bir qator xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadi. Folkloriga xos bu xususiyatlar avvalo uning *jamoaviy* (kollektiv) ijod ekanligida, shu sababli ham folk-

² Introduction to Folklore. London, 2008. Page7

lor namunalarining muallifi xalq ommasi hisoblanadi, ularning aniq ijodkori noma'lum – *anonimlik* ularga xos va xalq orasida avloddan-avlodga *og'zaki* tarzda o'tib tarqaladi, *og'zaki* ijod etilib, ijro qilinadi, ijro va ijodda *an'analarga* rioya etilib, ijro jarayonida *variantlarga* va davrlar o'tib *versiyalarga* ega bo'ladi. Ushbu asosga ko'ra, folklorga xos xususiyatlar sifatida *jamoaviylik*, *anonimlik*, *og'zakilik*, *an'anaviylik*, *variantlilik* va *versiyaviylik* ko'rsatiladi.

Jamoaviylik – o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi xalq tomonidan yaratiladi. Ammo jamoaviylik shaxsiy ijodkorlik imkoniyatini inkor qilmaydi, aksincha, uni zaruriy dastlabki shart sifatida qamrab oladi. Tabiatda tomchilardan jilg'alar, jilg'alardan daryolar paydo bo'lishini ko'ramiz, biroq daryordan bir hovuch yoki bir ariq suvni ajratib, bu falon jilg'aning suvi deyish mumkin bo'limganidek, an'anaviy xalq qo'shig'i, dostoni yoki ertagidan bir band yoki qismni ajratib, biror individual ijodkorga nisbat berish qiyin. Ammo bu ijodkor, albatta, bo'lgan. Xalq ijodi namunalari ana shunday kollektiv ijod mahsuli bo'lganligi uchun asarlarning bosh qahramoni yoki «men»i ham o'z xarakteri jihatidan yozma va og'zaki adabiyotda sezilarli farqlanadi. Folkloarning qahramoni tipik holatga kelgan umumiy “men” ga, tom ma'noda xalq ommasiga tengdir.

Xalq turmushining, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomil-lasha borishi, inson tafakkurining mifologik tafakkurdan mifopoetik va badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonida alohida ijrochilar – qo'shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qiziqchilar va boshqa ijodkorlar, ijro maktablari, ustoz va shogirdlik munosabatlari paydo bo'ldi. Xalq orasida o'z iqtidori ijro san'ati bilan ajralib turuvchi: Tilla kampir, Sulton kampir, Jalmon baxshi, Bo'ron shoir, Jumanbulbul, Jas-soq shoir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin shoir, Yo'ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbanbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Qunduz soqi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan Jonmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Nurmon Abdivoy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Abdulla shoir, Umir shoir, Xolyor

Abdukarim o‘g‘li, Bola baxshi, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Qodir Rahim o‘g‘li va boshqa namoyandalar yetishib chiqdi. Bu xil ijodkorlarning talanti, iqtidori, mehnatlari tufayli kollektiv dahosi bilan yaratilgan asarlar avloddan-avlodga o‘tdi, sayqallandi, yuksak badiiy darajaga yetdi, folkloarning mumtoz namunalari bizga meros bo‘ldi.

Anonimlik – folklor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (*grek. Anonymis – noma'lum*) bilan ajralib turadi. Folklorda biror bir muallif yo‘q. Xalq dostonimi, ertakmi yoki marosim qo‘sning imi ularni ibtidoda kim va qachon yaratgani aniq emas. Har bir asar avloddan-avlodga o‘tar ekan, vaqt va zamon talablariga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchrashi mumkin, lekin uning asosi, an’analari o‘zgarishsiz kelaveradi. Folklorda biror bir asarni kimdir dastlab yaratgan bo‘lishi mumkin, lekin bu asar syujeti, tasvir vositalari, ohang yo‘llari xalq og‘zaki ijodi an’analariga tayanilib ijod etilsa, u folklor asari bo‘lib qoladi. Vaqtlar o‘tishi davomida xalq ijrochilari tomonidan yanada ishlov berilib, chinakkam folklor namunasiga aylanadi.

Og‘zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzi. Folklor xalqning xotira manbaidan, xotiraning og‘zaki avloddan-avlodga, og‘izdan-og‘izga ko‘chishidan paydo bo‘ladi. Bu o‘rinda umum folkloriy bilim va folklor an’analari asos vazifasini o‘taydi. Xotira manbai va folkloriy bilim bir yoki bir necha shaxslargagina tegishli bo‘lmay, butun bir xalqning bilim va an’analaridan iborat bo‘ladi. Bu bilim va an’analar ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga, urug‘dan-urug‘ga o‘tib, yangi davr ruhida, yangi ijrochilar va ijodkorlar sa-lohiyatidan-sayqal topib yashaydi. Bu xil sayqallanish u yoki bu folklor asarining shakli va mazmuniga qandaydir o‘zgarish kiritishi – nimaningdir qo‘shilishi yoki tushirib qoldirilishida bo‘y ko‘rsatadi. Aytaylik, biror bir tarixiy faktning untilishi sababli, asardan tushib qolishi mumkin. Yoki dostondagи qo‘sning qismining unitilishi uning ertak shaklida yashashini ta’min etsa, aksincha, biror bir talantli ijodkor ijrosi sababli, ertak syujeti asosida yangi doston paydo bo‘lib, an’ana ko‘rinishini olishi mumkin. Bu holatlar og‘zakilikning jonli hara-

katdag'i jarayoni sifatida folkloarning yashash tarziga xos belgilari hisoblanadi. Zotan folklor og'izdan-og'izga o'tib yashasa, adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og'zaki ijro etilib kuylansa, adabiyot esa faqat o'qiladi.

An'anaviylik – folkloarning o'ziga xos yashash tarzini, uslubini, ifoda vositalarini ta'min etuvchi yetakchi belgilaridan hisoblanadi. Folklor tom ma'noda an'analar san'atidir. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining, ijro usullarining og'izdan-og'izga o'tish jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o'sha asarning avloddan-avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijroga xos xususiyatlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi. An'anaviylik – jamoaviy ijod mahsuli va yashash tarzi, shu bilan birga, folkloarning folklor asarini jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli, omili hisoblanadi. Og'zakilik folkloarning ijro usuli va yashash tarzi bo'lib, o'z navbatida, xotirada ijrochidan ulkan xotirani, yoddan aytishni, eslamoqni, vaziyatga mos tayyor shakl va ifoda vositalarini badiha qilishni taqozo etadi. Bu o'rinda folklordagi an'anaviylik eng qulay va ishonchli quvvat zaxirasi hisoblanadi. O'zbek baxshi-shoirlari orasida ko'plab an'anaviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o'zi to'quvchi – badihago'ylarning borligi – shu an'anaviy ehtiyojning hosilasidir. An'anaviylik xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga xos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Folkloarning ilk namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha davrga xos dunyoqarashlar, urf-odatlar izlari aniq seziladi. Bu hol folklor asarları shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishining mahsuli hisoblanadi. Masalan: badik, kinna, buray-buray janrlari, shuningdek, "Sust xotin", "Choy momo", "Barot keldi" marosimlari aytimlarida bu holatni kuzatishimiz mumkin.

Variantlilik va versiyaviylik – folklor namunalarining har bir ijrosi o'ziga xos variant hisoblanadi. Folklor asari ijro jarayoni davomida qaytadan yaratiladi, yangi yashash holatiga kiradi va bu holat

o‘ziga xos variantni paydo etadi. Ya’ni folklor ijro jarayonida xilma-xil variantlarda yashaydi. Variantlilik folkloarning yashash tarzi. Variantlilik folklor tabiatи, uning yaratilishi va jonli og‘zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo‘lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazliligi, poetikasi, janr xususiyatlarini to‘la qamraydi. Variant – ma’lum bir asarning jonli og‘zaki epik an’ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o‘zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir. Variantda asar syujeti, motivlar tartibi, qahramonlar harakatida umumiylig bo‘lib, faqat ularni talqin etishda, tasvirlashda, ifoda shakllarida ma’lum bir farqlar bo‘lishi mumkin. Ijodkor, vaziyatga ko‘ra, u yoki bu motiv tasvirini cho‘zishi yoki qisqa shaklda kuylashi yoki tushirib qoldirishi mumkin.

Variant folklor asarlarining ommaviyligini aniqlashda, tarqalish chegaralarini belgilashda, folkorda kechayotgan o‘zgarishlarning sabablarini o‘rganishda va ijro jarayoni bilan bog‘liq qonuniyatlarini tadqiq etishda boy materiallar berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Variantlilikning muhim bir xususiyati – ma’lum bir versiya ichida mavjud bo‘lishidir. Versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo‘lib, biror bir asarning turli talqinlarda, kompozitsion qurilishda, ba’zan qahramonlarning o‘zgacha nomlanishida keluvchi yagona syujet va janr doirasidagi namunalarini o‘z ichiga oladi. Versiyalar ma’lum bir urug‘ va qabilalarning turli joylarga tarqalib, turli ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tishi, u yoki bu asarning o‘zaro yonmayon, qo‘shti yashayotgan turli xalqlar orasiga yoyilishi sababli paydo bo‘ladi. Masalan, “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining qarindosh va qo‘shti xalqlar orasida mavjud versiyalarini keltirib o‘tish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Folklor atamasiga ta’rif bering.
2. Folklor asarlariga xos yetakchi xususiyatlar deganda ni-mani tushunasiz?

3. Folklorda variantlilikni sharhlab bering.
4. Folklor va folkorshunoslik so‘zlarining ma’nosini tushuntirib bering.
5. Folkloarning o‘rganilish tarixi haqida so‘zlab bering.
6. Mustaqillik davri folklor san’ati o‘ziga xosligini nimada deb tushinasiz?

1.3. FOLKLORNING O‘RGANILISH TARIXI

O‘zbek folklori asarlarining to‘planishi va yozib olinishi tarixi haqida so‘z yuritganda, X asrda yashab ijod qilgan mashhur muarrix Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida shahar va qishloq nomlari, tarixiy obidalar hamda o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealari-hodisalar haqidagi xalq rivoyatlari, afsonalari keltirilganligi, XI asrning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo‘sish, rivoyat va afsona singari folklor janrlariga oid boy materiallarni yozib olib, “Devonu lug‘otit turk” asariga kiritganligini eslash kerak bo‘ladi. Shuningdek, maqol va matallarni yozib olib, ularning xususiyatlarini o‘rgangan Mahmud Zamaxshariy, qadimgi xorazmliklarning mif, afsona, rivoyat va hikoyatlarini “Qissasi Rabg‘uziy”ga jamlagan Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy, o‘zbek xalq she’riyatining janrlar tarkibi xususida fikr yuritgan Alisher Navoiy, ulug‘ o‘zbek shoiri to‘g‘risidagi xalq rivoyatlarini naql qilgan tarixnavis Xondamir, musiqa folklorining turli xil janriy rang-barangligiga doir materiallarni yozib qoldirgan Darvesh Ali Changiy, o‘zbek xalqining urf-odatlari, marosimlari, maqol va hikmatli so‘zları, rivoyatlari haqida qiziqarli faktlarni keltirgan Zahiriddin Muhammad Bobur, o‘zi tuzgan lug‘atda xalq qo‘sishqlaridan misollar keltirgan Shayx Sulaymon Buxoriy-o‘zbek folklori asarlarining ilk to‘plovchilari edilar.

Ma’lumki, Mahmud ibnu-l-Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariy 1029–1038-yillar oralig‘ida tug‘ilgan. U 1072-yilda o‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarini yozishga kirishgan va uni 1078-yilda nihoyasiga

yetkazgan. Bu asarni yozishdan avval u uzoq yillar mobaynida turkiy qabilalar istiqomat qiladigan barcha viloyatlarni kezib chiqqan va boy lingvistik, folkloristik va etnografik materiallarni to‘plagan. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirg‘iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”³.

Keng ko‘lamli to‘plovchilik faoliyati olib borgan Mahmud Koshg‘ariy o‘zining ana shu safarlari chog‘ida faqat lug‘at uchun lisoniy materiallar to‘plash bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki folklor namunalarini ham yozib olgan. Buni olimning “men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo‘llanilishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turkiylarning tilida faydalanim kelingan she’rlardan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki, ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga, naql qiluvchilar esa, o‘z navbatida, shu tilda so‘zlovchilarga yetkazsin”.

Demak, Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar folklorining qo‘sniq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to‘plagan. Shuning uchun ham “Devonu lug‘otit turk” asaridagi folklor materiallarini o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy o‘rganish folklorning tarixiy taraqqiyotini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “Devonu lug‘otit

³ Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960, 44-бет.

“turk” leksikasining o‘zbek folkloridagi ko‘rinishlariga doir ilmiy kuzatishlar olib borgan H.Zarifov 1961-yil 21-fevralda quyidagilarni yozgan edi: “Devon”dagi leksik va grammatik faktlarni o‘zbek tiliga oid barcha yozma asarlar tili bilan qiyosiy tekshirish qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, u faktlarning o‘zbek folklorida va shevalarida mavjudligini aniqlash ham shunchalik muhimdir”.⁴

Shu o‘rinda Mahmud Koshg‘ariyning folklor to‘plovchi sifatidagi muhim bir xususiyati ham ko‘zga tashlanib turibdi: olim “ko‘k tubulg‘on” haqidagi mifologik afsonani keltirar ekan, bu hikoyani u o‘ziga hamrohlik qilgan bir kishidan eshitganligini alohida qayd qiladi. Folklor asarini so‘zlab bergen aytuvchi, ya’ni ijrochi haqida ma’lumot berish esa xalq og‘zaki badiiy ijodi namunasini yozib olishning ilmiy mezonlaridan biridir.

“Devonu lug‘ottit turk”da “yada toshi” bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar ham keltirilgan. “Devon”ning 3-jildi, 8-sahifasida quyidagilarni o‘qiymiz: “**Yada** – yomg‘ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish usulidir. Bu odat ular orasida keng tarqalgandir. Men buni yag‘molar shahrida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U yerda paydo bo‘lgan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog‘di. Ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi”.⁵

Turkiy elatlar diyorini kezib, “yomg‘ir toshi” to‘g‘risidagi xalq afsonalarini to‘plagan Mahmud Koshg‘ariy bu afsonaviy tosh yordamida tabiatga ta’sir o‘tkazish marosimini shunday tasvirlaydi: “Bek yadachiga duo o‘qitdi, shuning uchun shamol esdi. Yomg‘ir yog‘di. Bu hodisa turklar mamlakatida mashhurdir. Tosh orqali shamol, yomg‘ir, sovuq qo‘zg‘otiladi”.⁶ “Devon” ning 3-jildi, 322-sahifasida esa “yatlatdi” fe’liga “afsunchi yomg‘ir yog‘dirish uchun yada toshi bilan duo o‘qitdi”, – deb izoh berilgan.

⁴ Зарифов Х. “Девону луготит турк” лексикасининг ўзбек фольклорида кўринишига доир (тезислар) // Пулкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976, 96-бет.

⁵ Кошгари М. Девону луготит турк. 3-том. - Тошкент: Фан, 1963, 8-бет.

⁶ Кошгари М. Девону луготит турк. 2-том. - Тошкент: Фан, 1962, 410-бет.

Yada toshi haqidagi mifologik tasavvurlar qadimgi turkiy qavmlarning deyarli barchasiga ma'lum bo'lgan. X asrda yashab ijod qilgan muarrix Abu Do'lafning ma'lumotlariga qaraganda, "yomg'ir toshi"ni mo'tabar hisoblagan qorluqlar yashil rangli bu toshni aziz bilib sig'inishar, yog'in-sochin kamchil bo'lgan vaqt-larda uning sharafiga qurbanliklar qilisharkan.

Taniqli tilshunos olim L.Budagov esa "yada – sehrli tosh, uning yordamida yomg'ir va qor yog'diriladi yoki tindiriladi. Mo'g'ul tilidagi "dzada" so'zi yog'ingarchilik ma'nosini anglatadi", – deb yozgan.

"Yomg'ir toshi" yordamida afsungarlik qilish udumi Alisher Navoiy davrida ham saqlanganligini "G'aroyibus sig'ar"ning "Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblai maqsud" deb boshlanadigan g'azalidagi ushbu bayt ham tasdiqlaydi:

*Yada toshig'a qon yetgach, yog'in yog'qondek ey soqiy,
Yog'ar yomg'urdek ashkim chun bo'lur la'ling sharob olud.*

Zero, o'sha davrlarda ham lalmikor yerga ekin ekib, dehqonchilik qiluvchi sohibkorlar suv tanqis bo'lgan yillari yada toshi vositasida tabiatdan yomg'ir tilaganlar. Shuning uchun ham Zahiriddin Muhamad Bobur o'zining "Boburnoma"sida Xoja Mulla Sadrni ta'riflar ekan: "Tolib ilmili bor edi, lug'atni xili bilur edi, inshosi ham yaxshi edi. Qushchulug'ni va yadachilikni ham bilur edi", - deydi. Ana shu ma'lumotning o'zi yada toshi haqidagi mifik tasavvurlar va bu tosh vositasida yomg'ir talab qilish bilan bog'liq marosim XVI asrda ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Qozoqlarda *jay tas*, o'zbek, mo'g'ul, oltoy, turkman tillarida *yada*, yoqut tilida *saga*, tuvinchasiga *chag tash* deb yuritilgan "yomg'ir toshi" haqidagi irim-sirim va afsonalar qadimgi turkiy qavmlarning mifologik e'tiqodlari bilan bog'liqidir.

"Yada" toshi vositasida yomg'ir yog'dirish haqidagi mifologik tasavvurlar bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Xususan, Bu-

xoro viloyatining G‘ijduvon tumanidagi Ularbibi qishlog‘ida yashovchi 77 yashar Izzat bibi Majidovadan 1991-yilda yozib olingen ma'lumotga ko'ra, to'yida yomg‘ir yog‘adigan kishilarni “yadasi bor” deydilar. Agar bola yoshligida qatiq ivitilgan idishning tubini yalasa, to'yida qor yoki yomg‘ir yog‘adi, deb irim qilinadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida u yoki bu so‘zlar ma’nosini izohlash, sharlash maqsadida keltirilgan og‘zaki nasriy asarlarni mifologik afsonalar, etnogenetik afsona va rivoyatlar, toponimik afsona va rivoyatlar, xalq taqvimi bilan bog‘liq rivoyatlar, naqlarga bo‘lib tavsiflash mumkin. “Devon”da “Xudxur” (1-jild, 135-bet), “Qaz” (3-jild, 163-bet) kabi toponimik rivoyatlar, “Chigil” (1-jild, 374-bet), “Turkman” (3-jild, 419–422-betlar) singari etnogenetik rivoyatlar, muchal hisobining kelib chiqishi haqidagi taqvimiylar rivoyat (1-jild, 330–331-betlar) ham keltirilgan.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z “Devon”ini “maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar... bilan bezash” maqsadida uch yuzdan ortiqroq maqolni kitobga kiritgan. Masalan, “*Tilku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur*” (ya’ni “Tulki o‘z iniga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi”) maqolida o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtiga, ona zaminiga, Vataniga xiyonat qilgan kishining holi xarob bo‘ladi degan purhikmat ma’no mu-jassamlashgan. Shuning uchun ham Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi ushbu maqolni keltirar ekan, “bu maqol o‘z elini, urug‘ini yoki mam-lakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi” (“Devon”, Indeks-lug‘at, 12-bet) deb qayd qilgan. “Devon”da dangasalik va tanballik (“Er-maguga bulut yuk bo‘lur”, ya’ni “Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo‘lar”), mehnatsevarlik (“*Yazin qatig‘lansa, qishin sevmur*”, ya’ni “Yozda mehnat qilgan kishi qishda sevinar”), do‘stlik va hamjihatlik (“*Yalng‘uz qaz utmas*”, ya’ni “Yolg‘iz g‘oz sayramas” yoki “*Kengashlik bilik uzlashur, kengashsiz bilig o‘prashur*”, ya’ni “Maslahatli ish bitadi, bemaslahat ish yitadi”), mardlik, botirlik, jasurlik (“*Alp yag‘ida, alchaq jag‘ida*”, ya’ni “Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh tirishishda sinaladi”), donolik (“*Alp cherikda, bilga tirikda*”, ya’ni “Botir jangda sinaladi, dono – majlisda”) va boshqa ko‘plab

mavvzularga doir maqollar uchraydi. Bu esa X-XI asrlarda yashagan ajdodlarimiz qo'llagan maqollar mavzu jihatidan rang-barang bo'lganligidan dalolat beradi.

"Devon"dagi paremiologik materiallar xalq maqollarining genetik ildizlarini aniqlash, maqol janrining kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji bosqichlarini o'rganish, maqollarning badiiy shakli va mazmuniy xususiyatlaridagi o'zgarishlarni tadqiq etishda muhim ilmiy qimmatga ega.

Xullas, XI asrning yirik filolog olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalar shevasiga oid lisoniy manbalarni toplash barobarida, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, qo'shiqlar, mif, afsona, rivoyat va naqlar, shuningdek, urf-odat va marosimlar, xalq qarashlari, e'tiqodiy inonchlar hamda mifologik tasavvurlarga doir boy materiallarni yozib olgan.

Xalqimizning betakror ijodiy salohiyatini yuksak qadrlagan Alisher Navoiy ham o'z davri folklorining deyarli barcha janrlariga oid qadriyatlardan samarali foydalangan. Shu bois, shoir asarlarida XV asr o'zbek folklorining janrlar tizimiga doir **afsona, qissa, rivoyat, ertak, hikoyat, doston, ulug' ir, ayolg'u, qo'shiq, surud, o'zmog'**, **chang, changa** singari atamalar ko'p qo'llanilgan.

«Turk ulusi, bataxsis chig'atoy xalqi aro shoyi» avzondurkim, alar surudlarin ul vazn bilan yasab, majolisda aytish»larini qayd qilgan shoir XV asr o'zbek marosim folklorida **changa** deb atalgan qo'shiq turi mavjudligi xususida quyidagi qimmatli ma'lumotni bayon qilgan: "Yana changidurkim, turk ulusi zufof va qiz ko'churuv to'ylarida ani ayturlar, ul surudedur bag'oyat muassir va ikki nav'dur. Bir nav'i hech vazn bila rost kelmas va bir nav'ida bir bayt aytilurkim, munsa-rihi matviyi mavquv bahridur va yor-yor lafzini radif o'rning'a mazkur qilurlar".⁷

Alisher Navoiy asarlarida **roviy, rivoyatchi, qissago'y, qissaxon, qissapardoz, go'yanda, yirov, o'zon** kabi folklor ijrochilari nomini

⁷ Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. Ўн беш томлик. – Тошкент, 1967, 180-бет.

bildiruvchi atamalar ham keltirilgan. Bu ma'lumotlar o'zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari va taraqqiyotini o'rghanishda muhim qimmatga ega.

Shuningdek, o'zbek folklori namunalarining yozib olinishi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida keltirilgan rivoyatlar, Gulxaniyning «Zarbulmasal»iga kiritilgan xalq maqollari va naqlar, Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug'ati chig'atoyi va turkiy usmoniy» asarida so'zlar mag'zini izohlash maqsadida keltirilgan xalq qo'shiqlarining parchalari, Muqimiyning xalq og'zaki badiiy ijodidagi qo'shiqlar uslubida yozgan «Sayohatnama» asari ham muhim o'tin tutishini qayd etish kerak bo'ladi.

Jahonning turli mamlakatlarida folklor bilan shug'ullanuvchi har xil ilmiy jamiyat va uyushmalar ham tashkil etilgan. Masalan, 1878-yilda Angliyada L.B.Gomm, E.Taylor, J.Frezerlar tashabbusi bilan «Folklorshunoslar jamiyat» tuzilgan. 1911-yilda fin folklorshunoslik maktabining asoschilaridan biri K.Kronning faol ishtiroki tufayli «Xalqaro Folklorshunoslar federatsiyasi», ya'ni «FFS» - "Folklore Fellow" tashkil etilgan. 1911-yilda «Nemis folklorshunoslari uyushmalari kengashi» – «Der Verband deutsche Vereine für Volkskunde» tuzilgan bo'lib, 1949-yilgacha uni taniqli nemis folklorshunosi va etnografi Meyer Jon boshqargan. Rossiya FA Til va adabiyot bo'limi tizimida «Xalq ijodiyoti bo'yicha ilmiy kengash» ish olib borgan. Shuningdek, YUNESKO qoshida «Xalqaro folklor va etnologiya kengashi» (ISEF) va «Xalqaro xalq musiqasi kengashi» (IFMS) faoliyat yuritgan.

Angliyada 1878-yildan «Folklore record», 1883-yildan "Folklore journal", 1890-yildan esa "Folklore" jurnallari chiqa boshlagan. Turkiyada folklorshunos olim O'jal O'g'uz muharrirligi ostida «Milliy folklor» jurnalı chop ettiriladi. Rossiyada xalq ijodiyotiga bag'ishlangan «Narodnoye tvorchestvo» (1937-yildan chiqa boshlagan bo'lib, 1992-yildan yana nashr etilmoqda), «Живая старина» (1890-yilda asos solingan va 1994-yildan yana nashr etila boshlangan), «Этно», «Этносфера», «Вестник Российского фольклорного

саюза» каби журнallar nashr etiladi. 2004-yildan Rossiyadagi Antropologiya va etnografiya muzeyi («Kunstkamera») «Antropologik forum» jurnalini chop ettira boshlagan.

Hozirgi davrda xalq ijodiyotini turli yondosh fanlarning nazariyalarini asosida kompleks tadqiq etish an'anasi kuchayganligi bois, folklorshunoslikning «**etnofolkloristika**» (xalq ijodini etnografik hamda folkloristik aspektida tekshirish), «**etnolingvistika**» (o'zbek tilidagi urf-odat, marosim, turli inonch-e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan dialektizmlarni etnofolkloristik jihatdan talqin qilish), «**arxeofolkloristika**» (arxeologik topilmalarda o'z aksini topgan folklor syujetlari, obraz va motivlarni o'rganish hamda xalq og'zaki ijodining muayyan janriga oid u yoki bu syujet, motiv, obraz va badiiy detalning genezisini arxeologik yodgorliklardagi suratlar, chizgi va ifodalarga qiyoslab tadqiq etish) yo'nalishlari yuzaga keldi.

Folklorshunoslik fani tilshunoslik bilan, ayniqsa, uning sheva va lahjalarni o'rganuvchi dialektologiya yo'nalishi bilan chambarchas bog'liqidir. Chunki folklorshunos olim transkripsiyaniga puxta bilmasa, og'zaki ijrodagi folklor asarini mukammal yozib ololmaydi. Bugungi kunga kelib, onomastikada «**mifonim**» (qadimgi mifologik tasavvurlar va mifik obrazlar bilan bog'liq tushuncha va atamalar), «**mifotponim**» (mifga aloqador so'z asosida kelib chiqqan joy nomlari), «**eponim**» (epik asarlarda qo'llanilgan atoqli otlar) singari terminlar yuzaga keldi. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarining til xususiyatlari o'rganuvchi «**lingvofolkloristika**» shakllandi.

Folklor asarlarining yaratilishi va ommalashishi jarayoni xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, milliy mentalitetini aks ettiruvchi dunyoqarashi, an'analarini bilan bevosita bog'liq bo'lganligi bois, folklorni o'rganishda uni etnografik kontekstdan ajratib tahlil qilib bo'lmaydi. Bir tomonidan, folklor asarlarida xalqimizning etnik tabiatini bilan aloqador ko'plab «etnografizmlar», qadimiy marosim va rituallar bilan bog'liq an'anaviy motivlar mavjud bo'lsa, boshqa jihatdan folklor asarlari etnologik tadqiqotlar uchun ham boy material beruvchi muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun

ham «**etnofolkloristika**» hozirgi zamon folklorshunosligining eng faol yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbek folklorshunosligi fanining asoschisi, atoqli olim H.Zarifov «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalining 1958-yilgi ilk sonida bosilgan «Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganish masalalari- ga doir» (25–30-betlar) nomli programm xarakterdagi maqolasi bilan o‘zbek folklorshunosligida «**arxeofolkloristika**» yo‘nalishini boshlab bergen edi. Zero, folklor asaridagi muayyan obraz, motiv yoki epik syujetning tarixiy asoslarini oydinlashtirishda arxeologik qazilmalar chog‘ida topilgan turli osori atiqalar, qoyatoshlarga chizilgan petrogliflar, Varaxsha, Afrosiyob, Bolaliktepa va Tuproqqał’adan topilgan qadimgi devoriy suratlar, xullas, ajodollarimiz tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat namunalari muhim qiyosiy manba rolini o‘taydi.

Filologik yo‘nalishdagi folklorshunoslik xalqimiz badiiy tafakkurining asrlar davomida uzlusiz taraqqiy etib, rivojlanib kelishi natijasida yaratilgan og‘zaki poetik ijod asarlarini so‘z san’ati sifatida tadqiq etib, xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olish, arxivlashtirish, nashr etish va uni ilmiy o‘rganish bilan shug‘ullanadi. O‘zbek xalq musiqa merosi janrlarini nota lashtirish va tadqiq etish, xalq og‘zaki dramasi, askiyabozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik san’atiga oid materiallarni yozib olib, ilmiy o‘rganish, shuningdek, xalq hunarmandchiligi (kulolchilik, kashtachilik, beshiksozlik, pichoqchilik va h.k.), amaliy san’at hamda xalq raqs san’atini tadqiq etish **san’atshunoslik** yo‘nalishidagi folklorshunoslikning asosiy vazifasi sanaladi.

O‘zbek folklorshunosligi g‘oyat keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishi va ulkan nazariy bazaga ega bo‘lgan fan sifatida na- faqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va jahonning boshqa ko‘plab ilmiy markazlari tomonidan e’tirof etilgan. Folklorshunoslik fanining xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini turli janrlar bo‘yicha tadqiq etuvchi «**ertakshunoslik**», «**eposshunoslik**», «**paremiologiya**», «**mifologiya**», «**marosimshunoslik**», «**lingyofolkloristika**», «**etno-**

muzikologiya» singari ilmiy yo‘nalishlari izchil taraqqiy etayotgani holda **«folklor va etnomadaniyat»**, **«folklor va ma’naviy taraqqiyot»**, **«postfolklor»** kabi yangi ilmiy yo‘nalishlari ham shakllandi.

Xullas, folklorshunoslik xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti asarlari ni izchil to‘plash, uni barcha variantlar va versiyalar asosida ilmiy tavsiflash hamda folklor asarlarining ommabop va ilmiy-akademik nashrlarini tayyorlash bilan shug‘ullanadigan alohida fan yo‘nalishi bo‘lib, xalq ijodiyotining nazariyasi, tarixiy asoslari, lokal xususiyatlari, tarixiy-folkloriy jarayon, folklor asarlari poetikasi, mustaqillik davri o‘zbek folklori, an‘anaviy folklor va postfolklor, folklorizmlarning madaniy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni kabi masalalar uning ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Folklor va uning to‘plovchilar.
2. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarining folklorshunoslikda tutgan o‘rni.
3. Adabiy va tarixiy manbalarda folklor.
4. Folklording ilmiy o‘rganilishi masalalari.

1.4. FOLKLORSHUNOSLIK MAKTABLARI

«Mifologik maktab» nazariyasi. Ma’lumki, mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simpliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarining sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Hali o‘zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o‘z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qa-

dimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqe-lik mohiyatini xayoliy uydurma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilar tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Qadimgi odamning tabiatni tushunishi va voqelikni idrok etishi g‘oyat murakkab tafakkur hodisasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz o‘zini o‘rab olgan moddiy olamning sir-asrorlarini tushunishga, tabiiy hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilar ekan, butun borlijni borlig‘icha qabul qilgan. Moddiy olamdagi voqelikni idrok etishda obrazlilik va poetik ramzlardan foydalanish esa badiiy ijodga xos belgi bo‘lib, voqelikka ongli hissiy munosabat bildirishga asoslanadi. Dunyodagi moddiy mayjudlikning paydo bo‘lishi, muayyan tabiiy hodisalarning ro‘y berish sabablari, tabiat va inson munosabati masalalari qadimgi odam ongida asotiriy tarzda talqin qilingan. Olam haqidagi ana shu eng qadimgi e’tiqodiy qarashlar asosida dastlabki mifologik tasavvurlar tizimi kelib chiqqan. Mif – qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir.

Mifologik tasavvurlar olamning yaratilishi, o‘simglik va hayvonot dunyosining yuzaga kelishi, odamzotning paydo bo‘lishini xayoliy uydurma vositasida izohlasa-da, mif o‘z ijodkori va ijrochilar tomonidan bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida baholangan. M.I.Stebelin-Kamenskiyning ta’kidlashicha, “mif – bu muayyan voqelik bayoni bo‘lib, unda hikoya qilingan voqea-hodisa nechog‘lik uydurma bo‘lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyida u hamisha haqiqat, real voqelik ifodasi sifatida qabul qilingan. Albatta, mifni o‘rganadigan tadqiqotchi undagi uydirmaga ishonmaydi. Shuning uchun ham mif bugungi kunda haqqoniy hayotiy voqelik ifodasi sifatida anglashilmaydi. Shu tariqa tadqiqotchining mif haqidagi o‘z tasavvuri, ya’ni “mif - uydirmadir” degan qarashi yuzaga keladi. Yaratilgan va ommalashgan joyida mif aslida real voqelik ifodasi deb tushunilgan”.⁸

O‘tmishda yashagan ajdodlarimizning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zida jamlagan, uning dunyoqarashini ifodalagan va avloddan-

⁸ Стеблин-Каменский М.И. Миф. - Л: Наука, 1976, 4-5 с.

avlodga yetkazishga mo‘ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo‘lib, asosan jonli og‘zaki ijro orqali, ya‘ni so‘z vosita-sida hikoya qilib berilgan. Ya‘ni mif – afsona janrining badiiy shakli asosida bayon etilgan.

Mifologik tasavvurlar ibridoiy udum va marosimlarda ritual o‘yinlar sifatida namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi va amaliy san’ati asarlari-dagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Ajdodlarimizning olam, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot xususidagi qadimiylar fantastik tushunchalarini o‘zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo‘linadi. 1) ***ibrido haqidagi miflar*** (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi miflar); 2) ***samoviy miflar*** (osmon jismrlari va tabiat hodisalarining paydo bo‘lishi haqidagi miflar; 3) ***antropogenik miflar*** (g‘ayrioddiy xislatga ega bo‘lgan afsonaviy personajlar haqidagi miflar, masalan, Ge-rakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi haqidagi miflar); 4) ***kult miflari*** (muayyan e’tiqodiy inonchlar bilan bog‘liq miflar, masalan, hosildorlik kulti, suv kulti, o‘simlik kulti, olov kulti haqidagi miflar); 5) ***totemistik miflar*** (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan); 6) ***kalender miflar*** (yil, oy, kun hisobi bilan bog‘liq miflar, masalan, ayamajuz, ahman-dahman, chilla, to‘qson hisobi bilan bog‘liq miflar); 7) ***o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar*** (masalan, Siyovush haqidagi mifologik syujetlar); 8) ***animistik miflar*** (jon to‘g‘risidagi qadimgi tasavvurlarni o‘zida mujassamlashtirgan miflar); 9) ***manistik miflar*** (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar); 10) ***dualistik miflar*** (ezgulik va yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o‘zida aks ettirgan miflar); 11) ***esxatologik miflar*** (olamning intihosi, oxir zamon to‘g‘risidagi miflar).

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibridoiy madaniyatning ne-gizi, olamni idrok etishning qadimiylar vositalaridan biri, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblanadi. Mifologiyaning asosini qadimgi

odamning koinot, tabiat, inson, osmon jismlari, narsa va hodisalar-ning paydo bo‘lishi haqidagi miflar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to‘g‘risi-
dagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo‘lishi haqi-
dagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik
miflar, qadimgi e’tiqodiy qarashlarni o‘zida ifoda etgan totemistik,
animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati
shakllangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiyl o‘zgarishlarning ramziy-
metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiyl (kalender) miflar va
o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqagan. Xusu-
san, Osiris (qadimgi Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston),
Siyovush (O‘rtal Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa
yuzaga kelgan. O‘zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy
inonchlardangina iborat bo‘lgan mifologiya insoniyat tafakkurining
tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriyl
syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o‘z ichiga olgan mu-
kammal tizimga aylangan.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qadimiy
shakllari mifologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ibtidoiy
dunyoqarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qadimgi diniy
e’tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axloqiy va
ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doir eng sodda tu-
shunchalari, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-
metaforik obrazlar, shuningdek, so‘z san’ati, marosimlar tizimi va
mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o‘z ichiga qamrab olgan.
U qadimgi odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qa-
rashlarini o‘zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning
yetakchi g‘oyasi bo‘lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy insonning
qarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois,
mifologiya folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlar-
ning shakllanishi uchun zamin vazifasini o‘tagan.

Ezgulik kuchlarining xaos(zulmat)ni o‘ziga makon qilgan yovuz-
likka qarshi kurashini o‘zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy

tafakkurning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so‘z vositasida talqin qilish an’anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so‘z san’atining turli janrlariga singib ketgan. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotidagi ko‘plab epik syujet va an’anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar “Avesto”, “Iliada”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Kalevala”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi buyuk badiiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o‘rin tutgan.

Qadimgi mifologik tasavvurlar va asotiriy syujetlar badiiy tafakkurning shakllanishi hamda taraqqiyotida o‘ziga xos sarchashma vazifasini o‘taganligi uchun ham, xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san’at asarlarida mifologik negizga ega bo‘lgan ko‘plab asotiriy personajlar uchraydi. Mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan bunday obrazlar xalq xayoloti va voqelikni fantastik talqin qilish an’anasining mevasidir. Mifik obrazlar muayyan voqeahodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo‘lib, voqelik mohiyatini metaforik, ramziy va istioraviy holatda o‘ziga ko‘chirganligi uchun ham uning shakliy tajassumi hisoblanadi.

Mifik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma - fantaziya mahsuli bo‘lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, qadimgi odam tasavvurida mavjud bo‘lgan g‘ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkur shakllangach, qadimgi mifologiyaning tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san’atga ko‘chgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarları, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” hamda “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlar, o‘zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi mifik obrazlar badiiy talqinning to‘laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovligini ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Mif qadimgi odamning ishonch-e tiqodlari, o‘y-xayolları, diniy qarashlari va ilk ijodiy izlanishlarining so‘z vositasida ifoda etilgan

ko‘rinishlaridan biridir. Mifni ibtidoiy odam ma’naviy olamining muayyan ehtiyojlari, ya’ni o‘z dunyoqarashini bayon etish zarurati yuzaga keltirgan. Voqelikni badiiy idrok etish an’anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Demak, mifning mohiyati, turlari, o‘ziga xos xususiyatlari, obrazlar tizimi, mifologik syujetlarning epik diffuziyasi va folklor asarlari tarkibidagi poetik vazifalari kabi masalalarni o‘rganish mifshunoslikning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Binobarin, mif va uning insoniyat tafakkuri tarixida tutgan o‘rnı masalasi folklorshunoslikdagi «mifologik maktab»ning ustuvor ilmiy muammolaridan biriga aylandi. «Mifologik maktab» esa dunyo folklorshunosligidagi keng tarqalgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Bu maktab vakillari mifologiya, mifik obraz, mifologik syujet va motivlar folkloarning zaminini tashkil etadi, deb hisoblaydilar.

Mif haqidagi dastlabki ilmiy talqinlar jahon madaniyati tarixining antik davridayoq yuzaga kela boshlagan edi.⁹ Xususan, Pifagor ta’limotiga ko‘ra, mif - tabiatni falsafiy-allegorik anglash ifodasidir. Miloddan avvalgi III asrda yashagan yunon faylasufi Evgemer mifologik personajlarni o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarning ilohiyitashtirilgan obrazi, deb hisoblagan. Platon esa mifni voqelikning falsafiy-ramziy talqini, deb baholagan.

XI asrda yashagan buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mif tushunchasi “sav” so‘zi bilan ifodalangan. Bu so‘z qadimgi turkiylar tilida “xabar”, “maqol”, “qissa”, “hikoya”, “so‘z”, “nutq” ma’nolarini anglatgan (“Devon”, I, 122; III, 168).

XVII-XVIII asrlarda mifologik tasavvurlarni ilmiy talqin qilish an’anasi yuzaga keldi. Fransuz ma’rifatparvarlaridan biri, faylasuf B.Fontenel (1657-1757) miflarni qadimgi odam tafakkurining mahsuli sifatida baholadi va insoniyat taraqqiyotining “bolalik davri”ga

⁹ Бу ҳакда кенгроқ маълумот олии учун қаранг: Мелетинский Е.М. Мифология // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1982, 16-17 с.

xos bo‘lgan miflarni tahlil qilishga tarixiy nuqtayi nazardan yondashdi. Mifologiyani tadqiq etishda birinchi marta «qiyosiy metod»ni qo‘llagan B.Fontenel antik miflarni qadimgi hind asotirlari bilan qiyoslab o‘rganish asnosida jahonning turli xalqlari miflari orasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni aniqladi. Miflarni qiyosiy o‘rganish tajribasi J.Lafitoning Shimoliy Amerikada istiqomat qiluvchi hindu qabilalari mifologiyasiga bag‘ishlangan asarlarida ham qo‘llanilgan.

Mif mohiyatini oydinlashtirishda XVIII asrda yashagan italiyalik olim J.Viko (1668-1744)ning miflarni “poetik nutq”ning arxaik shakli sifatida talqin qilishga asoslangan nazariyasi, shuningdek, uning “ibtidioy ideologiya sinkretizmi”, “mifning poetik tabiat”, “mif – ilohiy poeziya ekanligi” haqidagi ilmiy qarashlari muhim ahamiyatiga ega bo‘ldi. Uning yozishicha, insoniyat o‘z taraqqiyotining eng quyi qatlamida fikrni imo-ishoralar, belgi-ifodalar va ramzlar vositasida bayon qilgan. Bu “til” shakli o‘z mohiyatiga ko‘ra metaforik, ya’ni «poetik nutq» tabiatiga ega bo‘lgan. Mifni talqin qilishning bu o‘ziga xos nazariyasi keyinchalik mifshunos M.Myuller tomonidan ilgari surilgan “miflarni lingvistik talqin qilish konsepsiysi”ga asos bo‘ldi.

XIX asrda yashab, ijod qilgan nemis olimlari I.G.Gerder (1744-1803), A.B.Shlegel (1767-1845) va F.Shlegel (1772-1929) asarlarida mifologiya “qadimgi ajdodlar tomonidan yaratilgan poetik qadriyat”, “diniy e’tiqodning ilk shakli”, “qadimgi odamlarning borliqni ramz va timsollar vositasida anglashining natijasi” tarzida talqin qilin-gan. Nemis faylasufi I.G.Gerder miflarda ham muayyan darajadagi “badiiylik va milliy o‘ziga xoslik” mavjudligini qayd qilgan bo‘lsa, F.Shlegel “mif tili”, ya’ni «ramz va timsollar nazariyasi»ni ilgari surgan. Uning “mifologiyani insoniyat ruhiyatining tub-tubidan, eng chuqur qatlamlaridan chiqarib olmoq kerak, ana shunda u har qanday san’at asaridan go‘zalroq ekanligiga amin bo‘lasiz. Chunki san’atning barcha turlarini o‘zida mujassam etgan mif she’riyatning ilk sarchashmasidir”, – degan so‘zлari qadimgi miflarning sinkretik xarakteri va badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o‘rnini baholashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mifni “har qanday san’atning ilk manbai” sifatida talqin qilish romantizm davrining yirik faylasufi F.Shelling (XIX asr) estetikasining ham asosini tashkil etgan. O‘zining “San’at falsafasi” nomli asari da mifologiyani “estetik fenomen” sifatida tahlil qilgan F.Shelling ta’limoticha, mif – tabiat hodisalarini xayoliy uydirma, fantaziya va ramzlar vositasida “anglash” mahsulidir.

Xullas, XIX asrning birinchi yarmida F.Shelling va A.Shlegelning mifik tafakkur falsafasi hamda mifning estetik mohiyati xususidagi nazariy qarashlari, shuningdek, L.Arminning K.Brentano bilan hamkorlikda yaratilgan “Bolaning g‘aroyib shoxi” nomli tadqiqoti, “Gyedelberg romantiklar to‘garagi”ning a’zosi I.I.Gyorres (1776–1884) ning “Miflar tarixi” asari va boshqa olimlarning qadimgi miflarni o‘rganish asosida chiqargan xulosalari Yevropa folklorshunosligidagi “mifologik maktab”ning shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

“Mifologik maktab”ning yuzaga kelishi va folklorshunoslikning o‘ziga xos ilmiy yo‘nalishiga aylanishida Vilgelm Grimm va Yakov Grimmlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ularning folkloristik tadqiqotlarida xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining qadimiy asoslari, ayniqsa, mifologiya masalalari muhim o‘rin tutgan. 1835-yilda Y.Grimmning “Nemis mifologiyasi” nomli asari bosilib chiqdi. “Edda” va “Nibelungi” eposlari tahliliga bag‘ishlangan bu kitobda muallif o‘ta asr solnomalari hamda avliyolarning manoqiblari, ko‘hna tasavvur va e’tiqodlarning folklor asarlarida, xalq urf-odatlari va mafosimlari, rasm-rusum va odatlarida saqlanib qolgan qoldiq holdagi ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil qilish orqali qadimgi german miflarning ildizlarini aniqlashga harakat qilgan. Y.Grimm mifologik tasavvurlarning maqol, matal, qo‘sish, topishmoq, afsona kabi janrlarda saqlanib qolgan izlari qadimgi germanlarning tasavvurlari va e’tiqodiy qarashlari tizimi qanday bo‘lganligini aniqlashda o‘ziga xos kalit rolini o‘taydi deb hisoblagan. U yoki bu mifologik tasavvurning qadimiylik darajasini oshirib ko‘rsatishga urinish, afsona, ertak, topishmoq tarkibidagi mifologizmlarni “qadimgi tasavvurlar qoldig‘i” sifatida talqin qilishda folklor janrlarining shakllanish ja-

rayoniga xos tarixiylik prinsipini hisobga olmaslik hamda qiyoslanayotgan hodisalarining zohiriylar mutanosibligiga berilib ketish kabi kamchiliklaridan qat’iy nazar, Y.Grimmning bu asari folklorshunoslikda katta shuhrat qozondi.

Y.Grimm tomonidan qo‘llanilgan «qiyosiy mifshunoslik metodi» katta hajmdagi faktik materialni ilmiy tavsiflashga imkon berdi. Bu asar faktik materialga boyligi, metodologik asosining o‘z davriga nisbatan yangiligi, mif talqiniga doir barcha ilmiy qarashlarni o‘zida mujassamlashtirganligi va german miflarining tizimiyl tahliliga bag‘ishlanganligi tufayli, uning muallifi Y.Grimmning ilmiy konsepsiysi folklorshunoslikda “mifologik maktab nazariyası”ga asos soldi, deb e’tirof etildi. Shu tariqa folklorshunoslik fani tarixida “mifologik maktab” atamasi paydo bo‘ldi.

“Mifologik maktab” jahoning ko‘pgina mamlakatlari folklorshunosligida keng ko‘lamda rivojlandi. Bu borada, ayniqsa, Germaniya (A.Kun, V.Shvars, V.Manxardt), Angliya (M.Myuller, J.Koks), Italiya (A.De.Gubernatis), Fransiya (M.Breal), Shveytsariya (A.Pikte), Rossiya (A.N.Afanasyev, F.I.Buslayev, O.F.Miller), Amerika (E.Chembers, G.Marrey, J.Xarrison, J.Ueston, F.Kornford)da olib borilgan ilmiy tadqotlar “mifologik maktab” nazariyasini takomillashtirishga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran “mifologik maktab” bir nechta yo‘nalishga bo‘lingan holda taraqqiy eta boshladи. Shularidan biri “mifning ilk mohiyatini lingvistik tahlil vositasida rekonstruksiya qilish” yoki “**etimologik yo‘nalish**” deb ataldi. A.Kun, V.Shvars, V.Manxardt, M.Myuller, F.I.Buslayev, A.N.Afanasyev, A.A.Potebnya kabi olimlar hind-yevropa tillari materiali asosida keng ko‘lamli qiyosiy-lisoniy va etimologik tahlil vositasida mifologianing arxaik qatlamini rekonstruksiyalashga bag‘ishlangan asarlar yaratdilar.

To‘g‘ri, mifni qadimgi odam tomonidan ijod qilingan “lisoniy hodisa” sifatida baholash an’anası XVIII asrdayoq mavjud bo‘lgan. Masalan, mifni “lisoniy belgi” deb bilgan J.Vikoning fikricha, barcha

miflar quyoshning chiqishi va botishi, nur va zulmat bilan bog‘liq. “Qadimgi xalqlar mifologiyasi va simvolikasi” kitobining muallifi F.Kreyserning yozishicha, “ilk diniy e’tiqod tabiatni jonlantirishdan kelib chiqqan, shu bois, tildagi ayrim ramziy timsollarning mohiyati ham shu bilan izohlanadi”.

Mifshunoslikdagi “lingvistik tahlil metodi”ni chuqr o‘zlashtirgan A.Kun (1812-1881) o‘zining “Olov va ilohiy sharbatning keltirilishi” (1859) asarida “etimologik yo‘nalish”ning asosiy nazariy qarashlari va metodini yoritib berdi. Prometey haqidagi yunon mifni tahlil qilgan tadqiqotchi mazkur asotir qahramoni nomining kelib chiqishini qadimgi sanskrit tilidagi “**pramathyas**” – “parmalovchi” ma’nosini bildiruvchi so‘zga bog‘laydi. Bu lingvofolkloristik xulosa qanchalik bahsli bo‘lishidan qat’iy nazar, mifonimlarni tadqiq etish borasidagi dadil qadam hisoblanadi.

A.Kun o‘zining “Miflarning shakllanish bosqichlari” nomli asarida (1873) miflarni paleolingvistik aspektida o‘rganishga doir izlanishlarini davom ettirdi. U “ko‘pgina miflar momaqaldiroq, chaqmoq, yomg‘ir, shamol, bulut kabi tabiat hodisalarining ilohiylashtirilishi natijasida yuzaga kelgan” degan qarashni ilgari surish orqali “mifologik maktab” ning “**meteorologik nazariya**” nomli yangi ilmiy konsepsiyasini yaratdi.

Miflarning kelib chiqishi bilan bog‘liq “lingvistik konsepsiya” tarafdarlaridan yana biri M.Myuller (1823-1900) ham A.Kun nazariyasini qo‘llab-quvvatladi. Asosan, sanskrit va qadimgi yunon tillarini qiyosiy tadqiq etish bilan shug‘ullangan bu olim o‘z metodikasini mifologiyaga ham tafbiq etdi va folklorshunoslikdagi “**qiyosiy mifshunoslik**” yo‘nalishini boshlab berdi. Uning “Qiyosiy mifologiya bo‘yicha tajribalar” (1856) nomli asarida etimologik asosi hind-yevropa bobo tilidagi o‘zak leksemalarga borib taqaladigan mifonimlar tahlil qilingan. U miflarning qadimiylarini ildizlarini animizm, magik rituallar yoki totemizm bilan emas, balki ibtidoiy odam tilining leksikasidan izladi. Uning fikricha, mifologiyaning yuzaga kelishiga qadimgi odamlar dunyoqarashi va intellektining soddaligi emas,

balki ibtidoiy tilning o‘ziga xos tabiatini asos bo‘lgan. Ibtidoiy odam tilida narsa-hodisalarni ifodalovchi so‘zlarning ko‘plab sinonimlari mavjud bo‘lgan va davrlar o‘tishi bilan ana shunday sinonimlardan ba’zilarining asil ma’nosini unutilgan. Arxaik tilga mansub so‘zlarning keyingi avlodlar uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi, ya’ni semasiologik o‘zgarishlar (M.Myuller ta’biri bilan aytganda, “tilning kasalligi”) esa miflarning kelib chiqishi uchun zamin hozirlagan.

Paleolingvistika va qiyosiy filologiya metodlaridan unumli foydalangan M.Myuller miflar mohiyatini osmon yoritqichlarining ilohiyashtirilishi an’anasi bilan bog‘lab talqin qilish asosida qadimgi mifologiyani o‘rganishga kirishdi. Natijada “mifologik maktab” tarixida “solyar nazariya”, ya’ni **“shamsiy nazariya”** deb nomlangan yo‘nalish yuzaga keldi.

Bu yo‘nalish tarafdarlari mifni tabiat hodisalari haqidagi qadimgi tasavvurlar majmui, deb tushunadilar. Ba’zan **“astral-mifologik nazariya”** deb ham yuritiladigan bu ilmiy qarashga ko‘ra, qadimgi odamning tabiat haqidagi ibtidoiy inonchlari dastlabki mifologik tasavvurlar tizimining asosini tashkil etgan.

“Meteorologik nazariya”ni Shimoliy Germaniya aholisining asона, ertak, urf-odat va tasavvurlarini tadqiq etish asnosida rivojlanligan etnograf va folklorshunos V.Shvars (1821-1899) “mifologik maktab” tarixida **“demonologik nazariya”** nomi bilan yuritiladigan konsepsiyanini asoslab berdi. U “Mifologiyaning kelib chiqishi” (1849) asarida yovuz kuchlar bilan bog‘liq xalq qarashlari va irimsirimlarga aloqador asotirlarni **“quyi mifologiya”** deb atadi va bu atama folklorshunoslik amaliyotidan o‘rin oldi.

“Mifologik maktab” xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti masalasini tadqiq etib, folkloarning ilk zaminini diniy-e’tiqodiy xarakter kasb etgan mifologiya hamda tilning obrazliligi bilan alohida ajralib turgan qadimgi shakllaridadir ,degan muhim nazariy xulosaga keldilar. Folklor asarlari tarkibidagi mifologik obraz, syujet va motivlarni tarixiy-qiyosiy o‘rgangan mifologlar uzoq davom etgan tarixiy-folkloriy jarayon natijasida

mifologik obrazlar ertak, afsona, topishmoq va boshqa folklor janrlariga transformatsiyalashishini aniqladilar.

Xalq og‘zaki ijodi asarlarini qiyosiy metod asosida o‘rganish va folklorni “xalq ommasining ijodkorligi natijasida yaratilgan qadriyat” sifatida talqin qilish (ya’ni folklorga xos “kollektiv ijod mahsuli ekanlik” belgisi) an’anasi folklorshunoslik tarixida birinchi marta “mifologik maktab” tadqiqotlarida amalga oshirildi.

Mif, afsona, ertaklarni sistemali to‘plash va tahlil qilish ishlari bevosita “mifologik maktab”ning shakllanishi bilan bog‘liq holda boshlandi. Bu ilmiy maktab vakillari miflarni milliy qadriyatlar tizimi va an’anaviy madaniyatning ibtidosi sifatida talqin qildilar.

“Mifologik maktab”ning rivojlanishi natijasida XIX asrning o‘rtalariga kelib folklorshunoslikda bir qator yangi nazariyalar yuzaga keldi. Jumladan, miflarni astronomik yoxud tabiiy hodisalarining allegoriyası tarzida tasavvur qilishga asoslangan **“solyar-meteorologik nazariya”** yoki **“shamsiy-meteorologik nazariya”** (nemis olimlari – A.Kun, M.Myuller va rus olimlari – F.N.Buslayev, L.F.Voyevodskiy, O.F.Miller), miflarni xalqning yovuz kuchlar va ruhlar olami to‘g‘risidagi tasavvurlari tizimi sifatida tushuntiruvchi **“quyi mifologiya”** yoki **“demonologik nazariya”** (nemis olimlari – V.Shvars, V.Minxart), ruh haqidagi qarashlarni tabiatga tatbiq etish asosida yuzaga kelgan **“animistik nazariya”** (ingliz olimlari – E.Taylor, G.Spenser, E.Lang, nemis olimi – L.Frobenius, rus olimi – V.Klinger), miflarni tadqiq etishda adabiyotshunoslik va tilshunoslik metodlarini qo‘llashga asoslangan **“tarixiy-filologik nazariya”** (nemis olimlari – G.Uzener, U.Vilamovits-Myollendorf, rus olimlari – F.F.Zelinskiy, YE.G.Kagarov, S.A.Jebelev, N.I.Novosadskiy, I.I.Tolstoy) o‘ziga xos tadqiq usullari bilan alohida ajralib turadi.

“Mifologik maktab”ning nazariy qarashlari rus olimlari F.I.Buslayevning “Rus xalq og‘zaki ijodi va san’ati tarixidan ocherklar” (1861), A.N.Afanasyevning “Slavyanlarning tabiat bilan bog‘liq poetik qarashlari” (1866-69), V.N.Pipinning “Rus xalq ertaklari” (1865), A.N.Veselovskiyning “Qiyosiy mifologiya va uning metodi”

(1873), YE.M.Meletinskiyning «Происхождение героического эпоса» (1963), «Поэтика мифа» (1976) kabi asarlarida yangi materiallar va ilmiy xulosalar bilan rivojlanтирildi.

O‘zbek folklorshunosligida ham miflarni tadqiq etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, mifologiyaning o‘zbek xalq dostonlari syujet qurilishi va obrazlar silsilasida tutgan o‘rnini G‘.Akramov tomonidan chuqur tadqiq etildi. Uning “O‘zbek xalq dostonlarida mifologiya” (1980) mavzuidagi yirik tadqiqoti mif va epos munosabati masalasini “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub dostonlardagi mifologik obrazlar tahlili misolida o‘rganishning ajoyib namunasi hisoblanadi. Ertak va dostonlarda mifologiyaning saqlanib qolishi dostonlarning qadimiyligi hamda xalq tasavvurida mifologik tushunchalarning yashovchanligi bilan belgilanishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergen tadqiqotchi totemistik, animistik va manistik (ajdodlar homiyligi to‘g‘risidagi) mifologiyaning o‘zbek folkloridagi talqinlarini keng ko‘lamda o‘rgandi. G‘.Akramovning “Animatik mifologiya” (1977), “Manistik mifologiya” (1979), “Go‘ro‘g‘li” turkumida mifologik obrazlar” (1978), “Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o‘zaro munosabati” (1981), “Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir” (1996) kabi asarlaridagi tahliliy mulohazalar va xulosalar o‘zbek xalq eposi o‘zining ko‘p asrlik badiiy-estetik taraqqiyoti davomida mifologiyadan oziqlangani holda, uning inkori sifatida yuzaga kelganligini isbotlab bergenligi bilan folklorshunoslik tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy-folkloriy jarayonning muhim qonuniyatlaridan biri – janrlar diffuziyasi, ya’ni turli-tuman janrlarning bir-biriga singib ketishini tadqiq etgan B.Sarimsoqov mifning epik janrlar tizimidagi o‘rnini mif va ertak, mif va doston munosabati tahlili orqali ko‘rsatib berdi. U o‘zbek mifologiyasi arxaik, klassik hamda o‘rta asrlarga xos miflarni o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi. Bizningcha, o‘zbek mifologiyasining taraqqiyoti qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik, dualistik va magik inonchlari; ibtidoiy odamlar turmushida ritual-ramziy ahamiyat kasb etgan ma-

rosimlar; O‘rtta Osiyoda yashagan qadimgi qavmlar dunyoqarashida alohida o‘rin tutgan otashparastlik aqidalar; o‘lkamizda shakllangan qadimgi dehqonchilik madaniyati an’analari bilan bog‘liq hosildorlik kultlari; islam dini ta’limoti va u orqali O‘rtta Osiyoga kirib kelgan Sharq, xususan, arab folklori an’analari; mo‘g‘ul va buryat, chin va hind, eron va yunon mifologiyasining ijodiy ta’siri bilan bevosita aloqadordir.

Shu bois, biz o‘zbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1) *O‘rol-oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari*. Ma’lumki, tilshunoslikda “*oltoy tillari oilasi*”, “*prooltoy tili*” kabi tushunchalar mavjud. «Oltoyshunoslik nazariyasi» tarafdarlarining fikricha, turkiy, mo‘g‘ul-buryat, tungus-manchjur (ba’zilar koreys va yapon tillarini ham shu tarkibga kiritadilar) xalqlarining qadim ajdodlari aslida yagona bir qabilaga mansub bo‘lib, ular “*prooltoy tili*” yoki “*prooltoy shevasi*”da so‘zlashganlar.

Biz ham ana shu nazariyaning asosiy xulosalariga suyangan holda, turkiy-mo‘g‘ul-buryat-tungus-manchjur tillarida so‘zlashuvchi xalqlar folkloridagi tipologik mushtaraklikni tashkil etadigan epik qatlambu xalqlar og‘zaki ijodiyoti tarixining oltoy davriga mansub qadimiy syujetlar silsilasidan iborat, deb hisoblaymiz. Ana shu mushtarak epik an’ananing asosiy qismi arxaik miflarning qoldiq holda yetib kelgan ko‘rinishlari bo‘lib, bu asotirlar tarixan “*prooltoy folklori*” yoki “*prooltoy mifologiyasi*”ning tarkibiy qismini tashkil etgan. Mushtarak variantlari yoki o‘xhash namunalari mo‘g‘ul-buryat va tungus-manchjur xalqlari og‘zaki ijodida ham mavjudligi aniqlangan o‘zbek miflari (yoki muayyan syujet elementi, obraz, motiv tarzida saqlanib qolgan mif qoldiqlari) “*prooltoy mifologiyasi*”ga mansub asotirlar sirasiga kiradi. O‘zbek mifologiyasi rivojining bu davriga oid folklor asarlaridan eng xarakterlisi *bo‘ri* to‘g‘risidagi totemistik miflardir.

2. *Qadimgi turkiy qavmlar mifologiyasi*. O‘zbek folklorida saqlanib qolgan arxaik miflarning asosiy qismi qadimgi turkiy mi-

fologiyaning epik diffuziyasi natijasida yetib kelgan. Qadimgi turkiy qabilalar og‘zaki ijodiyotida olamni mifologik anglash asosida yaratilgan kosmogonik, totemistik, animistik, etiologik va etnogenetik miflar asosiy o‘rinni egallagan.

3. *Zardo‘shtiylik bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar*. Xalq og‘zaki ijodida an’anaviy tarzda qo‘llaniluvchi *ajdar, dev, pari, Semurg*, *Jo‘mard, Aranja bobo, Axriman, aranglar, Zahhok, Siyovush, Hubbi, Ashshadarizi, Sust xotin, Haydar* kabi ko‘plab asotiriy obraz-larning tarixiy asoslari zardo‘shtiylik mifologiyasiga borib taqaladi.

“Avesto” mifologiyasi va zardo‘shtiylik rituallari negizida keyinchalik o‘zbek marosim folkloridagi ayrim janrlar shakllangan. Yomg‘ir chaqirish maqsadida o‘tkazib kelingan Sust xotin marosimi, Amudaryo suvining mo‘l bo‘lishi hamda toshqin halokatining oldini olish maqsadida Orolcha avliyo degan joyda shu nom bilan ataluvchi afsonaviy homiy sharafiga ho‘kiz so‘yib, qurbanlik qilish, navro‘z bayramini o‘tkazish, sumalak pishirish, bahor faslida an’anaviy gul sayllari (boychechak sayli, lola sayli, guli surx sayli, qizil gul sayli kabilar)ga chiqish, safar qochdi va oxir chorshanba marosimlarini o‘tkazib, olovdan hatlash, shamol piri sifatida e’tirof etilgan Haydar yoki Ajdar boboga murojaat qilib, shamol chaqirish, sumalak pishirayotganda Ashshadarizi o‘yinini tashkil etish, kelin-kuyovni olov atrofida aylantirish, marhumlar mozoriga “qushlar haqi” deb bug‘doy sepib qo‘yish, daryordan o‘tayotganda Hubbiga sig‘inish va suvgaga tuz tashlash, dalaga birinchi qo‘sh chiqarishdan avval ho‘kizlarning shoxini moylash kabi an’anaviy marosim va udumlarimizning tarixiy asoslari bevosita zardo‘shtiylik hamda “Avesto” mifologiyasining e’tiqodiy inonchlar tizimidagi talqinlariga bog‘lanadi.

O‘zbekistonning istiqlolga erishishi qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liq folklor asarlari, jumladan, mifologik syujet va motivlarni keng ko‘lamda o‘rganishga katta imkoniyatlar yaratdi.

“Mifologik maktab” vakillarining ilmiy tadqiqotlari arxaik miflar haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitish, qadimgi turkiy, hind, eron, german, kelt, slavyan va boshqa xalqlar mifologiyasini keng ko‘lamda

o‘rganish hamda xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plash va tadqiq etish bilan bog‘liq ko‘pgina nazariy muammolarning hal qilinishiga asos bo‘ldi. Bevosita “mifologik maktab” konsepsiyalari asosida mifologiya, folklor va adabiyotni qiyosiy o‘rganish yo‘nalishi shakllandi. Shuning uchun ham bu maktab ilmiy konsepsiyalari qadimgi misflarni tadqiq etishda bugungi kunga qadar muhim nazariy asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

Folklorshunoslikdagi “mifologik maktab”ning tadqiqotlarida ayrim chalkashliklar ham mavjud bo‘lgan. Xususan, folkloرنi haddan ziyod arxaiklashtirishga urinish; xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining kelib chiqishida tarixiy vogelikning rolini e’tiborga olmaslik, folklor san’atining barcha turlariga mif asos bo‘lgan, degan qarashni ilgari surish; tarixiy shaxslar obrazi talqinidan ham mifologik tasavvurlarning izlarini izlash kabi xatoliklar shular jumlasidandir.

“Mifologik maktab”ning metodologiyasi va, ayniqsa, uning “qiyosiy mifshunoslik”ka oid tadqiqotlarida aks etgan nazariy qarashlar, shuningdek, bu yo‘nalish vakillarining ilmiy izlanishlari natijasida to‘plangan keng ko‘lamli faktik materiallar keyinchalik folklorshunoslikda “syujetlarning ko‘chib yurishi” yoki “sayyor syujetlar nazariyası” nomini olgan “migratsion maktab”ning shakllanishiga asos bo‘ldi.

«Fin maktabi». Folklor asarlarini o‘rganish, ayniqsa, epik syujetlar va motivlarning genezisi hamda tarqalish areali xususida fikr yuritish, xalq eposi, og‘zaki nasriy asarlar bo‘yicha katalog va ko‘rsatkichlar tuzishda “fin folklorshunoslik maktabi”ning ilmiy-nazariy qarashlari, xususan, uning “tarixiy-jo‘g‘rofiy metodi”dan foydalaniлади. Folklorshunoslikdagi “tarixiy-jo‘g‘rofiy metod”ning yuzaga kelishi va ilmiy tadqiqotlar amaliyotiga joriy etilishi muayyan folklor asarini turli variantlar asosida yozib olib, nashr etish va ilmiy tahlilda variantlarni qiyoslab o‘rganish usulining qo‘llanilishi bilan bog‘lanadi.

Xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plash ishlari Finlandiya da XVII asr oxirida boshlangan. O‘zining butun umrini sholand va irland xalq qo‘schiqlarini to‘plashga baxsh etgan ingliz

shoiri J.Makfersonning asarlarini sevib mutolaa qilgan fin filologi E.G.Portan 1776-1788-yillarda o‘z xalqining qadimiy qo‘shiqlaridan ayrim namunalarni yozib olgan. Fin runalari esa ilk bor Topelius tomonidan kashf etilgan. 1831-yilda «Fin adabiyoti» jamiyati tashkil etilgach, o‘lkada folklor asarlarini to‘plash bilan qiziquvchi kishilar uchun katta imkoniyatlar yuzaga keldi. Dunyo xalqlari badiiy tafakkuri tarixida muhim o‘rin tutadigan fin runalari – “Kalevala”ning yozib olinishi esa, asli kasbi tabib bo‘lgan fin folklorshunosi va tilshunosi Elias Lyonrot (1802-1884) faoliyati bilan bog‘liqdir. E.Lyonrot talabalik yillaridayoq xalq tabobatiga doir materiallar to‘playotganida har xil xastaliklarni davolash maqsadida ijro etiladigan afsun-avrash matnlarini yozib olgan. Shu tariqa, u fin xalqining ota-bobolari tomonidan yaratilgan liro-epik qo‘shiqlar – runalarning sehrli olamiga kirib bordi. Oddiy dehqon kiyimini kiyib olib, fin runalarini to‘plashga kirishgan yosh E.Lyonrot 1828-1844-yillarda Sharqiy Finlandiya va Kareliya bo‘ylab safar qilgan. Har bir ijrochi unga o‘zi yoddan biladigan variantni kuylab bergen. Ammo sinchkov olim bu variantlarning har biri mustaqil asar ekanligini sezib qolgan. Shuning uchun ham E.Lyonrot o‘zi yozib olgan runa namunalaridan foydalangan holda, barcha variantlar asosida fin xalq eposi – “Kalevala” dostonini qayta tiklagan. U fin xalq qo‘shiqlari to‘plami (“Kanteletar”, 1829-1831), fin maqol va matallarini ham to‘plab, chop ettirgan.

Xalq qo‘shiqlarini turli variantlari bilan birga yozib olish amaliyoti aslida birinchi marta serb shoiri va folklorshunosi V.S.Karadjich (1787-1864) tomonidan qo‘llanilgan. U o‘zi yozib olgan serb xalq qo‘shiqlarini 1813-1815-yillarda Venada bir necha jildlik kitob holida chop ettirgan. Lekin E.Lyonrot tadqiqotlarining ahamiyati shunda ediki, u fin runalarining variantlaridan tarixiy-rekonstruktiv maqsadda foydalanib, allaqachonlar yaxlit asar sifatida jonli ijrodan tushib qolgan ulkan xalq eposini tiklashga erishdi.

Taniqli fin adibi va filolog olimi, Gelsingforss universiteti professori Julius Kron (1835-1888) o‘z ijodiy faoliyati davomida “Ka-

levala” eposini o‘rganishga katta ahamiyat bergen. Fin milliy eposining o‘ziga xos syujet qurilishi, betakror obrazlar tarkibi va badiyati Y.Kronni yoshligidanoq o‘ziga maftun etgani bois, 1884-yilda “Kalevala”ning genetik ildizlariga doir yirik ilmiy tadqiqotini nashr ettirdi. U mazkur epos syujetining genetik asoslarini aniqlash maqsadida dostonning turli davrlarda va turli hududlarda tarqalgan variantlarini qiyosiy tahlil qilishga kirishdi. Uning fikricha, “eposning yuzaga kelishi masalasini aniqlashga kirishishdan avval bu asarning barcha namunalarini geografik va xronologik jihatdan bir tizim holiga keltirish lozim. Shunday qilinsa, eposning qadimiy namunasiga xos elementlarni nisbatan keyinroq qo‘shilgan motiv va badiiy unsurlardan ajratib olish mumkin bo‘lad!”.

Epos genezisini oydinlashtirish bilan bog‘liq bu metodni Y.Kron o‘zining 1988-yilda chop ettirilgan “Kalevalan toisinnot” asarida muvaffaqiyat bilan qo‘llagan. U xalq eposi variantlarini mavzu tiplari va mazmuniga qarab tasniflash bilangina cheklanib qolmasdan, folklorshunoslikda birinchi marta dostonlarni yaratilish davri va tarqalish hududiga ko‘ra ham guruhlashtirish mezonlarini ishlab chiqdi.

Y.Kron folklor asarlarini o‘rganishdagi tarixiy-jo‘g‘rofiy metodni ishlab chiqishda S.Grundtvig tadqiqotlari hamda V.Ril gipotezalariga asoslandi.

O‘zining Skandinaviya filologiyasiga doir tadqiqotlari bilan folklor asarlarini yozib olib, nashr etish va ilmiy o‘rganish sohasida yangi yo‘nalishga asos solgan daniyalik professor Sven Grundtvig (1824-1883) uzoq yillik folklor to‘plovchilik faoliyati davomida xalq eposi va qo‘shiqlarining ko‘plab variantlarini yozib oldi. U o‘z mamlakatining barcha hududlaridan to‘plangan va shakllanish tarixiga ko‘ra turli davrlarda yaratilgan folklor asarlarini nashrqa tayyorlab, “Danianing qadimiy xalq qo‘shiqlari” (1853-1899 yillarda chiqarilgan yetti jildlik bu majmua “Danmarks gamle folkeviser” deyiladi) nomi ostida chop ettirdi. O‘zidan avvalgi folklorshunoslardan farqli ravishda, S.Grundtvig variantlilik-

- qo'shiqlarning xalqchilligini belgilashdan tashqari, xalq poetik ijodiyoti an'anasining taraqqiyotini ko'rsatuvchi badiiy qonuniyat ham ekanligini qayd qilgan.

Nemis yozuvchisi Vilgelm Ril (1823-1897) esa o'zining nemis xalqi tarixiga doir tadqiqotida mamlakatning jo'g'rofiy tuzilishi va unda istiqomat qiluvchi aholi orasidan to'plangan faktik materiallarni tarixiy-jo'g'rofiy metod asosida tavsifladi. Uning izdoshi V.Shvars esa nemis dehqonlarining urf-odat va marosimlarida saqlanib qolgan qadimgi tasavvurlarning qoldiq holda yetib kelgan ko'rinishlarini ularning tarixiy-jo'g'rofiy jihatdan tarqalish doirasiga ko'ra o'rgandi. Shu tariqa, daniyalik S.Grundtvigning folklor asarlarini barcha variantlar asosida ilmiy tavsiflash usuli hamda V.Rilning faktik materiallarni tarixiy-jo'g'rofiy jihatdan tarqalish doirasiga ko'ra baholash mezoni Y.Kron tomonidan ishlab chiqilgan "tarixiy-jo'g'rofiy metod"ning yuzaga kelishi uchun ilmiy-nazariy asos vazifasini o'tagan.

Fin folklorshunosligidagi "tarixiy-jo'g'rofiy metod"ning shaklanishida qiyosiy tilshunoslik va hind filologiyasi bo'yicha yirik mutaxassis, Gyottingen universiteti professori, "sayyor syujetlar" migratsiyasi, ya'ni "o'zlashtirma nazariyasi" ("теория заимствований") ga asos solgan nemis filolog olimi T.Benfey(1809-1881)ning "**tarixiy-orientalistik nazariyasi**" ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jahon xalqlari adabiyoti va folkloridagi mushtarak syujetlarni qiyosiy o'rgangan T.Benfey Yevropa xalqlari og'zaki ijodidagi ko'pgina asarlar Hind adabiyoti ta'sirida shakllangan va aksincha, Markaziy Yevropada yaratilgan ayrim folklor namunalari Kichik Osiyo orqali Sharq mamlakatlari xalqlari orasida ommalashib ketgan, deb hisoblaydi. T.Benfey og'zaki badiiy an'anuning epik syujetlar migratsiyasidagi rolini alohida e'tirof etgani holda, ko'pincha adabiy yodgorliklar yoki folklor asarlarining badiiy jihatdan qayta ishlangan namunalariga tayanib ish ko'rgan. Fin olimi Y.Kron esa, T.Benfeydan farqli o'laroq, badiiy an'ana taraqqiyotida xalq poetik xotirasining qadimiy shakllarini o'zida saqlab kelayotgan folklor asarlarini qiyo-

siy tahlil uchun manba qilib olgan. Ammo poetik asarning ilk matnlarini tiklash muammosi har ikkala olim uchun ham ustuvor ilmiy maqsad hisoblangan.

“Tarixiy-jo‘g‘rofiy metod”ning rivojlanishi va takomillashishi-da Y.Kronning o‘g‘li, Xelsinki universiteti professori, xalq og‘zaki badiiy ijodi va qiyosiy folklorshunoslik bo‘yicha yirik mutaxassis, “o‘zlashtirma nazariyasi”ning o‘ziga xos talqini hisoblangan “**geografiq-tarixiy metod**” muallifi Kaarle Kron (1863-1933)ning xizmatlari katta bo‘ldi. K.Kron otasining “Kalevala”ni o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlarini davom ettirgani holda, o‘z nazariy qarashlarini quyidagicha talqin qilgan:

- 1) epos va xalq qo‘shiqlarining baynalmilal xarakteri faqat uning g‘oyasida emas, balki syujetida ham aks etadi;
- 2) syujet muayyan motivlar tizimidan tashkil topadi;
- 3) syujetning ilk manbai uning barcha variantlarini qiyoslash natijasida aniqlanadi;

4) adabiy an'anada mavjud bo‘lgan barcha variantlar jonli og‘zaki ijro jarayonida yozib olingan bo‘lsa, jo‘g‘rofiy jihatdan tasnif qilinadi;

5) tadqiqotni to‘la yakunlash uchun har bir viloyat, har bir provinsiya, har bir qishloqdan yozib olingan variantlar kerak bo‘ladi. Muayyan folklor asarining barcha variantlari tahlil qilinganda, uning arxetipi aniqlanadi.

K.Kronning bu ta’limoti o‘sha paytda Yevropa folklorshunosligida g‘oyat keng yoyilgan edi. 1893-yilda “Zolushka” (“Yetim qiz”) tipidagi xalq ertaklarining J.Kuoks tomonidan tavsiflangan 350 ta varianti nashr etilganligi ham buni tasdiqlaydi.

K.Kron o‘z hamkasblari – fin olimi A.Aarne, shved olimi K.V.fon Sidov hamda daniyalik folklorshunos Aksel Olrik bilan birqalikda 1907 yilda “Xalqaro folklorshunoslar jamiyat” (“Folklore Fellows Communications” yoki qisqartma shakli “FFC”)ni tuzdi. Ana shu jamiyat nashri hisoblangan jurnalda har yili ertak syujetlarining ko‘rsatkichlarini tuzish borasidagi izlanishlarning natijalari chop etirila boshlandi.

K.Kron fin folklorshunoslarining “muayyan folklor asarining qadimi shakli sodda ko‘rinishga ega bo‘ladi” degan qarashini rivojlantirib, afsona yoki epik rivoyatning ilk shaklini belgilash tarixiy-jo‘g‘rofiy tadqiqotning bosh masalasi emas, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bu metod ilk badiiy shaklning turli davrlar va turli hududlarda tarqalgan variantlaridagi o‘zgarishlarni aniqlashda yaxshi samara beradi. Olim bu nazariy qarashini o‘zining qiyosiy adabiyotshunoslilikka oid ishlarida, odam va tulki haqidagi ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotida, shuningdek, “Kadevala” va eston xalq qo‘shiqlari haqidagi asarlarida, ayniqsa, 1926-yilda nashr ettirilgan “**Folklor-ni o‘rganish metodi**” (“Die folrloristische Arbeitsmethode”) asarida yanada takomillashtirdi.

“Tarixiy-jo‘g‘rofiy metod” keyinchalik Y.Kron va K.Kronlarning shogirdi, fin folklorshunoslilik maktabining yirik namoyandasini Antti Amatus Aarne (1867-1925)ning ishlarida davom ettirildi. Uning 1910-yilda nashr etilgan “**Ertak tiplarining ko‘rsatkichi**” (“Verzeichnis der Marchentypen”), 1913-yilda chiqarilgan “**Qiyosiy ertakshunoslik asoslari**” (“Leitfaden der vergleichenden Marchenforshung”) kabi asarlari tarixiy-jo‘g‘rofiy metod asosida yaratilgan. A.Aarne dunyo xalqlari ertaklarini “motivlar silsilasidan tashkil topgan syujet”lar bo‘yicha tasniflab, muayyan tiplarga ajratgan. Bu asar hozirga qadar folklorshunoslikda epik syujetlar va motivlarni sistemalashtirishning ilmiy-nazariy asosi sifatida foydalanib kelinmoqda.

A.Aarnening “Ko‘rsatkichi” asosan Yevropa xalqlari ertaklari asosida tuzilgan bo‘lib, unda ertaklar quyidagicha tasniflangan: I. Hayvonlar haqidagi ertaklar; II. Sof ertaklar: a) sehrli ertaklar; b) afsonaviy ertaklar; d) novellistik ertaklar; e) laqma shayton (yoki “pahlavon”) haqidagi ertaklar; III. Latifalar.

Bu guruahlarga mansub ertaklar mavzu tiplari bo‘yicha tafsiflangan bo‘lib, har bir ertak o‘zining alohida tartib raqamiga ega. Olim “Hayvonlar haqidagi ertaklar”ni 1-299, “Sof ertaklar”ni 300-1199, “Latifalar”ni esa 1200-1999 raqamlari bilan belgilagan.

“Fin folklorshunoslik maktabi”ning **asosiy yutug‘i** - tahlilga jalb etilayotgan faktik materialning qamrovi kengligi, syujetlarning variantlari imkonи boricha geografik va tarixiy-xronologik nuqtayi nazaridan ko‘proq bo‘lishiga erishishdan iborat edi. Bu maktab metodikasi o‘rganilayotgan epik syujetning jahon xalqlari folklorida mavjud bo‘lgan va aniqlangan barcha variantlarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham fin folklorshunoslik maktabining ilmiy metodi ba’zan “**jo‘g‘rofiy-statistik metod**” deb ham ataladi. Mavjud barcha variantlarni qiyosiy o‘rganish asosida muayyan ertakning arxetipini rekonstruksiya qilish hamda mazkur syujetning ilk shakllanish joyi va manbaini aniqlab, uning keyingi tarqalish arealini ertak motivlari, syujetlari va syujet elementlarini formal tahlil qilish asosida ko‘rsatib berish fin folklorshunoslik maktabining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan. Shuning uchun ham bu maktab metodikasi folklorshunoslardan **“statistik-sxematik tahlil”** deb baholandi va A.I.Nikiforov, R.M.Volkov, D.K.Zelenin, K.S.Konkka kabi folklorshunoslarning babs-munozarali chiqishlariga ham sabab bo‘ldi.

A.Aarne tomonidan ishlab chiqilgan “Ko‘rsatkich” esa jahon xalqlari ertaklarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish va syujetlarni qiyosiy o‘rganish modelini taqdim etganligi bilan fin folklorshunoslik maktabining kuchli jihatini aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda, “fin maktabi” tomonidan folklorni tadqiq etishga tatbiq qilingan metod muayyan kamchiliklardan ham xoli emas edi. Ertakshunoslarning 1932 yilda Lunde (Shvetsiya) shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro kongressda so‘zga chiqqan shved olimi K.V.Sidov bu maktabning asosiy nazariy xatolarini shunday bayon qildi: “Agar Antti Aarnening ayrim ertaklarga bag‘ishlangan monografiyasi hamda “fin maktabi”ning boshqa mamlakatlardagi tarafdorlari tomonidan yozilgan xuddi shunga o‘xshash ishlar bilan tanishib chiqqan kishi, ertakshunoslrik boshi berk ko‘chaga kirib qolganligi, endi bu yo‘l bilan hech qayoqqa bora olmasligiga amin bo‘ladi. “Fin maktabi”da ishlab chiqilgan metod shu qadar sodda, sxematik va buning ustiga, ko‘pincha noaniq va yuzaki ma’lumotlarga asoslan-

gan. Har bir monografik tadqiqotning vazifasi mazkur ertakning ilk syujet asoslarini topish va u yuzaga kelgan joyni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bunda ertakning barcha variantlari bir xilda baholanadi va tahlil sxematik-statistik usulda olib borilgan. Bunday tadqiqot natijasida esa, ertakning dastlab paydo bo‘lgan eng sodda syujet o‘zagi emas, balki mukammal motivlар tarkibiga ega bo‘lgan yaxlit matn, ya’ni ertak taraqqiyotining eng keyingi mahsuli aniqlangan. O‘zining syujet qurilishiga ko‘ra tadqiqotchilar aniqlagan ana shu “prforma”ga eng yaqin deb topilgan ertak yozib olingan joy esa ertakning prosyujeti yuzaga kelgan taxminiy hudud deb belgilanadi”.

Tarixiy-jo‘g‘rofiy metodning “sxematizm” bilan bog‘liq xatolari amerikalik professor Stif Tompson tomonidan to‘g‘rilandi. U 1926–1927-yillarda K.Kron rahbarligida A.Aarnening “Ertak tiplari ko‘rsatkichi”ni qayta nashrga tayyorlash borasida boshlagan ishlarini davom ettirdi va uni ingliz tiliga tarjima qilib, 1928-yilda nashr ettirdi. Oradan bir yil o‘tgach, “Folklore Fellows Communications”, ya’ni “FFC” yillik ilmiy to‘plamida rumin, venger, island, ispan ertaklari ning syujet ko‘rsatkichlari chop ettirildi.

Ertakshunoslarning 1935-yilda Lunde shahrida o‘tkazilgan navbatdagi xalqaro anjumanida A.Aarne ko‘rsatkichining boyitilgan va to‘ldirilgan namunasini tayyorlash lozim, degan xulosaga kelindi. Avvalgi izlanishlardan farqli o‘laroq, yangi ko‘rsatkichni yaratishda faqat ertaklar bilan cheklanib qolmasdan, dunyo xalqlari folkloridagi mif, afsona, latifa hamda badiiy jihatdan qayta ishlangan ababiy ertaklar materialini ham jalb qilish tavsiya qilindi. Bu g‘oyat mashaqqatli va ko‘lamdor tadqiqotni amalga oshirish esa S.Tompson zimmasiga tushdi.

S.Tompson jahoning turli mamlakatlarida chop ettirilgan va Folklor arxivlarida saqlanayotgan ulkan hajmdagi faktik materialni tahlil qilishga kirishar ekan, “fin maktabi” asoschilari tomonidan qo‘llanilgan “**tiplarga ajratish metodi**” bu darajadagi katta materialni sistemalashtira olmasligini sezib qoldi. O‘z salafalaridan farqli o‘laroq, S.Tompson syujetlarni tiplarga ajratishning eng kichik rub-

rikativ birligi sifatida syujetni emas, balki motivni tanıtladı va shu asosda ish olib bordi. Shuning uchun ham 1936-yilda nashr etilgan 6 jildlik katalog “Ertak motivlarining ko‘rsatkichi” deb atalgan bo‘lib, ilk jildning avvalidagi so‘z boshida “Ko‘rsatkich”ning mohiyati ha-qida ma’lumot berilgan edi.

S.Tompson o‘zining mazkur “Ko‘rsatkich”iga kiritilgan motivlarni quyidagi tartibda guruhlashtirgan:

- 1) qadimgi kosmogonik mif motivlari;
- 2) totemizm, magiya, inonch-e’tiqodlar, xalq qarashlari, g‘ayriiddiy kuchlar haqidagi tasavvurlar hamda jonivorlarning ramziy obrazlari bilan aloqador motivlar;
- 3) “inson taqdiri va xarakterining individual sifatlari” tasviri bilan bog‘liq motivlar;
- 4) qirollar, shahzodalar, shohona urf-odatlar, ijtimoiy tabaqalar va kasb-hunarlar bilan bog‘liq nasriy asarlar motivlari (S.Tompson bu guruhni “ijtimoiy tizimga oid motivlar” deb nomlagan);
- 5) taqdirlash va jazolash bilan bog‘liq motivlar;
- 6) qochish, johillik, shahvoniyat, uylanish va tug‘ilishga oid motivlar;
- 7) diniy motivlar;
- 8) humoristik motivlar.

Xalq nasri asarlarini syujet tiplari bo‘yicha emas, balki syujet qurilishini tashkil etuvchi an’anaviy motivlar silsilasi asosida tasniflashning S.Tompson tomonidan taklif qilingan usuli folklorshunoslar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Chunki avvalgisiga nisbatan mu-kammalroq bo‘lgan bu usulning afzalligi – epik syujetlar migratsiya-sining hududiy qamrovini yanada aniqroq belgilash, tahlil qilinajak faktik material qamrovini kengaytirish hamda folkloarning ertakdan boshqa janrlariga ham tatbiq etilish imkoniyatiga egaligida edi.

S.Tompson 1946-yilda Indiana universiteti (AQSH) huzurida Folklor institutini tashkil etdi va folklorshunoslikdagi “antropologik maktab” vakillarining bahs-munozaralariga qaramay, «tarixiy-jo‘g‘rofiy metod» assosidagi ilmiy tadqiqotlarni izchil davom ettirdi. Natijada Polineziya va Mikroneziya, Yevropa mamlakatlari va

(M.Boshkovich-Stulli, 1959), hind (S.Tompson, V.Roberts, 1960), polyak (Y.Kshijanovskiy, 1962-1963), ingliz (YE.V.Boungman, 1966), Markaziy Afrika (V.A.Lambrecht, 1967), yapon (X.Ikeda, 1971), osetin (A.X.Byazirov, 1972), slovak (V.Gashparikova, 1974), gruzin (T.O.Kurdovanidze, 1977), latish (K.Arais, A.Medne. 1977; "Arais-Medne katalogi" deyiladi), abxaz, avar (I.Levin, U.Mazing, 1965-1975), belorus (L.S.Barag), chechen-ingush (B.S.Sagdullayev, 1980), adig (A.I.Aliyeva, 1986) va boshqa xalqlar ertaklarining syujet ko'rsatkichlari va motiv-indekslari ko'rsatkichlari tuzildi.

Keyingi yillarda folklorning epik janrlariga mansub asarlarning syujet va motivlar ko'rsatkichini tuzishda kompyuter texnologiya-sining imkoniyatlaridan samarali foydalaniylmoqda. Xususan, Rossiya Fanlar akademiyasi Fundamental tadqiqotlar dasturining "Yevroosiyoda madaniy muloqotlar" yo'nalishi asosida 2004-yilda FAning Sankt-Peterburg bo'limi tomonidan berilgan 04-06-80238 raqamli grant asosida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan rus olimi Y.Ye.Berezkin "Amerika va Yevrosiyo xalqlari folkloridagi mifologik motivlar katalogi"ni tuzdi. Bu katalog Osiyo va Amerika qit'alarining 208 arealidan to'plangan 35 ming matnning annotatsiyasi asosida aniqlangan 1164 ta motivni o'z ichiga olgan. Yevrosiyo, Avstralomalaneziya, Shimoliy Amerika xalqlari folkloridagi mifologik motivlar ikki tipga, ya'ni «kosmologik va etiologik motivlar» (525 ta) va «qolgan barcha motivlar»(639 ta)ga bo'lib tasniflangan. Y.Ye.Berezkin Amerika va Yevrosiyo xalqlari mifologiyasidagi parallelliklar ilk glotsen davri, ya'ni bundan 8-10 ming yillar burungi jarayonlar bilan bog'liq, degan xulosaga kelgan. Bu katalogning elektron versiyasi muallif tomonidan muttasil to'ldirib borilmoqda.

Ertaklarni kataloglashtirish va ularning syujet ko'rsatkichlarini tuzish yuzasidan turkiy xalqlar folklorshunosligida ham ancha ishlar amalga oshirilgan. 1953-yilda turk xalq ertaklarining nemis olimi V.Ederxand va P.T.Boratov tomonidan tuzilgan syujet ko'rsatkichi nashr etilgan edi. Turkman olimi A.Baymiradov "Hayvonlar haqidagi turkman ertaklari" (1986) nomli tadqiqotida

A.Aarne, S.Tompson, N.P.Andreyev metodini turkman folkloridagi majoziy ertaklarga tatbiq etgan.

Boshqird folklorshunosi A.M.Sulaymonov o‘zining “Boshqird xalq maishiy ertaklari” (1994) nomli asarida turkiy xalqlar folklorshunosligida birinchi bo‘lib maishiy ertaklar turkumini xalqaro syujet ko‘rsatkichlari va kataloglar (“AT”, “SUS”)ga qiyoslash asnosida tadqiq etdi. Natijada xalqaro kataloglarda qayd qilingan syujet tiplarining deyarli barchasi boshqird folklorida mavjudligi aniqlandi.

«Tojik folklori kulliyoti» silsilasida 1981-yili nashr etilgan «Hayvonlar haqidagi ertaklar va masallar» nomli kitobda 419 ta tojik xalq ertaklari hamda masallari A.Aarne-S.Tompson, V.Ederhand-P.T.Boratov kataloglari asosida sistemalashtirilgan. To‘plamga folklorshunos Mirra Yavich tomonidan tuzilgan «Tojik majoziy ertaklarining asosiy motivlar ko‘rsatkichi» ham ilova qilingan.

O‘zbek folklorshunosligida tarixiy-jo‘g‘rofiy metod asosiga qurilgan yirik tadqiqotlar yaratishga endigina kirishilayotgan bo‘lsada, xalq ertaklarining syujetini Aarne-Tompson, Aarne-Andreyev ko‘rsatkichlariga solishtirib o‘rganish tajribasi anchadan buyon qo‘llanilmoqda. Xususan, professor G.Jalolovning “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” (1976) asarida o‘zbek folkloridagi original syujetli ertaklar mavjudligini ilmiy dalillash maqsadida Aarne-Andreyev katalogida “300” raqami bilan belgilangan “Iltonni yenguvchi” syujet tipining o‘zbeklar orasida tarqalgan milliy versiyalari tahlil qilingan. Aarne-Andreyev katalogidagi 301-syujet tipi o‘zbek folkloridagi uch og‘a-inining safarga chiqishi va go‘zal qizni olib qaytayotgan kenjaga akalarining dushmanlik qilishi hamda kenja ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirib, o‘z uyiga kelishi haqidagi ertakka o‘xshashligi aniqlangan. 301-syujet tipiga xos motivlar “Abulqosim”, “Misr podshosi”, “Sehrli olma” kabi ertaklarda ham uchrashini, shuningdek, “300, 313, 325, 400, 403, 450, 465, 511, 513-ertak syujetlarining rus va boshqa xalqlar folkloridagi talqinlari bilan o‘zbek ertaklari orasida ba‘zi bir umumiylilik” mavjudligini qayd qilgan tadqiqotchi, o‘zbek xalq ertaklarining syujeti xalqaro ertak syujetlariga monand bo‘lsa-

da, bu ertaklar o‘zbek xalqining qadimiy madaniyati bilan bog‘liq holda vujudga kelgan, deb hisoblaydi.

Folklorshunos T.Rahmonov o‘gaylik mavzusidagi xalq ertaklarining o‘zbek folklorida ommalashgan syujet tiplarini aniqlashga doir ilmiy ishida shartli ravishda “begunoh jabrlanganlar” deb atalgan mavzu guruhining “O‘gay ona va o‘gay qiz” (AT-403, 480, 510); “Soxta kelin” (AT-425, 533); “Opa va uka” (AT-450); “Qo‘lsiz qiz” (AT-706); “Bilmasvoy” (AT-532); “O‘gay ona va o‘gay o‘g‘il” (AT-511); “G‘aroyib bolalar” (AT-707); “O‘gay onam o‘ldirdi meni” (AT-720); “O‘lik malika yoxud sehrli oyna” (AT-709); “Tuhmatga uchragan xotin” (AT-712); “Tuhmatga uchragan qiz” (AT-883) kabi syujet tiplari mayjudligini aniqladi.

Filologiya fanlari nomzodi M.Sodiqovaning o‘gay qiz tipidagi epik syujetlarning o‘zbek folkloridagi talqinlariga bag‘ishlangan “O‘gay qiz tipidagi turkum ertaklarning genezisi, spetsifikasi va poetikasi” mavzuidagi dissertatsiya ishida (2001) bu yo‘nalishdagi izlanishlar izchil davom ettirildi. A.Aarne, S.Tompson, A.P.Andreyev, L.G.Barag kabi olimlar tomonidan qo‘llanilgan tadqiqot metodi asosida ish olib borgan yosh olima o‘gay qiz haqidagi turkum ertaklarning o‘zbek folklorida to‘qqiz xil syujet tipi mavjudligini aniqladi. O‘zbek folkloridagi o‘gay qiz haqidagi ertaklarni muayyan tiplariga ajratib tavsiflashga bag‘ishlangan mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek xalq ertaklarining syujet va motivlar ko‘rsatkichini tuzish uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi o‘zbeklarning o‘gaylik mavzusiga doir ertaklarini jahon xalqlari folkloridagi o‘gay qiz haqidagi epik syujetlar bilan qiyoslab, ularning o‘ziga xos va farqli jihatlarini aniqladi.

Masalan, Aarne-Andreyev va Aarne-Tompson ko‘rsatkichlarida “O‘gay ona va o‘gay qiz” deb nomlanib, AT-480 raqami bilan belgilangan syujetning besh xil ko‘rinishi berilgan: 1) AA480*A raqamli syujet tipi talqinicha, quduqdan suv olayotganda bexosdan chelakni tushirib yuborgan o‘gay qiz onasining qahridan qo‘rqib, chelak axtarib yo‘lga tushadi. Sehrgar unga yaxshiligi uchun bir sandiq tilla

sovg‘a qiladi. O‘gay onaning qizi o‘zining uquvsizligi tufayli olovda kuyib o‘ladi; 2) o‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qizni Ayozbobo (yalmog‘iz kampir, alvasti va h.k.) sinab ko‘riishi va sovg‘a berishi haqidagi ertak syujeti AA480*V deb belgilangan; 3) AA480*S raqamli syujet talqinicha, o‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qiz ayiq bilan bekinmachoq o‘ynaydi va o‘sha ayiq yordamida baxtga erishadi; 4) mazkur syujetning AA480*Ye raqamli variantida esa o‘rmonga adashtirib kelingan o‘gay qizga mushuk, olma, beryoza daraxti va pechka yordam beradilar; 5) AA480*D raqamli syujet tipi esa o‘gay ona qistovi bilan o‘rmonga yuborilgan yetim qiz shaytonni aldab, tong ottirishi voqealari hikoya qilinadi.

M.Sodiqovaning tadqiqotlari natijasida o‘zbek ertakchilari repertuarida mazkur epik syujetning o‘ziga xos tipi mavjudligi aniqlandi. “Podavonning qizi” deb nomlangan bu ertak Buxoro viloyatining Olot tumanida yashovchi 55 yashar Iqlim Abdullayevadan 1975-yilda S.Umarov tomonidan yozib olingan bo‘lib, tadqiqotchi ana shu syujet tipini **AA480*F** deb tavsiflaganligi jahon xalqlari ertaklari syujeti va motivlar tizimining katalogini mukammallashtirishga qo‘shilgan katta hissadir.

Bu ertakda yetim qizning o‘gay ona qistovi bilan badarg‘a qilinishiga bog‘liq voqealar mazkur tipga mansub ertaklar syujetining an‘anaviy mezoni shakliga monand holda tasvirlangan. Ammo ertak qahramoni Nordonxonning shundan keyingi sarguzashtlari, ayniqsa, kaptar ko‘rinishidagi afsonaviy homiy larning unga yordam berishi voqealari boshqa xalqlar ertaklarida uchramaydi. Demak, «tarixiy-jo‘g‘rofiy metod» assosida olib boriladigan izlanishlar folklor asarlarini jahon xalqlari og‘zaki badiiy ijodiyoti kontekstida tahlil qilish va o‘ziga xos jihatlarni belgilash uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

“Tarixiy-jo‘g‘rofiy metod” folklorning epik janrlariga xos syujet va motivlarning tarqalish arealini aniqlash, u yoki bu syujetning turli variantlarini qiyosiy tahlil qilish asnosida birlamchi epik o‘zak – arxetiplarni belgilash, syujetlarning yuzaga kelish jarayoni va tarqalish ko‘lamiga doir ilmiy kuzatishlar olib borish imkonini beradi.

«Migratsion maktab». XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, folklorshunoslar miflarni qiyosiy o‘rganish maqsadida juda boy faktik material to‘pladilar. Bu esa jahonning turli joylarida istiqomat qiluvchi xalqlar og‘zaki badiiy ijodi va yozma adabiyotida ko‘plab o‘xhash syujet, motiv va obrazlar mavjudligini ko‘rsatdi. Aniqlanishicha, tarixiy-etnik kelib chiqishida umumiylilik bo‘lmagan xalqlarning ertaklari orasida syujet qurilishi va motivlar tizimiga ko‘ra bir-biriga juda o‘xhash asarlar ko‘pchilikni tashkil etar ekan. Dunyo xalqlari folkloridagi bunday mushtarakliklarning sababini o‘sha davr folklorshunosligidagi asosiy yo‘nalish hisoblangan “mifologik maktab”ning “hind-yevropa bobosyujetlari”ni o‘rganishga asoslangan “qiyosiy-filologik” metodi yordamida aniqlashning imkonini bo‘lmadi. Chunki epik syujetlarida o‘xhashlik mavjudligi aniqlangan xalqlar bir-biridan jo‘g‘rofiy o‘rni, etnik mansubiyati, diniy-e’tiqodiy qarashlari va turmush tarziga ko‘ra jiddiy farqlanib turardi. Shu tariqa, folklorining bu o‘ziga xos xususiyatini yangi ilmiy konsepsiya va nazariya asosida tadqiq etish ehtiyoji tug‘ildi va turli-tuman xalqlar folkloridagi o‘xhashliklarning sababini tushuntirishga qaratilgan “sayyor syujetlar nazariyasi” yuzaga keldi.

Har xil xalqlar so‘z san‘atidagi mushtarak epik hodisalarini folklorshunoslikda “**migratsion nazariya**”, “**o‘zlashtirish nazariyasi**”, “**kezuvchi syujetlar nazariyasi**”, “**sayyor syujetlar nazariyasi**” kabi turli xil nomlar bilan ataluvchi mazkur ilmiy yo‘nalish XIX asrning 50-yillaridan e’tiboran G‘arbiy Yevropa folklorshunosligida “**migratsion maktab**” nomini oldi.

Turli xalqlar epik syujetlarining o‘xhashligi birinchi marta “Kalila va Dimna” masallarini tadqiq etgan fransuz olimi Silvester de Sasi tomonidan aniqlangan edi. U uzoq yillar mobaynida “Panchatantra” ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi va 1816-yilda “Kalila va Dimna” yoki arab tilidagi «Bidpay masallari» nomli kitobni chop ettirdi. S.Sasi buddaviylik aqidalarini targ‘ib etuvchi adabiyotlarni, xususan, budda kohinlarining afsona, rivoyat, naql va masallarini o‘rganib, buddizm inqirozidan keyin bu ta’limotning ma’rifiy-

adabiy merosidan braxmanlar foydalanishi va “Panchatantra”ning shakllanish tarixiga doir qimmatli fikrlar bildirdi.

Garchi bu tadqiqotda epik syujetlarning ko‘chishi xususida fikr yuritilmagan bo‘lsa-da, S.Sasining ilmiy qarashlarini davom ettirgan L.Delonshanning “Hind masallari va ularning Yevropaga tarqalishini o‘rganish tajribasidan” (1848), V.Vagenerning “Hind va yunon apologlari orasidagi o‘zaro aloqalar haqida ocherk” (1852) asarida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarining ommalashishida o‘zaro ta’sir va madaniy aloqalar muhim rol o‘ynaganligi e’tirof etildi. Bu ikki tadqiqotchi qadimgi yunon masallarining ma’lum bir qismi Osiyo xalqlari folklorining ta’sirida yuzaga kelganligini asoslab, hind adabiyotining ma’rifiy xarakterdagи adabiy janri – apologlarning yunonlar tomonidan o‘zlashtirilishi natijasida masal janri kelib chiqqan, degan qarashni ilgari surdilar.

L.Delonshanning hind apologlari va yunon masallari orasidagi aloqadorlik to‘g‘risidagi gipotetik qarashlari taniqli nemis filolog olimi, qiyosiy tilshunoslik va hind filologiyaga doir ko‘plab ilmiy asarlar muallifi, Gyottingen universiteti professori Teodor Benfey (1809-1881) tomonidan yaratilgan “migratsion nazariya”ning kelib chiqishiga asos bo‘ldi.

T.Benfey “mifologik maktab” vakillarining folklor asarlari g‘oyat qadimiyl asoslarga egaligi haqidagi ilmiy qarashlarini ma’qullagani holda, “xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining taraqqiyoti o‘zaro madaniy va adabiy ta’sir jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir”, degan xulosaga keldi. U folklorning rivojlanishida milliy mentalitet va tarixiy omillarning ahamiyatini e’tibordan soqit qilganiga qaramay, o‘zining hind adabiyoti syujetlarining boshqa xalqlar folkloriga “ko‘chib o‘tishi” haqidagi ilmiy qarashlari bilan folklorshunoslik tarixida burilish yasadi.

T.Benfey qadimgi hind ertaklari, naql va masallari to‘plami “Panchatantra”(milodiy I asr)ni nemis tiliga tarjima qildi va 1859-yilda nashr ettirdi. Olimning ana shu nashrga so‘z boshi sifatida ilova qilingan qariyb 600 sahifalik tadqiqotida sanskrit ertaklari

jahondagi boshqa xalqlar folklorida mavjud bo‘lgan epik syujetlar bilan o‘xshashligiga ko‘plab dalillar keltirdi. Shuning uchun ham T.Benfeyning ana shu so‘z boshi-tadqiqoti folklorshunoslik tarixidagi “migratsion maktab” nazariyasining boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi.

Chunki T.Benfey “Panchatantra” va Yevropa xalqlari ertaklari syujet tizimidagi o‘xshashlikning sababini hind-yevropa xalqlari ning etnik tarixidagi mushtaraklik (ya’ni “mifologik maktab” taraf-dorlari ta’biri bilan aytganda, “hind-yevropa bobosyujetlari”)dan emas, balki bu xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro madaniy-tarixiy aloqalardan izlash lozim, deb hisobladi. Uning fikricha, Sharq madaniyatining G‘arbiy Yevropa xalqlariga ta’siri bir necha tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Iskandar Zulqarnaynning yurishlari va ellinizm davri (miloddan burungi VIII asrlar)da amalga oshirilgan savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar “epik syujetlarning ko‘chishi” jarayoni ro‘y ber-gan birinchi bosqich bo‘lsa, arab iste’lochilarining xuruji va salb yurishlari davri ikkinchi bosqich deb talqin qilinadi. T.Benfeyning taxminicha, Osiyo xalqlari adabiyotining Yevropa folkloriga ta’siri sezilarli darajada kuchayishi bilan xarakterlangan ana shu “ikkin-chi bochqich”da Sharq adabiyoti Yevropaga asosan uch yo‘nalish bo‘ylab kirib kelgan: 1) O‘rta yer dengizi sohillari mamlakatlari, shuningdek, Ispaniyaning arablar tomonidan iste’lo etilishi hamda “Mavritaniya madaniyati”ning yuzaga kelishi; 2) Sharq madaniyatining Yunoniston arxipelagi orqali Sitsiliya va Italiyaga kirib kelishi; 3) folklor asarlari va adabiy syujetlarning O‘rta va Kichik Osiyo dan Vizantiya hamda Bolqon yarim oroli orqali Sharqiy Yevropaga “Buyuk ipak yo‘li” bo‘ylab kirib kelishi.

T.Benfeyning yozishicha, “X asrdan e’tiboran Hindistonga is-lom dinining kirib borishi natijasida yozma adabiyot og‘zaki badiiy an’ana ustidan ustunlik qila boshladi. Hind adabiyoti namunalari arab va fors tillariga tarjima qilinib, arablarning bosqinchilik yur-ishlari tufayli Osiyo, Afrika va Yevropaning turli mamlakatlarida ya-shovchi aholi orasida keng yoyila boshlandi”. U hind adabiyoti syu-jetlarining Yevropa xalqlari orasida tarqalishida mo‘g‘ullar iste’losi

muayyan darajada ahamiyat kasb etganligini ham e'tirof etadi: "milodiy I asrda buddaviylik adabiyoti bilan birga hind masallari, naql va afsonalari avval Xitoya, so'ngra Tibetga kirib borgan. Tibet orqali esa bu masal, naql va afsonalar buddaviylik aqidalari bilan birga Mo'g'uliston aholisi orasida tarqalgan. Bizga ma'lumki, hind adabiyotining ko'pgina namunalari mo'g'ul tilidan tarjima qilingan va shu tariqa, hind hikoyatlari mo'g'ullarning qariyib ikki yuz yillik hukmronligi davrida Yevropaga keng yoyilgan".

Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalarning ana shunday murakkab tarixiy-folkloriy tavsifini ilmiy jihatdan dalillaganligi uchun ham T.Benfey konsepsiysi folklorshunoslik tarixida "**tarixiy-orientalistik metod**" nomini oldi.

T.Benfey bilan deyarli bir vaqtida folklor an'anasining rivojlanishi va taraqqiy etishida "sayyor syujetlar"ning bir xalq og'zaki badiiy ijodidan boshqasiga "ko'chib o'tishi" jarayoni muhim rol o'ynashini rus olimi A.N.Pipin ham kashf etgan edi. Uning 1858-yilda nashr etilgan "Ko'hna rus qissalari va ertaklarining adabiy tarixidan ocherklar" nomli asari qadimgi rus adabiyotining Sharq va G'arb adabiy an'analari bilan o'zaro aloqalarini o'rganishga bag'ishlangan.

"Sayyor syujetlar nazariyasi" XIX asrning oxiridan boshlab ko'pgina folklorshunoslarni o'ziga jalb etdi. Jahan xalqlari folklorining o'zaro ta'siri va aloqalarini o'rganishga R.Kyoler, M.Landau, N.Volte (Germaniya), G.Paris, E.Kosken (Fransiya), A.Klouston (Angliya), A.de Ankona, D.Komparetti (Italiya), I.Polivka (Chexiya) kabi olimlar "migratsion maktab"ning ilmiy-nazariy qarashlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shishdi.

Rus folklorshunosligida "**benfeizm**", "**komparativizm**" nomini olgan "sayyor syujetlar nazariyasi" V.V.Stasov, F.I.Buslayev, V.F.Miller, A.N.Velelovskiy, I.N.Jdanov, G.N.Potanin, A.N.Kirpichnikov, A.M.Lobodu singari olimlarning tadqiqotlarida davom ettirildi. Epik syujetlarning o'zlashtirilishi jarayoni bilan bog'liq o'ziga xos tarixiy-filologik qonuniyatlarni ochishga qaratilgan "**komparativistik**" yoki "**qiyosiy folkloristik metod**", ay-

niqsa, V.V.Stasovning “Rus bilinalarining kelib chiqishi” (1868), A.N.Veselovskiyning “Sharq va G‘arbning adabiy aloqalari tarixidan” (1872), “Janubiy rus bilinalari” (1881-1884), V.F.Millerning “Rus xalq eposiga doir ekskurslar” (1892), G.N.Potaninning “O‘rta asr Yevropa eposida sharq motivlari” (1899) kabi asarlari-da chuqurlashtirildi.

O‘zbek folklorshunosi G.Jalolov o‘zining “O‘zbek xalq ertaklari poetikasi” (1976), “O‘zbek folklorida janrlararo aloqalar” (1979), “O‘zbek xalq ertak eposi” (1980) kabi kitoblarida Sharq xalqlari adabiyoti va folklorining o‘zbek folklori epik syujetlari taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligini e’tirof etadi. Olim folklordagi mushtarak syujetlarning vujudga kelish sabablarini quyidagi ikki jihat bilan bog‘lab izohlaydi:

a) birinchidan, xalqlarning qadimdan bir-biriga yaqin hududda yoki qo‘shti bo‘lib yashashi, tarixiy-tadrijiy rivoji, yashash tarzi va dunyoqarashidagi yaqinlik ertaklar syujetidagi o‘xhashlikni keltirib chiqaradi;

b) ikkinchidan, “ertaklardagi ayrim mashhur syujetlarning bir xalqdan ikkinchisiga, bir o‘lkadan boshqasiga ko‘chib yurishi, o‘tib turish hollari ham mavjud bo‘lib, bu xalqlar orasidagi...iqtisodiy, savdo, madaniy va turli-tuman o‘zaro aloqalar bilan bog‘liqdir”¹⁰.

G.Jalolov o‘zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo‘lib Sharq xalqlari yozma adabiyoti, xususan, xalq kitoblarining tarjimalari o‘zbek folklori epik janrlariga katta ta’sir ko‘rsatganligini, xususan, o‘zbek ertakchilari repertuarida hind, eron, arab xalqlari folkloridan o‘zlashtirilgan syujetlar asosida yaratilgan asarlar mavjudligini aniqlagan. Uning epik syujetlarni qiyosiy tahlil qilish borasidagi izlanishlari natijasida “Kalila va Dimna”, “Vetalining yigirma besh hikoyasi”, “Ming bir kecha”, “To‘tinoma” kabi Sharq adabiyotining mumtoz asarları o‘zbek xalq ertaklari syujet tizimini boyitishga katta hissa qo‘shtanligi ma’lum bo‘ldi. Masalan, “Qumursqa”, “Ovchi,

¹⁰ Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976, 41-бет.

Ko‘kcha va dono”, “Ilonning ishi zahar solmoq”, “Hiylagar bedana” ertaklari syujeti “Kaliла va Dimna” hikoyalariga o‘xshab ketsa, milodning I asrida vujudga kelib, Markaziy Osiyo, Mo‘g‘uliston va Tibet xalqlari orasida juda mashhur bo‘lgan “Vetalining yigirma besh hikoyasi” kitobidagi beshinchi hikoya uch og‘a-ini botirlar haqidagi o‘zbek xalq ertaklarini esga soladi.

“Sayyor syujetlar” yoki “ko‘chib yuruvchi syujetlar”ning o‘zbek xalq ertaklari syujet silsilasini boyituvchi manbalardan biri bo‘lganligini to‘g‘ri e’tirof etgan G‘. Jalolov qadimgi hind adabiyoti namunalarining O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar orasida tarqalishi interpretatsiya yo‘li bilan amalga oshgan, deb hisoblaydi: “ertaklar qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilinmaydi, balki ularning ba’zi motivlari qabul qilinib, juda katta o‘zgarishlar (interpretatsiya)ga uchradi. Xalqimiz bu ertaklar motivlarini o‘z hayoti, madaniyati, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari, orzu-istaklari zaminida qayta ishlab chiqdi, o‘z talabiga javob beradigan o‘rinlarni qoldirib, ba’zilarini esa batamom qayta ishlab, original ertaklar darajasiga ko‘tardi”.

Ertak syujetlarining shakllanishini asosan “syujetlarning ko‘chib o‘tishi” jarayoni bilan bog‘liq, deb hisoblagan “migratsion mакtab” vakillaridan farqli o‘laroq, G‘. Jalolovning fikricha, epik syujetlar quyidagi ikki omil asosida yuzaga kelgan: “o‘zbek xalq ertaklari syujetining xalqimiz hayoti, dunyoqarashi, urf-odati, milliy xususiyati va yashash sharoiti bilan chambarchas bog‘liqligi uning o‘ziga xos xususiyatlaridandir. Shuning uchun ham bu ertaklarning syujeti xalqaro ertak syujetiga monand bo‘lishi, ko‘chib yuruvchi syujet deb nomlanishidan qat’i nazar, ular o‘zbek xalqining uzoq asrli juda qadimiy madaniyati bilan bog‘liq holda vujudga kelgan”.

O‘rta Osiyo turkiy xalqlari ertakchilik an’analari tarixini qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tадqiq etgan folklorshunos olim X.Egamovning “Sayyor syujetlar” (1975), “Rang-barang olam” (1979), “Turkiy xalqlar ertakchilik an’analari aloqalari tarixidan ocherklar” (1980) kabi asarlarida o‘zbek xalq ertaklari syujet silsilasi

qardosh turkiy xalqlar folklori materiallari bilan qiyosan tahlil qilindi. Uning fikricha, “bir xalq og‘zaki ijodidan ikkinchi xalq og‘zaki ijodiga o‘zlashgan, ya’ni mazkur xalq ideologik, falsafiy, estetik va etik qarashlaridagi o‘ziga xosliklar yorqin aks etgan, interpretatsiya - yaga uchragan motivlar” – “ko‘chib yuruvchi yoki xalqaro motivlar” deyiladi. Turkiy xalqlar ertaklarida yunon, arab, hind va eron mifologiyasi hamda folkloriga xos “ko‘chib yuruvchi syujet” va motivlar mavjudligini ertaklarning qiyosiy tahlili vositasida aniqlagan X.Egamov “bir xalq ijodidagi motiv yoki episod ikkinchi xalq uchun butun bir ertak syujeti bo‘lib xizmat qilishi yoki aksincha, bir syujet ikkinchi xalqqa o‘tganida milliy interpretatsiyaga uchrab, shu xalq ertagida ma’lum motivlarga aylanishi” qonuniyati mavjudligini aniqladi.

O‘zbek folklori epik syujetlari tizimining shakllanishi va bo'yib borishida arab adabiyoti, ayniqsa, “Ming bir kecha” (“Alf layla va layla”)ning ta’siri kuchli bo‘lgan. Shu bois, o‘zbek folkloridagi “o‘zlashtirma syujetlar”ning manbalari haqida so‘z yuritganda, arab-o‘zbek folklor aloqalari masalasiga ham to‘xtalish kerak bo‘ladi. Folklorshunos olim SH.Shomusarovning “Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili” (2002) nomli tadqiqoti xuddi shu muammo tahliliga bag‘ishlangan. Olim arab va o‘zbek xalq ertaklari syujet tizimidagi mushtarakliklarning yuzaga kelishiga quyidagi ikki omil asos bo‘lgan, deb hisoblaydi: a) ertak syujetlarining jonli og‘zaki ijro orqali tarqalishi; b) kitobat qilingan adabiy ertaklar, birinchi navbatda, “Ming bir kecha” majmuasining O‘rta Osiyo xalqlari orasida ommalashishi.

Darhaqiqat, “Ming bir kecha”ning tarjima qilinishi va xalq ommasi orasida tarqalishi natijasida arab ertakchiligiga xos bo‘lgan ko‘plab syujetlar o‘zbek ertakchilari repertuariga ko‘chgan. Prof. G.Jalolov “Vafo”, “Guljamol”, “Kambag‘al xotinning hiylasi”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Tadbirli ayol”, “So‘lmas gul yoki vafodor xotin” kabi ertaklar, shuningdek, Hamzaning “Maysaraning ishi” komediysi syujeti “Ming bir kecha”ning 593–596-kechalarida Shahrizoda tomonidan so‘zlangan arab ertagiga juda yaqinligini qayd

qilgan edi. SH.Shomusarov esa “Ming bir kecha”dagi “Sehrlangan yigit hikoyasi” ertagida ayyor xotin bilan bog‘liq voqealar tafsiloti (1-jild, 66–70-betlar) “Sirli gilamcha” nomli o‘zbek ertagidagi Gul va Qahramon sarguzashtlarini yodga tushirishi; “Bir mirilik hikmat” nomli arab ertagi “Sirli tush”, “Uch og‘iz o‘git” nomli o‘zbek ertaklarining yaratilishiga asos bo‘lganligi; “Tuz” nomli arab ertagidagi voqealar o‘zbeklarning “Dono xotin” ertagiga yaqinligini aniqlagan. Zero, arab xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining kitobat qilingan adabiy manbalari orqali O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbeklar orasida tarqalgan “sayyor syujetlar” o‘zbek ertakchilarining badiiy-estetik qarashlari va epik bilimi doirasida uzoq yillar mobaynida qayta ishlaniши natijasida yangi ertaklar silsilasi yuzaga kelgan.

“Sayyor syujetlar nazariyasi”ni ilgari surgan “migratsion maktab” o‘ziga xos yutuqlarga erishganligi bilan folklorshunoslik fani tari-xida alohida o‘rin tutadi. Bu maktabning **asosiy yutug‘i**, “mifologik maktab”ning folklor asarlari genezisiga doir bir yoqlama konsepsiysi (“barcha epik asarlar syujetining yagona bobosyujet yoki hind-yevropa bobotilida so‘zlashuvchi etnos mifologiyasiga borib taqalishi”) xato ekanligini isbotlaganligi hamda xalq og‘zaki badiiy ijodining taraqqiyotida madaniy aloqalar va o‘zaro adabiy ta’sir muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslaganligi bilan belgilanadi.

“Migratsion maktab” tadqiqotlari natijasida jahoning turli-tuman xalqlari folklorida mushtarak mavzudagi asarlar, o‘xshash syujet va motivlar tizimi mavjudligini tasdiqlovchi juda katta faktik material to‘plandi va qiyosiy tahlilga tortildi. A.N. Veselovskiy ta’biri bilan aytganda, “bu nazariya tarafдорлари syujetlarning o‘zlashtirilishi hodisa-sini ikki jihatdan, ya’ni “madaniy hodisa” o‘zlashtirilgan xalq folklorining o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘scha hodisani o‘zlashtirgan xalq adabiyotining milliy spetsifikasi nuqtayi nazaridan o‘rgandilar”.

Shu bilan birga, “migratsion maktab” tadqiqotlarida muayyan darajada cheklanishlar va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Bu maktab vakillarining **eng katta xatosi**, turli xalqlar folkloridagi “o‘zaro o‘zlashtirish” va adabiy ta’sir hodisasining tarixiy-folkloriy jarayon-

dagi rolini haddan ortiq darajada bo‘rttirib ko‘rsatishga berilib ketishda ko‘zga tashlanadi. Ular har bir xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida uning milliy mentaliteti, ma’naviy madaniyati, estetik qarashlari, ruhiy tabiatni, etnik mansubiyati va turmush tarzining o‘ziga xosligi ham aks etishini nazardan soqit qilishgan. Qolaversa, folklorning asosiy g‘oyalari bevosita uning ijodkorini bo‘lgan xalq ommasi tomonidan yaratilar ekan, u yoki bu epik syujetning o‘zlashtirilishi folklor taraqqiyotining asosiy sharti emas, balki ijodkorlikdagi ikkilamchi holat hisoblanadi.

“Migratsion mакtab” vakillari (mas.: V.V.Stasov, V.F.Miller va boshq.) turli xalqlar folkloridagi uchraydigan mushtarakliklarning barchasini “adabiy o‘zlashtirish mahsuli” deb qaraydilar. Ammo folkorda tipologik mushtaraklik ham mavjudligi har qanday o‘xshashlikni “syujetlarning ko‘chishi” yoki «folklor elementlarning migratsiyasi natijasida yuzaga kelgan holat», deb baholash to‘g‘ri emasligini ko‘rsatadi. XIX asrning oxirlarigacha folklorshunoslikda yetakchi yo‘nalish hisoblangan bu ilmiy maktabning shu kabi kamchiliklari ko‘zga tashlangach, xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini tadqiq etishning yangi metodlariga ehtiyoj sezila boshladi. “Migratsion mакtab”ning tarixiy-folkloriy jarayon rivojida real hayotiy voqelik rolini hisobga olmaslik natijasida kelib chiqqan nazariy kamchiliklar “antropologik mакtab” ta’limoti tomonidan to‘g‘rilandi.

«Antropologik mакtab». XIX asrning 60-yillariga kelib, xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini o‘rganishda yetakchi mavqe egallab turgan “migratsion mакtab” vakillari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning ko‘lami kengayganligi sababli, izlanishlar uchun faqat Yevropa hamda Sharq—O‘rtta va Kichik Osiyo hududiga oid materiallarning o‘zi kifoya qilmas edi, albatta. Natijada “syujetlarning ko‘chib yurishi” nazariyasi ta’siriga berilib ketgan etnograf, folklorshunos, geograf, tilshunos va sayyohlar jahoning turli-tuman mamlakatlarida yashovchi aholining folklorini to‘plashni avj oldirdilar. O‘scha davrda amalga oshirilgan etnografik ekspeditsiyalar va jo‘g‘rofiy kashfiyotlar ham fanda yangidan-yangi folklor materiallarining to‘planishiga

sabab bo‘ldi. Shu tariqa jahonning deyarli barcha hududlarida, xususan, Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya, Sharqiy va Janubiy Osiyo, Okeaniyada yashovchi aholining folklor materiallari jamlandi.

Mutaxassislar turli hududlarda istiqomat qiluvchi va muhim, bir-biri bilan etnogenetik va tarixiy-madaniy aloqada bo‘lmagan xalqlar folkloridagi g‘aroyib darajadagi mushtarakliklarga duch keldilar. Bunday lingvofolkloristik va etnofolkloristik mushtaraklikning sabablarini “mifologik maktab”ning “umumiylajdodlardan meros qilib olingen prosyujetlar” nazariyasi bilan ham, “migratsion maktab”ning “sayyor syujetlarning bir xalqdan boshqa xalq folkloriga o‘zlashtirilishi, ko‘chib o‘tishi” natijasida etnofolkloriy mushtarakliklarning yuzaga kelishiga doir ilmiy qarashlari bilan ham izohlab bo‘lmash edi. Boshqacha qilib aytganda, dunyo xalqlari folkloridagi ayrim o‘xshashliklar va mushtarakliklarning kelib chiqish qonuniyatlarini o‘sha davr folklorshunosligida amal qilayotgan nazariy qarashlar doirasida tushuntirishning imkonini bo‘lmadi. Folklorshunslig taraqqiyotidagi ana shunday murakkab bir vaziyat yuzaga kelgan davrda “**anropologik maktab**” nomli yangi nazariya vujudga keldi.

“Anropologik” yoki “etnografik maktab”ning nazariy qarashlari ibridoiy madaniyat va qadimgi diniy e’tiqodlarning yirik tadqiqotchisi, etnografiya va moddiy madaniyat tarixini o‘rganishdagi «**evolyusion nazariya**» tarafdarlaridan biri, “antropologik maktab”ning asoschisi, ingliz etnologi E.Taylor (1832-1917) va uning izdoshlari V.Vundt (Germaniya), J.Frezer (Angliya), A.N.Veselovskiy (Rossiya) tomonidan ilgari surilgan.

XIX asrning 30-yillaridayoq folklor asarlarini insoniyat tarixining eng quyi bosqichidan to yuqori taraqqiyot darajasigacha bo‘lgan davrlardagi badiiy-estetik tafakkur tizimining rivojlanish qonuniyatlarini asosida tadqiq etish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan “antropologik maktab”ning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan muayyan ilmiy baza yaratilgan edi. Yevropalik tabiatshunoslari orasida «**evolyutsion nazariya**» keng yoyilgan o‘sha davrda tafakkur rivojinining tadrijiylik mezoni asosida o‘sishi g‘oyasi insoniyat tarixini o‘rganishga ham

tabbiq etila boshlandi. 1836-yilda Kopengagendagi Qadimiy osori-atiqalar milliy muzeyi direktori Karl Yurgensen Tomsen arxeologik materiallarni ilmiy tavsiflash asosida insoniyat tarixining eng quyi qatlamiga oid topilmalarni “tosh, bronza va temir davrlari”ga bo‘lib tasnifladi. Uning shogirdi Yens Yakob esa arxeologik topilmalarning qaysi davrga mansubligini aniqlash usulini kashf etdi. Oradan ozgina vaqt o‘tgach, fransiyalik havaskor arxeolog Bushe de Pert mamont va boshqa shunga o‘xshash allaqachonlar qirilib yo‘q bo‘lib ketgan jonivorlar bilan bir davrda yashagan ibridoiy odam tomonidan yasalgan tosh qurollarni topishga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa evolyutsion ta’limotda yangi bir yo‘nalish – qadimgi odam va o‘sha davr madaniyatini tadqiq etishga yo‘l ochib berdi. Insoniyat tomonidan yaratilgan urf-odatlar, marosimlar, irim-sirim va inonch-e’tiqodlar, folklor asarlarini tarixiy-tadrijiy jarayon sifatida o‘rganish an’anasini boshlab bergen ingliz etnologi E.B.Taylorning ilmiy qarashlari ham aslida ana shu «evolyutsion nazariya» asosida shakllangan.

E.Taylorning 1861-yilda chop etilgan “Anaxuak yoki Meksika: o‘tmishi va buguni” nomli birinchi kitobi kubalik havaskor arxeolog-etnograf G.Kristining 1856-yilda Meksika bo‘ylab qilgan sayohati mobaynida to‘plangan qadimiy yodgorliklar hamda etnofolkloristik materiallar asosida yozilgan edi. 1865-yilda esa uning “Insoniyatning qadimgi tarixiga doir tadqiqotlar” nomli asari bosilib chiqdi. E.Taylor **evolyutsionistik nazariya** yoki “**qiyosiy-etnografik metod**” tamoyillariga suyangan holda, o‘zining bu kitobida bashariyat madaniyatining ibridoiy davrdan sivilizatsiyagacha bo‘lgan rivojlanish bosqichini o‘taganligi; ayrim xalqlar madaniyati va turmush tarzidagi farqli jihatlar ularning irqiy mansubiyatiga emas, balki erishilgan taraqqiyot darajasining bir xilda emasligi bilan bog‘liqligi; har bir etnosning madaniy boyliklari bevosita o‘sha xalqning o‘zi tomonidan yaratilishi, ajdodlaridan meros qilib olinishi yoki yonma-yon, qo‘shni bo‘lib yashovchi milatlarning madaniy qadriyatlaridan o‘zlashtirilishi mumkin, degan g‘oyat muhim xulosalarni bayon qilgan.

E.Taylor o‘z salafalaridan farqli ravishda “homo sapiens” (“aqlli odam”) biologik individ sifatida emas, balki ruhiy nuqtayi nazardan baholanishi kerak, degan qarashni ilgari surdi va antropologik tadqiqotlar doirasiga madaniy-ijtimoiy faktlarni ham jalb qilish lozim, deb hisobladi. Shu yo‘nalishda o‘z ilmiy tadqiqotlarini davom etirgan olimning 1871-yilda “Ibtidoiy madaniyat” nomli mashhur kitobi, 1881-yilda esa “Antropologiya” nomli fundamental asari bosilib chiqdi.

Ma’lumki, “**antropologiya**” atamasi Aristotel tomonidan “inson haqidagi fan” ma’nosida qo‘llanilgan. XIX asrning o‘rtalarida esa Yevropada etnografiya va folklorshunoslik fanlari yagona fanniy atama - “antropologiya” doirasida umumlashtirilgan edi. E.Taylor o‘zining “Ibtidoiy madaniyat” asarini yozishga kirishar ekan, nemis antropologi T.Vays (1821-1864)ning keng ko‘lamdagi etnografik materiallarni sistemalashtirish natijasida yaratilgan “Xalqlarning tabiiy antropologiyasi” (1959) va etnografiya fanida “elementar tafakkur” yoki «insoniyat tafakkuri taraqqiyotining muayyan bir davrida turli xalqlar orasida bir xil ijtimoiy va ma’naviy tushunchalarning kelib chiqishi nazariyasi»ga asos solgan nemis etnolog olimi A.Bastian (1826-1905)ning “Odamning tarixi” (1959) nomli asarlarini qunt bilan o‘rganib chiqqan. Bu kitoblar ma’lum ma’noda, folklor va etnografik materiallarni “**antropologik nazariya**” asosida qiyosiy tadqiq etish metodikasini ishlab chiqishga asos bo‘lgan.

Dunyo xalqlarining madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi, an‘analari, diniy, axloqiy-etik, badiiy-estetik qarashlari va poetik tafakkurida juda ko‘plab o‘xshashliklar mavjudligini aniqlagan E.Taylor, bunday umumiy jihatlarlarning kelib chiqishini insoniyating o‘ziga xos tabiatni, uning ruhiyati va tafakkurining mushtarakligi hamda bashariyat madaniyati taraqqiyoti bosib o‘tgan yo‘lning bir xilligi bilan bog‘lab izohlaydi. Bu – turli xalqlar folkloridagi mushtarak syujet elementlari va motivlarning mavjudligini bir xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida yaratilgan epik syujetlarning boshqa xalqlar tomonidan o‘zlashtirilishi natijasida yuzaga kelgan holat, deb bahola-

gan “migratsion mактаб” та’лимотига qараганда ancha ilg‘or va yangi nazariya edi. Chunki E.Taylorning “qiyosiy-etnografik metod”и folklor taraqqiyotida tarixiy-folklor jarayon dinamikasining roli va o‘rnii muhim ahamiyat kasb etadi, degan muhim qarashni o‘zida mujassamlashtirgan edi.

E.Taylor taraqqiyotning yuqori bosqichlariga erishgan xalqlar madaniyati, folklori va etnografiyasida saqlanib qolgan ko‘plab qadimgi tasavvurlar izlarini topib, ularni ibtidoiy davr kishilarining ko‘hna mifologik qarashlari, ritual va marosimlari bilan qiyoslab, **“inonch-e’tiqodlarning qoldiq holda saqlanib qolishi qonuni»ni** ochib berdi.

Qadimgi irim-sirim va inonchlarning xalq turmush tarzida qoldiq holda saqlanib kelishiga “aksa urish” bilan bog‘liq xalq qarashlari va u bilan bog‘liq aytim hamda alomatlarni misol qilib keltirish mumkin. E.Taylorning “Ibtidoiy madaniyat” asarida yozilishicha, Afrikadagi zulus qabilasida biror kishi aksa ursa, “Menga “idxlozi” (ya’ni “ajdodlar ruhi”)dan duo-olqish keldi. Ota-bobolarimning arvoohlari mening huzurimga keldilar, endi men ularni alqab, duo o‘qishim lozim. Chunki ular aksa urdirish orqali mendan duo talab qilmoqdarlar” deb, mol-holiga baraka, bolalari va ayoliga sog‘lik tilar ekan. Ularning nazarida xasta odamning aksa urishi – uning homiy ruhlar madadida kasallikdan forig‘ bo‘layotganligidan dalolat beradi. Zulus kohinlari esa odamni aksa urishga majbur qiladigan kuchni “Itongo” deydilar. Xalq qarashlariga ko‘ra, biror odamning ichiga Itongo kirib olsa, uni aksa urdirar va shu bois, aksa urgan kishi darhol “Itongo!” deb uning nomini tilga olishi kerak emish. Gvineyada esa qabila oqsoqoli aksirsa, uning qavmdoshlari darhol cho‘kka tushgan kuyi yerni tavof qilganlar va kaftlarini bir-biriga uring chapak chalib, oqsoqolning sog‘-salomat bo‘lishini tilashgan. Polineziyaliklar orasida esa yosh go‘dak aksirsa, “Sog‘ bo‘l!” deyiladi. E.Taylor “aksirish” bilan bog‘liq bu kabi irim-sirimlar jahonning ko‘pgina xalqlarida mavjudligini qayd qiladi hamda uning tarixiy asoslarini ezgu va

yovuz ruhlar to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlarining qoldiq holda yetib kelgan ko‘rinishlaridan biri, deb hisoblaydi.

Chindan ham, “aksa urish” bilan bog‘liq bu kabi e’tiqodlar o‘zbek xalqi orasida ham qadimdan saqlanib kelganligi bois, biror kishi aksirganda uning yonidagilar “Sog‘ bo‘ling!” deydilar. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Tangachar qishlog‘ida esa yosh bola bexosdan aksa ursa, “*Pir bo ‘lsin! Buva bo ‘lsin!*” deydilar. Bu bilan bola sog‘-salomat unib-o‘ssin degan ezgu niyat ifodalanadi. Ana shular barcha umumjahoniy miqyosda keng tarqalgan va qadimiyl negizga ega bo‘lgan e’tiqodiy qarashlar tizimiga daxldor tasavvurlar sirasiga kiradi.

E.Taylor tomonidan ilmiy asoslangan “antropologik nazariya”ning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri etnografiya faniga **“ibridoiy animizm”** tushunchasining olib kirilganligi bilan belgilanadi. “Animizm” atamasi lotincha “anima” (“jon”) yoki “animus” (“ruh”) so‘zi asosida yasalgan termin bo‘lib, E.Taylor talqinicha, “narsa-hodisalarni jonli deb tasavvur qilish yoki ibridoiy davrdagi ilk diniy qarashlarning o‘zagini tashkil etgan e’tiqodiy qarash”dir.

Ibtidoiy tasavvurlarni o‘rganish asosida “animistik nazariya”ni yaratgan E.B.Taylorning yozishicha, qadimgi odam inson tushiga kirgan voqelik jonning tanadan tashqarida bo‘lgan paytida ko‘rgan-kechirganlarining ifodasi, deb tushungan. Uning fikricha, qadimgi odamlar tush ko‘rish yoki o‘limning mohiyati haqida o‘ylaganda, har bir kishida alohida substansiya, ya’ni jon mavjud bo‘ladi va u o‘zining tana qobig‘idan vaqtinchalik yoki butunlay chiqib ketishi mumkin, deb tasavvur qilgan. Bu tasavvur jahon xalqlari folklorida bir qator “animistik xarakterga ega an’anaviy motivlar”ning yaratilishiga asos bo‘lgan.

Odam u xlabelotgan paytda uning joni biror jonivor ko‘rinishida tanani tark etishi va uning tanadan tashqarida bo‘lgan vaqtida ko‘rgan-kechirganlari xlabelotgan kishiga tushda ro‘y bergen hodisalar bo‘lib namoyon bo‘lishi motivi «Malik cho‘l», «Ko‘kaldosh» kabi o‘zbek xalq rivoyatlari syujetida ham uchraydi.

E.Taylorning ta’limoticha, odam joni to‘g‘risidagi qadimgi tasavvurlar asosida tabiat hodisalari, nabotot va hayvonot olamining jontantirib tasavvur qilinishi haqidagi mifologik qarashlar shakllangan. Politeistik dinlardagi tabiat kuchlarini o‘zida mujassamlashtirgan ma’bud va ilohlar panteoni bilan bog‘liq xalq qarashlari ham ana shundan kelib chiqqan. Olim “mifologik maktab” vakillaridan farqli ravishda mifni ham animistik nazariya asosida o‘ziga xos tarzda izohlashga harakat qilgan. Uning fikricha, mif – o‘zini turli-tuman ruhlar tomonidan boshqariladigan tabiatning bir bo‘lagi, deb tasavvur qilgan ibtidoiy odam hayotining xayoliy uydirma orqali tasvirlangan talqini. Shuning uchun ham bugungi odamga uydirma bo‘lib tuyuladigan mifik tasavvur qadimgi odam uchun real hayotiy voqelik hisoblangan.

“Antropologik maktab” nazariyasining takomillashishida ingliz olimi Endryu Lang (1844-1912)ning alohida o‘rni bor. U 1884-yilda nashr etilgan “Urf-odat va mif” nomli kitobiga kiritilgan “Folklor metodi” nomli maqolasida o‘zining xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini tadqiq etishdagi nazariy konsepsiyasini shunday bayon qiladi: a) folkloeni o‘rganishda “antropologik metod”ni qo‘llash; b) folklor o‘z tarkibiga inonch-e’tiqodlar va urf-odatlarnigina emas, balki afsona va qo‘shiqlarni ham qamrab olishini nazarda tutish; f) folkloeni o‘rganishda antropologiyaning yordami juda zururligini e’tirof etish; j) xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganishda etnologiyadan foydalangan holda mushtarak etnofolkloriy hodisalarni aniqlash; d) analogiya usuli vositasida hozirgi rivojlangan xalqlar madaniyati, qadimgi hind-yevropa xalqlarining klassik va arxaik madaniyati, shuningdek, taraqqiyotning quyi bosqichida bo‘lgan “ibtidoiy odamlar” urf-odatlari, tasavvurlaridagi o‘xshash jihatlarga oid materiallarni to‘plash; j) bunday aynanlik va o‘xshashliklar etnik kelib chiqishidagi mushtaraklik yoki o‘zaro muloqot natijasi sifatida emas, balki tafakkur tarzining bir xilligi tufayli yuzaga kelgan, deb talqin qilish.

Ko‘rinadiki, E.Lang folkloeni tadqiq etishning, bir tomonidan, mifologiyaning kelib chiqishini qadimgi prosyujetlarga bog‘lab tu-

shuntiruvchi “mifologik maktab” nazariyasiga mutlaqo o‘xshamagan, ikkinchi tarafdan esa turli xalqlar folkloridagi o‘xshashliklarning sabablarini “syujetlarning ko‘chib o‘tishi” yoki “syujetlarning boshqa xalqlar tomonidan o‘zlashtirilishi” nazariyasini ilgari surgan “migration maktab” qarashlariga zid bo‘lgan ayricha usul va metodlarini qo‘llashni tavsiya etgan. Bu metodlar esa E.Taylorning xalq ijodini o‘rganishdagi “antropologik maktab” nazariyasining tub mag‘zini tashkil etar edi.

E.Langning folkloristik qiziqishlari doirasi keng bo‘lib, asosan mifning etnologik tabiatini, urf-odat va marosimlari, magiya, totemizm, din tarixini tadqiq etishdan iborat edi. U o‘zining “Mif, ritual va din” (1887), “Totem sirlari” (1888), “Mifologiya” (1901), “Marosim va mif” (1904) kabi asarlarida miflarni ibtidoiy davr turmush tarzining o‘ziga xos ifodasi sifatida talqin qilib, mif ijodkorligining ruhiy-psixologik sabablarini aniqlashga harakat qilgan.

O‘sha davr folklorshunosligida «migratsion maktab»ning syujet ko‘chishi jarayoni bilan bog‘liq nazariy qarashlari hukmronlik qila-yotgan bir paytda E.Lang turli xalqlar folkloridagi o‘xshashliklarni bashariyat taraqqiyotining muayyan bir bosqichida bir necha xalqlar dunyoqarashi va tafakkur tarzining bir xilligi bilan bog‘lab tushuntirishi xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganishning yangi ilmiy konsepsiyalardan biri – «**syujetlarning o‘z-o‘zidan yuzaga kelishi**» nazariyasi yaratilishiga asos bo‘ldi.

“Antropologik nazariya” tez orada Yevropaning ko‘pgina mammalakatlarida folklorshunoslari va etnograflari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Xususan, aslida “mifologik maktab” tarafdori bo‘lgan nemis folklorshunos olimi Vilgelm Mangardning “German miflari”, “Germanlarda daraxt kulti”, “Nemis va skandinaviyaliklarda tangrilar olami”, “Dala va o‘rmon kultlari” kabi asarlarida va ayniqsa, 1884-yilda nashr etilgan “Mifologik tadqiqotlar” nomli kitobida E.Taylorning nazariy qarashlari ta’siri yaqqol seziladi. V.Mangard o‘z izlanishlari davomida xalqning e’tiqodiyligi qarashlari, an’analari, urf-odatlari, marosimlari va bolalar o‘yinlarida

mifologiya qoldiqlari saqlanib qolganligini “antropologik tadqiq usuli” vositasida aniqlagan.

V.Mangardt qadimgi germanlar va ularga qo’shni qabilalarda mavjud bo’lgan daraxt kulti bilan bog’liq mifologik e’tiqod va rituallarni tadqiq etish orqali o’simliklarning “qayta tirilishi” bilan bog’liq marosim va udumlar genezisini o’rgangan. Odam jonining o’simlik (daraxt)da mavjud bo’lishi yoki “daraxt ruhlari” haqidagi inonch-e’tiqodlar mavjudligining ilmiy asoslanganligi V.Mangardt animistik konsepsiyanining asosini tashkil etadi. Bu konsepsiyaning mohiyatini tadqiqotchi quyidagi to’rt uzy, ya’ni a) misflarda odam obrazini daraxt bilan bog’lash an’anasi talqin qilinganligi; b) odam taqdirini daraxt bilan bog’liq deb tasavvur qilish; d) daraxtda faqat “o’rmon ruhi” emas, balki o’simliklar hayoti bilan bog’liq bo’lgan barcha ezgu va yovuz ruhlar makon tutadi degan ibtidoiy qarash mavjudligi; e) jinoyatchilarini daraxt tagida jazolash udumi tahlili orqali ochib bergen.

Klassik mifologiya va turli xalqlar folklor an’analardan yaxshigina xabardor bo’lgan V.Manxardt o’zining “Qadimgi germanlarda daraxt kulti” asarida Shimoliy Yevropa xalqlarining agrar kultlari va marosim folklori materiallarini o’rganish asosida “har yili o’simliklar “o’ladi” va bahorda hayotning yangilanishi, serhosilikning qayta tiklanishi jarayoni ro’y beradi. O’simliklarning muttasil ravishda «o’lishi» va yana qaytadan o’sib chiqishi qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan bog’liq e’tiqodiy qarashlar tizimida hosildorlik ma’budlarining o’lib, qayta tirilishini anglatar edi”, degan juda muhim nazariy umumlashmani chiqargan edi. Bu ilmiy mulohaza keyinchalik jahon xalqlari folkloridagi “o’lib-qayta tiriluvchi xudolar” haqidagi mifologik tasavvurlarning genetik ildizlarini oydinlashtirishga yo’l ochib berdi.

“Antropologik maktab” nazariyasining davomchilaridan yana biri – nemis olimi Ervin Rode (1855-1898)ning “har qanday diniy e’tiqodlarning asosida ajdodlar kulti yotadi”, – degan qarashi folklorshunoslikka qo’shilgan muhim yangilik bo’ldi.

Bonn va Berlin universitetlarining professori, din tarixi, klassik filologiya va antik falsafa bilan shug‘ullangan nemis olimi German Uzener (1834-1905) “antropologik maktab” metodlaridan foydalan-gan holda qiyosiy mifologiyaning tadqiqot usullarini etnofolkloristi-kaga tatbiq etgan.

E.Taylorning “animistik nazariya”sini takomillashtirishga katta hissa qo‘sghan nemis folklorshunosi Vilgelm Maks Vundt (1832-1920) o‘zining “Xalq psixologiyasi” (1912) asarida turli xalqlar-ning miflari va poetik motivlarini o‘rganish asnosida ayrim diniy e’tiqodlar va badiiy-estetik qarashlar inson ruhiy kechinmasining muayyan holatida yuzaga kelganligi haqidagi farazni ilgari surdi. Bu-folklorshunoslik fanidagi «qadimgi miflar ibridoiy odamning ong-siz ijodiy faoliyati mahsuli» degan ilmiy qarashning ilk kurtagi edi. V.M.Vundtning “Mif va din” (1905-1909) nomli uch jildlik asarida mifologiyaning kelib chiqishi bilan bog‘liq animistik, naturalistik, “tadrijiy” va pereanimistik nazariyalar tahlil qilingan. Asarning “ibti-doiy animizm”ning o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan fasilda esa jon va ruh, tush va uning animistik talqini, jon kulti, ani-mizm va fetishizm, animizm va totemizm, animizm va magiya, aj-dodlar kultiga ishonish va qurbanlik marosimi haqida keng ko‘lamli tahliliy mulohazalar bayon qilingan. Mifologiya va qadimgi ma-rosimlar “psixologik jarayon” mahsuli sifatida tadqiq etilgan bo‘lsada, V.M.Vundtning “ruhiy-tahlil metodi” o‘sha paytda folklorshunos-lar orasida unchalik shuhrat topmadı.

“Antropologik maktab” ta’limotida folklor va marosimlarning kelib chiqishi qadimgi mifologiya hamda ibridoiy rituallarga borib taqaladi, degan qarash ustuvorlik qilar edi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda katta qamrovdagagi etnofolkloristik materiallar qam-rab olinar va tadqiqotlar asosan “**qiyosiy-etnografik metod**” aso-sida amalga oshirilar edi. Bu metod Kembridj universiteti profes-sori Jeyms Jorj Frezer (1854-1941) tadqiqotlarida, ayniqsa, jiddiy taraqqiy ettirildi. Qadimgi tasavvurlarni ibridoiy odam dunyoqarashi va e’tiqodiy inonchlari tizimidan iborat deb tushungan J.Frezer o‘z

etnografik izlanishlarini 1884-yilda nashr etilgan “Totemizm” nomli asar bilan boshladi. Totemizmni ibtidoiy odamning tabiat bilan o‘zi orasida qon-qardoshlik aloqalari bor, deb tasavvur qilishi natijasida yuzaga kelgan mifik qarashlar silsilasi sifatida baholagan olim bu mavzuga doir tadqiqotlarini davom ettirib, 1892-yilda to‘rt jildlik “Totemizm va ekzogamiya” nomli asarini chop ettiirdi. J.Frezerning “qiyosiy-etnografik” tadqiqotlari “Oltin butoq” asarining 1890-yilda chiqarilgan ikki jildlik va 1900-yilda bosilgan uch jildlik nashrida o‘z aksini topdi. Hozirgi zamон folkloristikasida ham g‘oyat muhim nazariy va metodologik manba sifatida qadrlanadigan bu tadqiqot ustida olim uzoq yillar davomida izchil ish olib bordi. Nihoyat 1911-1915 yillarda “Oltin butoq”ning 20 jildlik fundamental nashri bosilib chiqdi.

O‘zining tadqiqotchilik faoliyatida folklorshunoslik, etnologiya va klassik filologiyani g‘aroyib tarzda sintezlashtira olgan J.Frezer uzuksiz etnografik va folkloristik ekspeditsiyalari davomida to‘plangan ulkan qamrovdagи faktik materiallar hamda 50 yil mobaynida (har kuni 12 soatlab!) Kembridj universitetining kutubxonasiдagi adabiyotlarni o‘rganish natijasida “Abadiy barhayotlikka ishonch va marhumular kulti” (1912), uch jildlik “Kadda Ahdda folklor” (1918-1919), ikki jildlik “Tabiat kulti” (1926), “Olovning paydo bo‘lishi haqidagi mif” (1930), “Ibtidoiy dinda o‘lgan odamlardan qo‘rqish” (1933), “Ibtidoiy kosmogoniyada yaratilish va evolyutsiya” (1935), uch jildlik “Antropologik antologiya” (1938-39) singari folkloristika va etnologiya fani tarixida alohida o‘rin tutadigan yirik asarlarini yaratdi.

J.Frezer o‘zining “Oltin butoq” asarida folklorshunoslik uchun juda muhim bo‘lgan va ayni paytda, avval ayrim tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ko‘pgina ilmiy qarash va nazariyalarni chuqurlashtirdi. Xususan, e’tiqodiy qarash va marosimlarning o‘zaro munosabati yoki “**mif va ritual**” (ilk bor semitolog Robertson Smit tomonidan tahlil qilingan), **totemizmning etnofolkloriy mohiyati** (J.Man-Lennan asarlarida yoritilgan), **agrар kultlar, bug‘doy dala-**

sining zoomorf va antropomorf ruhlari (V. Manxardt tadqiqotlarida o'rganilgan), **olov kulti** (birinchi marta A. Kun tomonidan aniqlangan), **jonning tanadan tashqarida mavjud bo'lishi haqidagi animistik tasavvurlar** (E. Taylor nazariyasi) yangi fakt va ma'lumotlar asosida tadqiq etilgan.

J. Frezer o'z izlanishlari davomida nazariy qarashlarini uzlusiz takomillashtirib bordi. Masalan, "Oltin butoq"ning 1890-yilgi birinchi nashrida totemizm "qadimgi odamning o'z jonini (uning xavfsizligini ta'minlash, himoyalash maqsadida) u yoki bu jonivor tanasiga yashirishi haqidagi tasavvurlari asosida kelib chiqqan inonch bo'lib, jon yashiringan jonivor o'sha odam uchun totem sanaladi" deyilgan. 1899-yilda Markaziy Avstraliya qabilalarining totemistik marosimlari tasvirlangan adabiyotlar bilan tanishib chiqqan olim bu qabilalar da homilador ayolga ayrim ovqatlarni yeyish taqiqlanganligiga alohida e'tibor berdi va totemistik tasavvurlarning ildizini homiladorlik bilan bog'liq qadimiy inonchlardan izlash kerak, degan xulosaga keldi. Natijada totemizmni «ayol tanasiga ovqat bilan birga kirib, uning homilador bo'lishiga sabab bo'lgan narsa bola tug'ilgandan keyin uning totemiga aylanadi», degan qarash bilan izohlash an'anasi shaklandi.

Shuningdek, J. Frezerning ilk tadqiqotlarida olovning marosim va udumlardagi ahamiyati "mifologik maktab"ning "**solyar (shamsiy) nazariya**"si asosida yoritilan edi. Keyinroq esa ibtidoiy e'tiqodlarga doir yangi faktlarni tahlil qilgan olim olovning "poklash, tozalash" xususiyatiga ega bo'lgan narsa deb tasavvur qilinganligini aniqladi.

Insoniyat tafakkuri rivojining tadrijiyligini ko'rsatuvchi "**magiya – din fan**" triadasи yoki taraqqiyotning uch qismli strukturasi J. Frezer ilmiy konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Magiyani ijobiy ("sehrgarlik") va salbiy (tabu) tiplarga bo'lib tasniflagan olim o'z tadqiqotlarida magiya va diniy e'tiqodlarning arxaik shakllari haqidagi ilmiy qarashlarni yangicha talqin eta boshladи. U folklor asarlari va marosimlarda muhim o'rinn tutadigan magik inonchlarning kelib chiqishiga quyidagi ikki omil sabab bo'lgan deb ko'rsatadi:

a) o‘xshashlik o‘xshashlikni keltirib chiqaradi yoki natija sabab bilan o‘xshash bo‘ladi; b) o‘zaro aloqador, ya’ni daxldor bo‘lgan narsalar ular orasidagi bevosita jismoniy bog‘liqlik uzilgandan keyin ham birbiriga masofadan ta’sir etishda davom etadi. J.Frezer birinchi omilni «o‘xshashlik va mutanosiblik», ikkinchisini esa “zararlanish” qonuni deb ataydi hamda magiyani “**gomeopatik**”, “**imitativ**”, (“taqlidiy”) va “**kontagioz**” (“zarar yetkazuvchi”) kabi tiplarga ajratadi.

J.Frezerning “magiya va din” haqidagi bu konsepsiysi magik marosim va udumlar, folklordagi magik qarashlar va u bilan bog‘liq motivlarning ilmiy mohiyatini asoslashda ustuvor nazariy qarash bo‘lib xizmat qilmoqda. Magiyaning tasnifi masalasi keyinchalik Ye.G.Kagarov (1928), S.A.Tokarev (1990) kabi olimlar tomonidan mukammallashtirildi. Endi folklorshunoslikda magiyaning “**katartik**” (“himoya magiyasi”), “**so‘z magiyasi**”, “**apokretik**” (“haydovchi magiya”), “**imitativ**” (“taqlidiy”), “**initsial**” (“biror muddatning birinchi kuni amalga oshiriladigan magik harakat”) ko‘rinishlari va “**zarar yetkazuvchi magiya**”, “**harbiy magiya**”, “**sevgi magiyasi**”, “**davolovchi-muhofaza qiluvchi magiya**”, “**meteorologik magiya**”, “**magiyaning ikkilamchi turlari**” kabi tiplari borligi aniqlangan.

Polyak olimi K.Moshinskiy esa J.Frezer konsepsiyasidan kelib chiqib, magik marosimlarni quyidagi besh tipga bo‘lgan: 1) “bir obyektga xos xususiyatlarning boshqa obyektga ko‘chishini namoyish etuvchi harakatlar” yoki “marosimning translyatsion tipi”; 2) “olisda joylashgan obyektga o‘scha tarafga yuborilgan predmetlar vositasida masofadan yolg‘ondakam ta’sir ko‘rsatish” yoki “marosimning transmission tipi”; 3) “birorta predmetga bevosita ta’sir ko‘rsatish orqali boshqa obyekt yoki predmetga fiktiv ta’sir o‘tkazish” yoki “marosimning simpatik tipi”; 4) “unga o‘xshash predmetni yashash yoki unga o‘xshatish orqali o‘scha predmetning o‘zini yaratishga bo‘lgan fiktiv urinish” yoki “marosimning kreatsion tipi”; 5) “biror voqeanning ibtidosida uning taqdiriga ta’sir ko‘rsatish” yoki “marosimning insepshon tipi”.

Demak, J.Frezerning qadimgi e'tiqodiy qarashlar va urf-odatlar silsilasiga doir ilmiy kuzatishlari o'zbek folkloridagi so'z magiyasi-ga asoslangan janrlar genezisi hamda poetikasini tadqiq etishda ham muhim nazariy asos vazifasini o'taydi. Zero, E.Taylorning "Ibtidoiy madaniyat", J.Frezerning "Oltin butoq" asarlari folklorshunoslikdagi "antropologik maktab"ning nazariy assosi sifatida e'tirof etilgan.

Rus folklorshunosligida "antropologik mакtab" nazariyasining bevosita davomchilar yetishib chiqmagan bo'lsa-da, N.F.Sumsov tadqiqotlari va ayniqsa, A.N.Veselovskiyning "Tarixiy poetikaga kirish" (1894), "Epitet tarixidan" (1895), "Epik takror xronologik moment sifatida" (1897), "Psixologik parallelizm" (1898), "Tarixiy poetikadan uch bob" (1899) singari asarlarining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan.

«Tarixiy maktab». XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida folklorshunoslikda mavjud bo'lgan barcha ilmiy maktablar xalq og'zaki badiiy ijodiyotini tadqiq etishdagagi o'ziga xos, ko'pincha bir tomonlama yondoshuvga asoslanganligi sababli folkloarning tabiatini to'la-to'kis yoritib berishga ojizlik qilar edi. Ayniqsa, "antropologik maktab" ta'sirida ijod qilgan A.N.Veselovskiyning tarixiy poetikaga doir ilmiy tadqiqotlari folklor asarlarini tarixiy voqelik bilan bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Shu tariqa, rus folklorshunosligida "tadqiqot strategiyasining keng ko'lamliligi va metodologik sintezga intilishi" bilan boshqa ilmiy maktablardan farqlanib turadi-gan "**tarixiy maktab**" yuzaga keldi.

Folklorshunoslik tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu maktabning asosiy tarixiy-filologik konsepsiyasi xalq og'zaki badiiy ijodini bevosita uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liqlikda tadqiq etish; folklor asarlari muayyan tarixiy-folkloriy jarayon mahsuli sifatida yaratilishi, rivojlanishi va variantlashgan holda xalq badiiy xotirasida yashash qonuniyatlarini ochib berish; xalq ijodi tabiatini tavsiflashda folklor asarlarining asosiy manbai xalq turmush tarzi ekanligidan kelib chiqish kabi ilmiy mezonlarda o'z ifodasini top-gan. Tarixiy maktab nazariyasining yuzaga kelishi tufayli folklorshu-

noslikda hayotiy voqelik, tarixiy davr, tarixiy shaxs va tarixiy faktlarning folklor genezisida tutgan o‘rni hamda badiiy talqini masalalari atroflicha o‘rganildi. Boshqacha aytganda, folklorshunoslikdagi bu yangi ilmiy maktab tarixiy-folkloriy jarayonning xalq badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi roli va o‘rnini hisobga olish zarurligini birinchi bo‘lib e’tirof etdi.

Folklor asarlarini tarixiy voqelik bilan bog‘lab tadqiq qilish an’anasi rus olimi L.N.Maykovning “Vladimir turkumi bilinalari haqidagi” (1863) nomli ishi bilan boshlandi. Rus folklorshunosligida “mifologik konsepsiya” ustuvorlik qilayotgan va “migratsion nazariya” ta’siri endigina namoyon bo‘layotgan (V.Stasovning “Rus bilinalaring yaratilishi”) bir davrda epos genezisini o‘sha vaqtida urf bo‘lgani kabi, mifologik manbaga emas, balki tarixiy voqelikka bog‘lab tahlil qilish folkloristik izlanishlarning yangi bosqichga ko‘tarilishiga yo‘l ochdi. Xalq eposining tarixiy-tadrijiy taraqqiyotini chuqur o‘rgangan olim geografik ko‘lam, xalq maishiy hayoti va tarixiy haqiqatning eposdagi talqiniga asoslanib, bilinalarni to‘rt turkumga, ya’ni “Vladimir turkumi, Novgorod turkumi, Moskva turkumi va Stepan Razin, Ivan Grozniy va Yermak haqidagi epik asarlar turkumi”ga bo‘lib tasnifladi. L.Maykovning ana shu tadqiqotida keyinchalik shakllanajak “tarixiy maktab”ning yutug‘i (eposning tarixiy asoslarini aniqlashga intilish tamoyilining ustuvorligi) ham, kamchiligi (folklor asarining tarixiy mohiyatini badiiy-estetik ahamiyatidan ustun qo‘yish) ham o‘z ifodasini topgan edi. Shuning uchun ham bu ish Ilya Muromets haqidagi epik asarlarning mifologik asoslarini aniqlashda “tarixiy qatlam”ni ajratib olish zarur deb hisoblagan mifolog O.Miller, Alesha Popovich to‘g‘risidagi bilinalarda “rus bahodirlarining jangu jadallari” aks etganligini isbotlagan N.I.Dashkovich asarlari singari, rus folklorshunosligidagi “tarixiy maktab”ning shakllanishiga asos bo‘lgan ilk tadqiqotlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Ammo rus folklorining tarixiy asoslarini o‘ziga xos ilmiy metod va usullar tizimi asosida o‘rganish ishlari taniqli folklorshunos olim V.F.Miller (1848-1913)ning tadqiqotlari bilan boshlandi. Uning qa-

riyb 20 yil davomida rus folklorining tarixiy asoslarini o'rganish borasida olib borgan ilmiy izlanishlari uch jildlik "Rus xalq og'zaki so'z san'ati ocherklari" (1987-1924) nomli tadqiqotining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. V.F.Myuller ana shu fundamental tadqiqotning birinchi jildiga yozgan so'z boshisida folklojni tarixiy nuqtayi nazaridan o'rganish usulining mohiyatini shunday bayon qilgan:

"Nazаримда, епсимизнинг ҳозирги илмиy о'рганилиши унинг тарixiy asoslariga doir ayrim savollarga javob topish va barcha ilmiy talablarga javob beradigan qarashlarni shakllantirish imkonini bermaydi. Eposning olis qatlamlari asrlar qatorining qalin pardasi ostida yashiringan bo'lib, yozma manbalarining kamligi yoki mutlaqo yo'qligi sababli, ilk epik syujetlarni ҳозиргача ko'pchilik tomonidan tan olinmayotgan dadil gipoteza va taxminlar orqaligina tasavvur qilishimiz mumkin, xolos. Eposning mifologik asoslari xususidagi qarashlar ham, arxaik davrdagi hind-yevropa va umumslavyan bobosyujetlari nazariyasi ham, bilinalarimiz syujetlarining kelib chiqishini Sharq manbalariga bog'laydigan gipoteza ham bilina eposining yuzaga kelishi va taraqqiy etishini qoniqarli darajada tushuntirib bera olmadi. Bilinalardagi tarixiy qatlamlar va tarixiy voqelik izlarining aniqlanishi hamda sivilizatsiya jarayonida bilina qo'shiqlari tarkibiga singib ketgan sayyor syujetlar va adabiy manbalar ta'sirining oydinlashtirilganligi epos mohiyatini to'g'ri baholashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyingi o'n yillikda Yevropa va Osiyo xalqlari folkloriga oid ulkan miqyosdagi adabiyotlarni o'rganish asosida bilinalarni qiyosiy metodda tadqiq etish uchun zarur bo'lган "parallel"larni topishga alohida ahamiyat berildi. Ammo bunday "parallel"larga haddan ortiq ishonish ham tadqiqotchini chalg'itadi: chunki har xil epik syujetlarni detallashtirib tahlil qilish, ularning genetik tasnifini yaratish muayyan syujetning bir xalqdan boshqasiga o'tganligini hamisha ham aniq ko'rsatib beradi, deb ishonish to'g'ri emas... Shuning uchun ham men ko'proq bilinalar tarixi va eposda tarixiy voqelikning ifodalananishi masalasini dastlabki – quyi bosqichlardan tortib eng so'nggi namunalargacha, ya'ni quyidan yuqoriga mezoni asosida o'rganish bilan shug'ullanaman".

V.Y.Myullerning ana shu mulohazalari folklorshunoslikdagi “tarixiy maktab”ning asosiy maqsadi, metodologiyasi va ilmiy tadqiq yo‘nalishini ko‘rsatib berdi. Bu esa folklorshunos Y.Sokolov to‘g‘ri qayd qilganidek, “mifologik maktab” yoki “migratsion konsepsiya” bilan solishtirganda, “tarixiy maktab” fanning umumiy taraqqiyotini bir bosqich yuqori ko‘tardi. “Mifologik tumanlik” hamda “sayyor syujetlar” ortidan behuda quvishdan” charchagan folklorshunoslik tarixiy faktlarning mustahkam zaminiga tomon intila boshladi”.

Rus xalq eposining shakllanishi masalasini izchil o‘rganishga kirishgan V.Y.Myuller epos qachon yuzaga kelganligini aniqlash, epik syujetlar yaratilgan jo‘g‘rofiy hudud qamrovini belgilash hamda xalq hayoti va real tarixiy voqelikning bilinalardagi izlarini tadqiq etishni asosiy maqsad qilib olgan edi. U eposning mavjud barcha variantlarini qiyosiy tekshirish natijasida nisbatan qadimiy variantni aniqlab, unda tarixiy voqelik va xalq maishiy hayotiga oid faktlarning ifodalanishiga asoslanib, bilinalarning shakllanish davri va joyiga oid muhim nazariy xulosalar chiqardi.

Folklor asarlarini tarixiy voqelik bilan bog‘liq holda o‘rganish an’anasi A.V.Markov (“Bilina eposining tarixidan”, 1905), S.K.Shambinogo (“Podsho Ivan Grozniy davri qo‘shiqlari”, 1914), B.M.Sokolov va Y.M.Sokolov (“Danila Lovchanin haqida bilinalar”, 1910)lar tomonidan davom ettirildi. Ular folklorni xalqning tarixi bilan bog‘lab tahlil qilish yo‘lidan bordilar va folklor asarlari zamirida tarixiy voqelik yotadi, degan konsepsiyanı ilgari surdilar.

“Tarixiy maktab” tarafdarlarining folklorshunoslik fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1) ular folklor asarlarining milliy-tarixiy tabiatiga yetarlicha baho bera olmagan “mifologik maktab” va “migratsion nazariya”ning ta’sir doirasidan chiqib ketishga muvaffaq bo‘lib, xalq eposining genetik asoslarini tarixiylik prinsipi nuqtayi nazaridan tahlil qilishdan iborat yangi yo‘nalishni boshlab berdilar;

2) folklorshunoslik tarixida birinchi marta epik syujetlar sistemalashtirildi va ularning milliy-etnik hamda tarixiy mohiyati oydinlashtirildi;

3) epos syujetlarining shakllanish jarayoni va taraqqiyot bosqichlari xalq tarixi bilan bog‘liq holda tekshirilib, epik syujetlarning tarqalish arealiga doir ilmiy kuzatishlar umumlashtirildi;

4) folklor asarlarining tarixiy asoslarini tarixiy voqelik, davrning tarixiy ko‘lami va hayotiy voqelik dinamikasi tizimida tekshirish orqali “tarixiy-folkloriy jarayon”ga ilk bor mukammal ilmiy baho berildi.

Shu bilan birga, “tarixiy maktab”ning tadqiqotlari va ilmiy-nazariy konsepsiyaning muayyan xatolar ham mavjud edi. Bu nuqson va kamchiliklar quyidagilardan iborat:

1) “tarixiy maktab” tarafidori bilinalarni ham, xalq qo‘shiqlarini ham xalq tarixining o‘ziga xos “og‘zaki yilnomalari” sifatida tahlil qilib, bilina eposi knyaz drujinalari davrasida yaratildi, degan baryoqlama xulosaga keldilar. Folklorshunoslik tarixida “bilinalarning yaratilishi bilan bog‘liq aristokratik nazariya” nomini olgan bu konsepsiaga ko‘ra, ayrim tarixiy voqealar va real hayotiy hodisalarining epos matnida tasvirlangan badiiy lavhalarga mos kelmasligini esa bilina yoki tarixiy qo‘shiqning “matnning dehqonlar orasida ijro etilishi jarayonida buzilishi” deb baholadilar;

2) “tarixiy maktab” vakillari har qanday folklor asari zamirida o‘tmishda bo‘lib o‘tgan real voqealari-hodisalar tasviri o‘z aksini topadi, deb hisobladilar. Ular epos matnidagi toponimik atamlar va kishi ismlarining yozma yodgorliklar (yilnomalar) talqiniga mos kelishiga asoslanib, bilinalarni tarixiy manba darajasiga ko‘tardilar;

3) folklor asari matnining badiiy tahlili, ijrochi mahorati, epos va xalq qo‘shiqlari poetikasi masalalari deyarli tadqiq etilmadi;

4) folklorning ijtimoiy mohiyati va poetik tabiatiga noto‘g‘ri yondoshuv oqibatida eposning genezisi va tarixiy taraqqiyoti masalalarni yoritishda nazariy xatolarga yo‘l qo‘ydilar.

O‘zining bu kabi metodologik xatolaridan qat’iy nazar, “tarixiy maktab” folklor materiallarini to‘plash va sistemalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalgalashganligi bilan folklorshunoslik fanida alohida o‘rin tutadi.

«**Ritual mifologik maktab**». Folklorshunoslikdagi “**ritual mifologik maktab**” yoki “**neomifologik maktab**” XX asrning 20-yillarda “mifologik maktab” tarkibidagi “ritual-mifologik nazariya”ning o‘ziga xos sintezi sifatida yuzaga kelgan ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Mif va marosimlarni qiyosiy o‘rganish tajribasini birinchi marta izchil amalgalashgan Robinson Smit, shuningdek, Jeyms Freyzerning tadqiqotlari folklorshunoslikda miflarni ritualistik aspektda o‘rganish an’anasini boshlab berdi. Ingliz sharqshunos olimi R.Smit (1846-1894) o‘zining 1889-yilda chop ettirilgan “Semit qabilalari diniga oid ma’ruzalar” nomli asarida semit tillarida so‘zlashuvchi urug‘-qabilalardan ayrimlari jonivorlar nomi bilan atalishi, ayrim hayvonlar go‘shtini iste’mol qilish bilan bog‘liq tabu (taqiq) saqlanganligi hamda ularda tabiat kulti (yulduz, tosh, buloq va boshqalarga sig‘inish)ga aloqador tasavvurlar mavjudligiga asoslangan holda, qadimgi arab qabilalari diniy-e’tiqodiy inonchlarining asosini tote-mizm tashkil etadi degan qarashni bayon qilgan. R.Smitning fikri-chi, totemizmning kelib chiqishida qurbanlik marosimlari muhim rol o‘ynagan, ya’ni “qurbanlik qilinayotgan jonivor dastavval totem-hayvon sanalgan”.

O‘zining folkloristik qarashlarida B.Fontenel, E.Taylor, A.Lang, V.Manxhardt kabi antropologlarning nazariyalarini chuqurlashtirgan J.Freyzerning “Oltin butoq” nomli asari jahon xalqlari kalendar miflari, marosim, urf-odat, irim-sirim va rituallarining o‘ziga xos qomusiy jamlanmasidir. J.Freyzerning yozishicha, qadimgi odam tabiat kuchlarini o‘z izmiga bo‘ysundirishga harakat qilgan va bunda magiyaning turli xil usullari hamda shu inonchga asoslangan rituallardan foydalangan. O‘simliklar olami, jonivorlar, ovchilik, tabiiy hodisalar va fasllar ob-havosi bilan bog‘liq ritual hamda marosimlar muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki qadimgi odamning hayoti o‘simliklarning

baravj o'sishi, ekinning serhosilligi, jonivorlar tuyog'ining ko'payishi, ovning baroridan kelishi va fasllar ob-havosining qulay kelishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mavsumiy marosim va rituallarning mif bilan bog'liqligi masalasi aslida ilk bor G.Manxardtning "Qadimgi germanlarda daraxt kulti" asarida yoritilgan edi.

Mifning kelib chiqishida marosimlarning tutgan o'rni hamda mifologik tasavvurlarning urf-odat va rituallarda ramziy harakatlar vositasida namoyish qilinishiga oid qiziqarli kuzatishlarni bayon qilgan J.Freyzer E.Taylorning "animistik nazariyasi" hamda "qadimgi tasavvurlar qoldiqlari" haqidagi ilmiy qarashlariga suyangan holda, "mif va ritual" munosabati masalasini keng ko'lamda tadqiq etdi. Dinalarning kelib chiqishini animizmga bog'lab tushuntirgan E.Taylordan farqli o'laroq, J.Freyzer din yuzaga kelgunga qadar turli xil marosim, ritual va miflarda o'z ifodasini topgan magiya yoki magik inonchilar tizimi mavjud bo'lgan, degan qarashni ilgari surdi. Binobarin, J.Freyzer folklorni o'rganish deganda – qadimgi e'tiqodlar, ritual va miflarda saqlanib qolgan ko'hna magik dunyoqarash izlarini tadqiq etishni nazarda tutadi.

J.Freyzer qadimgi odam dunyoqarashining o'zagini animizm emas, balki magiya tashkil etadi, degan fikri bilan "antropologik maktab"ning mif haqidagi ilmiy qarashlarini yangicha o'zanga burib yubordi. Bu ilmiy konsepsiaga ko'ra, mif – qadimgi odamning tashqi olam haqidagi tasavvurlari yig'indisi emas, balki unutilib borayotgan magik ritualning aks-sadosidir. Binobarin, olimning ritual asosida mif shakllanganligi, qadimgi miflarning "o'lib" yana "qayta tirluvchi" ma'budlar bilan bog'liq agrar kultlar va "taqvimiyl" ("kalendor") marosimlarga aloqadorligi haqidagi xulosalari folklorshunoslik fani tarixida muhim ilmiy qimmatga ega.

J.Freyzerning mif va rituallarni qiyoziy o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari mifshunoslikda "**ritualistik nazariya**" deb ataldi. XX asrning 20-yillarida esa "atropologik maktab"ning "ritualistik nazariya"si negizida folklorshunoslikdagi "ritual-mifologik" yoki "neomifologik maktab" yuzaga keldi.

“Ritual-mifologik maktab” nazariyalarining takomillashishida “Kembridj klassik filologiya maktabi” nomini olgan ilmiy maktab vakillari – D.Xarrison, F.M.Kornford, A.B.Kuk, G.Marrey, F.Raglan kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘z tadqiqotlarida marosim va rituallarning mifdan qadimiyligini isbotlashga harakat qilgan bu olimlarning barchasi diniy e’tiqodlar hamda qadimgi davr san’atining ibtidosi arxaik rituallardan boshlanadi, de gan qarash tarafdoi edilar.

D.Xarrisonning “Qadimgi san’at va ritual” (1913) asarida o’smirlarni bir yosh-tabaqa mansubiyatidan boshqasiga o’tkazish bilan bog‘liq qadimgi rituallar asosida kelib chiqqan “monomif” haqidagi konsepsiya bayon qilingan. Bu konsepsiya E.T.Farnellning “Yunon mamlakatlarida kultlar” (1896-1909), A.B.Kukning “Zebs” (1914-1919) asarlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har ikki tadqiqotchi qadimgi yunon marosimlari va mifologiyasiga oid faktlarni qiyosiy tadqiq etish orqali, kult va rituallarning mohiyatini folkloristik nuqtayi nazardan yoritishga harakat qilishgan. F.Konnford esa “Antik komediyalarning shakllanishi” (1914) asarida qadimgi yunon dramalarining obrazlar tizimini J.Freyzerning “o’lish - tirilish” semantik modeli asosida tadqiq etgan. U komediyalarning biringagi keksa kishi bilan o’smir yigit o’rtasidagi konfliktda qadimgi odamlarning “eski va yangi yil almashishi” bilan aloqador ritual va miflari ifodasini ko‘radi.

“Ritual-mifologik maktab” nazariyasi rus folklorshunos A.N.Veselovskiyning ilmiy tadqiqotlariga ham muayyan darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. U qadimgi marosim va rituallarning folklorega ta’siri masalasiga bir qadar kengroq yondoshib, ritualni bir qator folklor janrlari, epik syujetlar, xalq qo’shiqlari va san’atning birlamchi zamini sifatida talqin qildi.

XX asrning 30-40-yillarida “ritual-mifologik maktab” jahon folklorshunosligining yetakchi ilmiy yo’nalishlaridan biriga aylandi. Bu davrda S.Xuk, T.X.Gaster, E.O.Jeyms, F.Raglan, S.I.Xaymanlarning folklor materiallarini “ritualistik” tahlil qilishga bag‘ishlangan qator

asarlari yuzaga keldi. Xususan, F.Raglanning “Qahramon” (1936) asarida ritual bilan mifning folklor asarlari hamda drama janri taraqqiyotining ilk bosqichlariga ko‘rsatgan ta’siri xususida so‘z yuritiladi. U o‘z asarining so‘z boshisida, “qadimgi hikoyatlardan tara layotgan dud tarixiy voqelik emas, balki mifologik gulxanlardan o‘ralayotgan tutundir” deya mifning so‘z san’ati taraqqiyotida tutgan muhim o‘rniga yuqori baho bergan edi.

“Antropologik” va “ritual-mifologik maktab” vakillari tadqiqotlarida ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘lgan mif va ritualdan qay birining birlamchiligi, ya’ni qadimiyligi masalasiga F.Raglan o‘ziga xos tarzda yondashdi. Uning fikricha, “mif marosim – ritualda o‘z aksini topgan voqelikning so‘z vositasida ifodalangan shakli”dir.

Folklor asarlarining yaratilishini **“ritual-mifologik konsepsiya”** asosida talqin qilgan olimlardan biri Stenli Edgar Xaymen bo‘lib, u o‘zini “neoevolyutsionistik oqim” tarafdori deb hisobladi va folklori o‘rganishning **“neofreyzercha umumlashma antropologik”** variantini taklif qildi. Bu konsepsiya, garchi o‘z mohiyatiga ko‘ra “ritualistik nazariya” asosiga qurilgan bo‘lsa-da, uning tarkibiga freydizm g‘oyalari, funksionalizmning mifologiya va folklor asarlari zamiridagi ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochishga qaratilgan qarashlari, semantizm va simvolizmning matn strukturasini tahlil qilishga doir ilmiy metodlari ham singdirib yuborilgan edi.

S.E.Xaymannning fikricha, “mif – qadimgi marosimning bir par chasi”, “mif – marosimda tasvirlanayotgan voqelikning hikoya qilin gan shakli”dir. Xuddi F.Raglan singari misflarni ritual matn namunasi, deb hisoblagan S.E.Xayman ham mifning marosim va ritual bilan bevosita aloqasi uzilgach, ertak va afsona janrlari yuzaga kelgan, de gan nazariy qarash tarafidori bo‘lgan.

“Mifologik maktab”ning ko‘pgina ilmiy qarashlarini o‘zida davom ettirgan “ritual-mifologik maktab” vakillari ritualning mif dan ustunligini yoqlab chiqdilar va adabiyot, san’at, falsafiy tafakkur hamda folklor janrlari genezisini qadimgi marosimlarga bog‘lab o‘rgandilar. Shu konsepsiya asosida ritual va mifning qadimgi yunon

teatri an'analari, arxaik epos, falsafa hamda qadimgi Sharq diniy adabiyotlari (E.Miro, Sh.Otrana – Fransiya; G.R.Levi, F.Raglan – Angliya), roman va ertak janrlari (P.Sentiv - Fransiya) taraqqiyotida tutgan o'rni chuqur tadqiq etildi.

"Ritual-mifologik maktab" tadqiqotlari keyinchalik "ritual-mifologik modellar"ni xalq badiiy tafakkurining manbai sifatida emas, balki uning poetik qurilishini belgilovchi strukturual asos tarzida tahlil qilishga olib keldi. Shveytsariyalik ruhshunos K.Yungning "ruhiy-tahlil metodi"ni J.Freyzer konsepsiyalari bilan uyg'unlashtirish asnosida ilmiy tadqiqot olib borgan M.Bodkin (Angliya), N.Fray (Kanada), R.Cheyz, F.Uots (AQSH) va boshqa olimlar badiiy tafakkur ibtidosi bilan bog'liq arxetiplarni aniqlab, tahlil qilishga kirishdilar.

K.Yungning "ruhiy-tahlil metodi" so'z san'atining eng qadimgi davrlaridan hozirgi zamon badiiy adabiyotigacha bo'lgan namunalarini "ritualistik yondoshuv" asosida tahlil qilish imkonini berdi. Nati-jada, J.Joys, T.Mann, T.Eliot va boshqa adiblarning asarlaridagi mifologik obraz va motivlarning rituallar bilan bog'liq ilmiy talqinlari yuzaga keldi. "Ritual-mifologik maktab" vakillari badiiy matn tarkibidan o'rinni olgan mifologik syujet, motiv yoki obrazlarni, qadimgi tasavvurlarga aloqador timsol va metaforalarni aniqlashdan tashqari, "o'lim" va "tirilish" to'g'risidagi inonchlarga ekvivalent deb hisoblangan qadimgi rituallarning, ayniqsa, "initsiatsiya", ya'ni "sinov marosimi"ning psixologik arxetiplarini topishga alohida ahamiyat berdilar.

Folklorshunoslikdagi bu ilmiy maktabning ko'zga ko'ringan va killaridan biri Nortrop Fray ritual, mif va arxetiplarni yaxlit bir tizim holida talqin qildi va badiiy obrazlarning kelib chiqish ibtidosini ana shu arxetipik negizga bog'lagani holda "**adabiy antropologiya**" nazariyasini yaratdi. U o'zining "Adabiyot arxetiplari" (1951) asarida mifologik tasavvurlarning hozirgi zamon badiiy adabiyotidagi o'rnnini tahlil qilish orqali ko'plab strukturual modellarni aniqlagan. Olim o'zining "Mif va adabiyot" (1961) nomli asarida, "Men mifni

badiiy ifodaning o‘ziga xos tipi, ya’ni so‘z san’atining qadimiy shakllaridan biri deb bilaman”, – deb yozadi.

N.Fray ta’limoticha, hayotning biologik taraqqiyotida protoplazma qanchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, adabiyot rivojida “qahramonning sarguzasht izlab safarga otlanishi haqidagi monomif” shunchalik muhim o‘rin tutadi.

“Ritual-mifologik maktab”ning ilmiy g‘oyalarini davom ettirgan U.Baskom, K.Klukxon, J.Fontenroz (AQSH) tadqiqotlarida adabiy asar badiiy qurilishi butunicha qadimgi an‘analar bilan qiyosan tahlil qilindi. Qadimgi ritual va miflarning adabiy janr genezisi va badiiy matn strukturasida tutgan o‘rni masalasi V.V.Propp, O.M.Freydenberg kabi rus olimlari tomonidan ham qisman o‘rganilgan. K.Levi-Stros, E.Stanner asarlarida esa “ritual-mifologik nazariya”ning ayrim qarashlari tanqidiy nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Masalan, etnograf E.Stanner Shimoliy Avstraliyada istiqomat qiluvchi qabilalarda marosim va miflarning bir-biridan mustaqil holatda mavjudligini qayd qiladi. Uning yozishicha, bu qabilalar folklorida marosimlarga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan miflar hamda, aksincha, mif bilan izohlanmaydigan marosimlar borligi aniqlangan. Bu – “ritual-mifologik maktab”ning «marosim birlamchiligi», ya’ni mifning ritualdan o‘sib chiqqanligini yoqlovchi nazariy qarashlari qayta ko‘rib chiqilishi lozimligini ko‘rsatadigan g‘oyat muhim ma’lumot edi.

“Ritual-mifologik maktab”ning ilmiy qarashlaricha, qadimgi odamlar tomonidan amalga oshirilgan turli xil marosimlar mifologiya va folklorda o‘z izini qoldirgan. Darhaqiqat, o‘zbeklarning jonivorlar bilan bog‘liq tasavvurlari tizimida ajodolarimizning qadimiy rituallari va marosimlarining talqinlarini ko‘rish mumkin. Masalan, olashaqshaqning sayragan ovozi eshitilsa, o‘sha tarafga qarab “*Xush xabar, to ‘y xabar!*” - deydilar. Ma’lum bo‘lishicha, olashaqshaq shaqillaganda ana shu aytim aytilsa, yaxshilikka yo‘yilarkan. Agar biror xonadonga boyo‘g‘li uchib kelib qo‘nsa, uy egalari bir hovuch un olib chiqib, qush turgan tarafga sepadilar. Qo‘ng‘irot qabilasida esa bir kishi yo‘lga otlanayotganda yoki to‘y boshlayotganida boyo‘g‘li “*sa-*

qirlab" sayrasa, buni yomonlik alomati deb biladilar. Bunda ham "*Ey jonivor, yaxshi sayra*" deb bir siqim un olib, boyo‘g‘li tomonga sepib yuborishadi. Shuningdek, xalq orasida oq ilonni ko‘rganda, ustiga un sepish, kaptarlarni qushga aylangan parilar deb e’zozlash, go‘dakka kiygiziladigan birinchi libos – “it ko‘ylak”ni bolaga kiygizishdan avval it yoki ot qozig‘i ustidan aylantirish, “chaqaloq qo‘yday yuvvosh bo‘lsin” deb beshik ustiga po‘stak yopish, yosh bolani ilk bor tishi chiqayotganda “qo‘zi tishi chiqsin” deb qo‘yga mindirish, ko‘kyo‘tal bo‘lgan kishilarga ko‘kkaptar pati botirilgan suvni ichirish, bolalar do‘ppisiga bo‘ri tishi, burgut tirnog‘i, ukki patini taqish kabi odatlar zamirida ham ajdodlarimizning turli-tuman jonivorlarni muqaddas-lashtirish bilan bog‘liq qadimi tasavvurlari o‘z aksini topgan.

Xullas, folklorshunoslikdagi “ritual-mifologik maktab” nazariyası xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti asarlarining genezisi va tadrijiy rivojini qadimgi marosim va miflarga bog‘lab o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Folkloarning o‘rganilish tarixi deganda nimani tushansiz?
2. Folklorshunoslik maktabalriga qachon asos solingan?
3. Folkloshunoslikdagi tarixiy maktabning mohiyatini tushuntiring.
4. O‘zbek folklorshunosligi qanday maktablarga suyanib ish ko‘rgan?
5. Bugungi kundagi yetakchi ilmiy maktablar.

1.5. FOLKLORSHUNOSLIK METODLARI

Qiyosiy - tipologik metod. Ma’lumki, qiyosiy folklorshunoslilik an‘anaviy komparativistika (ya’ni qiyosiy adabiyotshunoslilik)ning tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday tadqiqot metodi asosida etnik kelib chiqishi, lisoniy mansubiyati, jo‘g‘rofiy o‘rni va madaniy-iqtisodiy an‘analariga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi xalqlar folkloridagi mushtarak syujetlarning yuzaga kelish qonuniyatları o‘rganiladi.

Turli xalqlar folklori o‘rtasidagi aloqalarning bir necha tiplari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham folklor asarlarini ilmiy tadqiq etishning keng tarqalgan va samarali metodlaridan biri “qiyosiy-tipologik metod” hisoblanadi. “Qiyoslash” deganda muayyan folklor janri, epik syujet, motiv yoki obrazni boshqa xalqlar og‘zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o‘rganish asosida o‘zaro o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi.

Fransuz olimi Arnold Van-Gennep “Din, odatlar va afsonalar” nomli besh jildlik asarining 1908-yilda chop ettirilgan 2-jildidagi etnografiyaning tarixiy taraqqiyoti haqidagi maqolasida folklorshunoslikdagi tarixiy va qiyosiy metodlarni bir-biridan farqlanuvchi usullar sifatida baholagan. U tarixiy metod hodisalarni muayyan xronologik tartib asosida baholaydi hamda yozma materiallardan foydalangan holda hujjatlilikka tayanadi; qiyosiy metod esa zamoniylar va makoniy jihatdan abstrakt holatda ish ko‘radi hamda og‘zaki manbalarni ham jalb qiladi. Har ikkala holatda ham tadqiqot predmeti o‘zgarmasligi bu metodlar muvaffaqiyatlari qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Jo‘g‘rofiy o‘rniga ko‘ra bir-biridan olisda joylashgan va lisoniy mansubiyatiga ko‘ra turli xil tillar oilasiga kiradigan xalqlar folkloridagi poetik elementlar mushtarakligi tipologik o‘xshashlik namunasi hisoblanadi. X.M. va N.K.Chadviklar polineziyaliklarning madaniy qahramon haqidagi miflari, Sibirda yashovchi turkiy xalqlar ertaklari, antik, qadimgi german va kelt qahramonlik dostonlari, rus hamda janubiy slavyan eposi syujetini o‘zaro qiyoslab o‘rganish asosida, tahlil etilgan matnlarning badiiy qurilmasida tipologik mushtaraklik mavjudligini aniqlashgan. Ularning fikricha, turli xalqlar folkloridagi bunday tipologik mushtaraklik “adabiy an’ananing parallel rivoji” hamda “turmush tarzi va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarning o‘xshashligi” natijasida yuzaga keladi.

O‘rta asr Yevropa eposi syujetini turkiy va mo‘g‘ul xalqlari folklori bilan qiyoslab o‘rgangan G.N.Potanin tipologik aloqalarni

tizim sifatida tahlil qilish muhim nazariy xulosalar chiqarishga asos bo‘lishini qayd qilgan edi.

Genetik-kontakt aloqalar nazariyasi slovak olimi D.Dyrishin tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, milliy adabiyotlardagi mushtaraklik badiiy tafakkurning tarixiy rivoji hamda adabiy an’analarning o‘zaro ta’siri doirasida tekshiriladi.

O‘zaro adabiy ta’sir yoki adabiy aloqalarning syujet rivojini ta’minalashdagi badiiy-estetik o‘rnini belgilash ham qiyosiy folklorshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. A.N.Veselovskiyning yozishicha, u yoki bu milliy folklordagi mushtarak motivlar o‘z-o‘zidan yuzaga keladi. Ammo motivlar tizimidan tashkil topgan epik syujetlardagi o‘xshashlik adabiy o‘zaro ta’sir natijasida hosil bo‘lishi ham mumkin¹¹. Har qanday adabiy ta’sir va o‘zaro aloqalar tarixan asoslangan ijtimoiy zaminga egadir. Ikki xalq folklorining o‘zaro bir-biriga ta’siri muayyan ijtimoiy zaruratdan kelib chiqadigan estetik ehtiyojga bog‘liq bo‘ladi. Ana shu estetik qonuniyatlarga suyangan holda dunyo xalqlari folklori epik syujetlarining O‘rta Osiyo turkiy xalqlari og‘zaki ijodiyotida ommalashish jarayonini tahlil qilish, obraz va motivlar epik tabiatida ro‘y bergen funksional-semantik o‘zgarishlarni aniqlash mumkin.

A.N.Veselovskiy o‘zining o‘zaro adabiy ta’sir haqidagi qarashlarini rivojlantira borib, adabiyotlararo ijodiy munosabatlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri – “qarshi oqim nazariyasi”ni ilgari surgan edi. Adabiy jarayonning muhim belgilaridan biri hisoblangan “o‘zaro ijodiy o‘zlashtirish deganda qandaydir bo‘shliqda muayyan badiiy elementning paydo bo‘lishini emas, balki ijodiy an’analarning “qarshi oqimi”ni, tafakkur usulining o‘xshashligi va olamni fantastik idrok etish asosida tug‘ilgan obrazlar mushtarakligi nazarda tutiladi”.

Bu nazariyaning tub mohiyati (qolaversa, bu fikr komparatavistlarning asosiy nazariy xulosalaridan biri ham edi) jahondagi turlituman xalqlar folkloridagi syujetlar genetik jihatdan yagona epik o‘zakka borib taqalishini asoslashdan iborat edi. Demak, turli xalq-

¹¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940, 500-502 с.

lar folkloridagi epik syujetlar mushtarakligining yuzaga kelishiga mifologik tasavvurlar asosida shakllangan ilk syujetlar tizimi asos bo‘lgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslik borasida olib borilgan izlanishlar o‘zaro adabiy ta’sir va ijodiy o‘zlashtirish masalasini folklor materiallari asosida tekshirishning keng imkoniyatlarini ochadi. Binobarin, o‘zbek folklorining dunyo xalqlari og‘zaki ijodi an’analari bilan ijodiy aloqalari, xususan, o‘zbek-arab folklor aloqalari tizimida syujet ko‘chishi hodisasining yuzaga kelishi, bu epik jarayonning o‘ziga xos estetik qonuniyatlarini va tarixiy-tadrijiy rivoji masalalari folklorshunoslar tomonidan endigina o‘rganilmoqda. Holbuki, o‘zbek xalq ertaklari, afsona va rivoyatlari, xalq kitoblari va mifologik tasavvurlarida arab folkloridan o‘tgan katta epik qatlam mavjud. Tarixan arab folklorining syujet tizimiga mansub bo‘lgan bu epik qatlamning o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi estetik an’analari doirasiga transformatsiyalanish qonuniyatlarini ochish esa tarixiy-folkloriy jarayonning yetakchi xossalarni aniqlash imkonini beradi.

Taniqli eposshunos V.M.Jirmunskiy o‘zining mag‘ribu mashriq adabiyotlarining qiyosiy tadqiqiga doir ilmiy asarlarida milliy adabiyotlararo aloqalarning tarixiy ildizlarini siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotning mushtarakligiga bog‘lab o‘rgangan. U o‘zidan burungi adabiyotshunoslarning ijodiy tajribalarini umumlashtirgani holda adabiy komparatavistikada yangi bir yo‘nalish – sistemali-tipologik aloqalar nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, “qiyoslash”ning o‘zi folklorshunoslik metodi bo‘la olmaydi. Chunki metod – ilmiy tadqiqot ishining o‘ziga xos nazariy mezoni bo‘lib, u yoki bu ilmiy matabning qarashlarini o‘zida ifoda etadi. Shuning uchun ham “qiyoslash” nafaqat folkloristik, balki tarixiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun ham zarur bo‘lgan usullardan sanaladi. Olim o‘zaro qiyoslanayotgan hodisalarining mohiyati va maqsadidan kelib chiqib, tarixiy-qiyosiy tadqiqotning quyidagi aspektlarini ajratib ko‘rsatadi:

1) adabiy hodisalarni oddiy solishtirish, taqqoslab o‘rganish tarixiy-qiyosiy yo‘nalishdagi har qanday ilmiy tadqiqotning asosini tash-

kil etadi. Masalan, tilshunoslikda fransuz va ingliz tilidagi fe'l so'z turkumini yoki rus tilidagi fe'l shakllarini o'zbek tilida ifodalashning grammatik vositalarini tahlil qilish, o'z-o'zidan qiyosiy tadqiqot olib borishni taqozo etadi;

2) tarixiy-tipologik yo'nalishdagi qiyoslash ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichlaridagi o'xhash shart-sharoitlar va tafakkur tarzidagi o'xhashlik tufayli yuzaga kelgan, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lmanushtarakliklarni tadqiq etadi;

3) tarixiy-genetik yo'nalishdagi qiyosiy tadqiqot natijasida etnogenetik jihatdan kelib chiqishida umumiylig bo'lib, keyinchalik alohida-alohida holda taraqqiy etgan etnoslar madaniyati o'rganiladi;

4) dunyo xalqlarining o'zaro madaniy aloqalari, bir-biriga ta'siri va adabiy "o'zlashtirmalari" natijasida yuzaga kelgan mushtarakliklarni aniqlashga qaratilgan qiyosiy tadqiqot bu tipdagi o'xhashliklarning genetik ildizlari hamda bu hodisalarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi.

O'zbek folklorshunosligida qiyosiy-tipologik metod asosida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Atoqli folklorshunos olim H.T.Zarifovning o'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslariga doir tadqiqotlarida, M.Afzalov, G'.Jalolov, K.Imomov, X.Egamovlarning o'zbek xalq ertaklarining janr xususiyatlari, genezisi va badiiyatiga doir ilmiy asarlarida, shuningdek, M.Saidov, M.Murodov, T.Mirzayev, S.Ro'zimboyev, H.Abdullayevlarning dostonchilik an'analari, dostonlar syujeti va obrazlar tarkibini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda o'zbek folklori asarlarini Markaziy Osiyo va hatto, jahon xalqlari og'zaki badiiy ijodi namunalari bilan qiyosiy tahlilga tortish tajribasi faol qo'llanildi. O'zbek folklorshunoslari folklor asarlarini o'rganishning quyidagi metodlarini tavsiya etadi:

a) "*ma'lum bir xalq folklori, uning alohida janrlarini qiyosiy-tipologik o'rganish*". Qiyosiy-tipologik yo'nalishdagi tadqiqotning bu metodi ma'lum bir xalq folkloridagi epik janrlarga xos o'xhash syujet, motiv, obraz kabi epik komponentlarni o'zaro solishtirish asnosida umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi;

b) *xalqaro qiyosiy-tipologik o'rganish*. Bu tadqiqot metodi vositasida genetik kelib chiqishi mushtarak rishtalarga borib taqaluvchi, o'zaro qardosh (masalan, turkiy) yoki etnik jihatdan qarindoshchilik aloqalarini mavjud bo'lmagan bir necha xalqlar (masalan, turkiy va slavyan, turkiy va fors-tojik) folkloridagi o'xshashliklarning yuzaga kelish sabablarini, bu xalqlar o'rtasidagi folklor aloqalarini o'rganish asosida muayyan xalq og'zaki badiiy ijodining milliy o'ziga xos jihatlarini hamda jahon xalqlari folkloriga xos umumiy belgilari aniqlanadi;

d) *qiyosiy-etnografik o'rganish*. Bu metod yordamida folklor materiallarini etnografik, arxeologik manbalar bilan chog'ishtirib o'rganish natijasida xalq ijodi namunalarining genezisi va yaratilish davrini aniqlashga doir muhim xulosalar chiqariladi;

e) folklor asarlarini madaniy yodgorliklarga qiyoslab, *lingvistik tadqiq etish*. Bunda har bir xalqning folklor asarlari o'sha xalqning qadim ajdodlari tomonidan yaratilgan adabiy-lisoniy yodgorliklar (masalan, "Avesto", "Devonu lug'otit turk" kabi) bilan solishtirib, xalq og'zaki badiiy ijodi leksikasi tadqiq etiladi;

f) *janrlararo tipologik o'rganish*. Folkloarning muayyan bir janriga oid asarlarni, masalan, ertaklarni boshqa janrlar (doston, afsona, mif, rivoyat, qo'shiq kabi) bilan qiyoslab tadqiq etish ana shu usulning mohiyatini tashkil etadi.

O'zbek xalq ertaklari bilan dunyo xalqlari ertaklari orasidagi o'xshashliklarni syujet, motiv va obrazlar o'xshashligi doirasida keng ko'lamma tekshirgan X.Egamov tipologik mushtaraklikning uch tipi mavjudligini aniqlagan edi. Ular quyidagilar: a) ma'lum bir xalq folklori (uning muayyan bir janri)dagi tipologik o'xshashliklar; b) etnik kelib chiqishi mushtarak yoki bir til oilasiga mansub bo'lgan xalqlar folkloridagi tipologik o'xshashliklar; d) bir guruh xalqlar (masalan, slavyan, mo'g'ul, hind, turkiy) folkloridagi tipologik o'xshashliklar. Olim bir xalq folkloridagi mushtarakliklarni "*monotip o'xshashlik*" termini bilan atagan bo'lsa, etnik jihatdan qondosh xalqlar va jahon xalqlari og'zaki badiiy ijodida qayd qilingan o'xshashliklarni "*inter-tip o'xshashlik*" deb atashni ma'qul topadi.

Shu asosda o'zbek xalq ertaklari bilan turkiy xalqlar ertaklari orasidagi o'xshashlik asosan – epik an'ana mezonlari, ertaklarning ichki tasnifi, syujet silsilasi, motivlar tarkibi va kompozitsion qurilish xususiyatlari, asosiy personaj talqini, yordamchi va homiy personajlarning funksiyalari, qadimgi nikoh marosimlari (endogamiya, ekzogamiya, matriokal nikoh, poligamiya va h.k.)ga oid xalq qarashlarining ertak syujetida aks etishi, arxaik motivlar, mifologik va diniy tasavvurlarning talqini saqlanib qolganligida ko'rinishi aniqlandi.

Kartografik metod. Muayyan narsa-hodisalarining ma'lum bir makoniy qamrov doirasida tarqalishi, o'zaro aloqalari, lokal xususiyatlari, o'ziga xos va umumiy qonuniyatlarini kartografik metod asosida tahlil qilish folklorshunoslik, geografiya, etnografiya, arxeologiya, tilshunoslik (dialektologiya) fanlarida keng ko'lamda qo'llaniladigan usullardan biri. Bu metod xalqning etnik tabiatini belgilovchi an'anaviy moddiy madaniyati, urf-odat va an'analari, turli-tuman sheva xususiyatlarini aks ettiruvchi katta qamrovdagi faktik materialni to'plab, sistemalashtirish hamda etnolingvisistik jarayonlar bilan bog'liq o'ziga xos qonuniyatlarni ochib berish maqsadida qo'llaniladi. Kartografik metod yordamida hozirga qadar ko'pgina geografik, etnografik va dialektologik atlaslar tuzilgan. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini o'rganishga kartografik metodni tatbiq etish an'anasi ham etnologik va dialektologik tadqiqotlar orqali urf bo'lgan.

Yevropa folklorshunosligi tarixi bo'yicha taniqli mutaxassis, italyan olimi Juzeppe Kokkyara fin folklorshunoslik maktabida ishlab chiqilgan "tarixiy-jo'g'rofif" metodni "**geografik-kartografik usul**" deb atashni taklif qilgan edi. Chindan ham A.Aarne ishlab chiqqan epik syujetlar ko'rsatkichining yaratilishida o'ziga xos jo'g'rofif-statistik tahlilga asoslangan umumlashmalar muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, "kartografik metod" dastavval folklorshunoslikda emas, balki etnografik tadqiqotlar amaliyotida qo'llanilgan. Etnografik tadqiqotlar olib borishda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha tayyorlangan so'rovnomalar, anketalar, savolnomalardan foydala-

nish hamda muayyan etnofolkloriy hodisaning tarqalish doirasi va qayd qilinish darajasini kartografiya usulida aniqlash tajribasi ilk bor Fridrix Ratsel va Vilgelem Pesser tomonidan qo'llanilgan. Xususan, F.Ratselning "Antropogeografiya", V.Pesserning "Quyi Saksoniyaning qiyosiy etnografiyasidan ocherklar" (1910) nomli asarlarida faktik materiallarni toplash va tahliliy umumlashmalar chiqarishda kartografik metoddan foydalilanilgan.

Folklorshunoslikdagi "geografik-kartografik metod" yoki "kartografik metod"ning yuzaga kelishiga esa Shveytsariyadagi Neyshatele universiteti professori, yirik fransuz folklorshunosi va etnografi Arnold Van Gennepning tadqiqotlari asos bo'lган. U butun umri davomida Fransiyaning Burgundiya, Overiya, Flandriya, Savoyi va boshqa provinsiyalarini kezib chiqib, fransuz xalqining urfodatlari, marosimlari, udumlari, an'analari va folklorini toplash bilan shug'ullanigan. Ana shu izlanishlar natijasida bir nechta folklor toplashlari va ilmiy tadqiqotlarni nashr ettirgan A.Van-Gennep 1939-yilda "Hozirgi fransuz folklorini o'rghanish bo'yicha qo'llanma" ("Manuel de folklore francais contemporain") nomli ko'p jildlik asarini chop ettirdi. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarining iqtidori to'plovchisi sifatida e'tirof etilgan A.Van-Gennep 1909-yildan e'tiboran material toplashda o'zi tuzgan "So'rovnama"lardan samarali foydalangan. Uning "So'rovnama"lari olim ish olib borgan hududlardagi tarixiy-folkloriy jarayonning holati, har bir provinsiya folklorining o'ziga xos xususiyatlari, janrlar tarkibi, folklor asarlarining tarqalish doirasini aniqlash imkonini bergan. Olim ana shu "So'rovnama"lar vositasida to'plangan materiallarni tahlil qilib, u yoki bu folklor asari, udum va odatlarning qaysi hududda tarqalganligi haqida aniq xulosalar chiqargan.

A.Van-Gennep o'zining 1934-yilda yozilgan folklor metodologiyasi haqidagi bir maqolasida «kartografik metodning afzalligi tadqiqot natijalarining aniqligi va dalillarning ishonarligidadir», deb yozadi. Bu metod o'r ganilayotgan hodisaning mavjudligi yoki yo'qolib borayotganligini ko'rsatuvchi barcha elementlarni to'la qamrab

olish imkonini beradi. Kartografik metod folklorshunos tomonidan o'rganilayotgan janr, syujet, motiv, udum va e'tiqodiy qarashlarning barcha elementlari: ijro holati, tarqalish doirasi, hududiy o'ziga xosligi va lokal farqlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Chez folklorshunos olimi A.Bryuner xalq orasida saqlanib qolgan mifologik tasavvurlarni o'rganish jarayonida chexlarning suv bilan bog'liq asotiriy personajlariga oid ma'lumotlarni kartografik metod asosida to'plagan. U 1918-yilda Krakovda nashr etilgan "Slavyan mifologiyasi" ("Mitologja slowianska") kitobida chez mifologiyasidagi suv ruhlari o'zining tashqi ko'rinishi, xarakteri va xatti-harakatlariga ko'ra turlicha nomlar bilan atalishini kartografik tahlil natijasida aniqlaganligini qayd qiladi.

Kartografik metodni fin folklorshunoslari (masalan, V.Anderson, 1931, 1955) ertak syujetlarining tarqalish arealini aniqlash maqsadida qo'llagan bo'lishsa, bolgariyalik olimlar (M.Arnaudov, 1920; A.Angelov, 1936) qadimgi tasavvurlarning xalq epik she'riyatida relikt holida saqlangan ko'rinishlarini o'rganish maqsadida bu metodga murojaat qilganlar.

Kartografik metodning rus folklorshunosligida qo'llanilishi esa Rossiya geografik jamiyati "Ertaklarni o'rganish qo'mitasi" ning faoliyati bilan bog'lanadi. "Ertaklarni o'rganish qo'mitasi" XX asrning 20-yillardan e'tiboran folklor va etnografiya materiallariga tizimli yondoshish orqali, matnlarning variantlari, ularning o'zaro nisbati va aloqadorligini o'rganishda geografik faktorga asoslandi. Folklor asarlарini kartografik metod asosida tadqiq etish juda katta nazariy tayyorgarlikni taqozo etar edi. Binobarin, A.I.Nikiforov, P.G.Bogatiryov, V.M.Jirmunskiy, R.R.Gelgardt kabi olimlarning bu masalaga doir asarlari rus folklorshunosligida kartografik tadqiqot metodikasini belgilab berdi.

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini geografik-kartografik metod asosida o'rganish muammosi 1958-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan "Slavyanshunoslarning V xalqaro syezdi"da maxsus muhokama etilgan. Mazkur anjumanda "Xalq og'zaki ijodi asarlarining yaratili-

shi, shakllanish tarixi va hozirgi holati bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda folklorni kartografiyalash qanday ahamiyatga ega?” degan savol folklorshunoslar muhokamasiga qo‘yilgan. Bu masala yuzasidan P.G.Bogatiryov, V.M.Jirmunskiy hamda bolgariyalik folklorshunos olim S.Vranska o‘z mulohazalarini bildirishgan. Shunday bo‘lsa-da, XX asrning 70-yillariga qadar rus folklorshunosligida kartografik metod asosiga qurilgan jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratilmadi.

Slavyanshunoslarning 1974-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyasida so‘zga chiqqan folklorshunos olim K.V.Chistov “etnografiyada samarali qo‘llanilayotgan kartografik metod folklorshunoslik fani amaliyotiga u qadar singib ketmayotganligi, xolbuki, xalq ijodiyotini bu metod tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, struktural va boshqa usullar bilan baravar qo‘llanilganda folkloristikani boyitishga xizmat qiladigan material va xulosalar berishi mumkinligini” qayd qildi. U o‘zining kartografik usulni qo‘llash metodikasiga doir nazariy qarashlarini o‘scha yili chop ettirilgan “Marosim va marosim folklorini kartografiyalash muammolari” (“Проблемы картографирования в языкоznании и этнографии”. – М.: Наука, 1974. 16-33 с.) nomli maqolasida to‘y marosimiga oid etnofolkloristik manbalarning tahlili misolida bayon qildi.

Shundan keyin Yevropa va rus folklorshunosligida kartografik metodni qo‘llash asosida ilmiy tadqiqotlar yaratishga qiziqish kuchaydi. Etnologiya, arxeologiya, dialektologiyada bo‘lgani singari, folklorshunoslikda ham “areologik yo‘nalish” yuzaga keldi. Ayniqsa, N.I.Tolstoyning Polesye etnolingvistik atlasini yaratish ustida olib borgan tadqiqotlari, S.M.Tolstayaning xalq taqvimining etnodialektologik lug‘atini tuzish maqsadida olib borgan kartografik tekshirishlari, A.V.Guraning to‘y marosimlari folklori va terminologiyasini tadqiq etishga doir ishlari bu metodning folklorshunoslikka keng ko‘lamda tatbiq etilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Kartografik metodning asosiy maqsadi an‘anaviy ma‘naviy madaniyatning muhim qismi hisoblangan folklor asarlari yoki muayyan folklor janrini areologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Bu

usul asosiga qurilgan ilmiy tadqiqot muayyan izchillikda amalga oshiriladi va asosan to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi:

1) folklor asarlarini yozib olish, to‘plash yoki muayyan folkloriy hodisani o‘rganish uchun alohida dastur, qo‘llanma, so‘rovnoma va anketa-savlonomalarini tuzish;

2) tadqiqot olib borilishi ko‘zda tutilgan jo‘g‘rofiy hudud yoki bir necha etnofolkloriy areallarda tuzilgan dastur asosida faktik materialarni to‘plash;

3) yig‘ilgan folklor materiallarini kartografiyalash;

4) o‘rganilayotgan hudud folklorining kartografik talqinini ilmiy tahlil qilish.

Kartografik metoddha ish yuritishning ana shu ko‘p bosqichli tizimi muayyan izchillikni talab qiladi. Chunki dastur, so‘rovnomalar tuzmasdan yoki tahlil qamrovi talab qiladigan faktik materialni to‘plamasdan turib kartografiyalash amaliyotini amalga oshirib bo‘lmaydi. Ba’zan u yoki bu faktni aniqlashtirish, olingan etnofolkloriy dalillarni to‘ldirish maqsadida qayta tekshiruv olib borishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, kartografik metod uzoq muddatli izchil ilmiy izlanishlarda qo‘llaniladigan tadqiq usuli sanaladi. Kartografiya usuli uchun ishlanayotgan tadqiqot maqsadi va vazifalari dan kelib chiqqan holda mavzu tanlanadi.

O‘zbek folklorshunosligida bevosita kartografik metod asosida yaratilgan ilmiy tadqiqot mavjud bo‘lmasa-da, bu usulning ayrim qirralari, ya’ni kartografiyalash uchun tegishli materiallar to‘plashga imkon beradigan maxsus qo‘llanma va dasturlar tuzish amaliyoti folkloristik izlanishlarda qo‘llanib kelinmoqda. Xususan, “Maorif” jurnalining 1918-yilgi 1-sonida chop ettirilgan “O‘zbek xalq ijodini to‘plash uchun qisqacha qo‘llanma” folklorni kartografik metod asosida o‘rganishni targ‘ib etmasa-da, to‘plovchilik ishiga milliy ziyolilarning qatnashishiga alohida e’tibor berish, folklor asarlarini yozib olish bilan aloqador “dala ishlari”ning bevosita xalq orasida olib borilishi hamda xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini ko‘proq keksa kishilar va ayollar og‘zidan yozib olish-

ning tavsiya etilishi bilan e'tiborga molikdir. Ana shu "Qo'llanma" o'zbek folklori asarlarini ilmiy asosda toplash va sistemalashtirish yo'lidagi ilk qadam bo'ldi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1926-yil 7-8-sonlari G'ozi Olim Yunusov tomonidan tuzilgan "O'zbek el adabiyotiga tegishlik ma'lumotlarni toplaguvchilarga qo'llanma" nomli dastur bosildi. Bu dastur o'zbek folklorini toplash va o'rganishning ilmiy asoslarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Atoqli olim H.Zarifov tomonidan 1934-yilda chop ettirilgan «Lug'at ham termin toplaguvchilarga qo'llanma»da «Programmalar» fasl mavjud bo'lib, unda tabiat va jo'g'rofiy mahalliy otlar, o'simliklar, hayvonlar, meteriologiya, astronomiya, xalq turar joylari, uy va uy jihozlari, ovqat va ichimliklar, kiyim-kechaklar, bezaklar, naqliyot vositalari, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, sabzavotchilik, arichilik, tovuqchilik, ovchilik, ko'katchilik, ko'chatchilik, gulchilik, hunarmandchilik san'ati, savdo-sotiq, tibbiyot va xalq tabobati, urug'-qabila, oila va qarindoshlik, to'y, o'lim, din, bayramlar, o'yinlar, cholg'u, kuy va raqs, og'zaki adabiyotga oid materiallarni toplash uchun savolnoma-anketalar ilova qilingan. Ana shuning o'zi o'zbek folklorshunosligida kartografik metod asosida material toplash an'anasisiga H.Zarifov asos solganligini ko'rsatadi.

Kartografik metod tarixiy-folkloriy jarayon bilan bog'liq muayyan hodisaning ma'lum bir jo'g'rofiy hudud doirasidagi tarqalish holati, ayniqsa, qadimiy inonchlarga aloqador mifologik e'tiqod va obrazlarning xalq tasavvurida saqlanib qolish darajasi, xalq lirkasining ijrochilik an'analari, marosim folklori va epik syujetlar tizimining variantlarini aniqlab, kompleks tadqiq etishga asos beradi.

Bugungi kunda ham folklor asarlarini muayyan hududlar bo'yicha areal tadqiq etish, folklor an'analalarining lokal xususiyatlarni aniqlash, ayniqsa, maqol, topishmoq, bolalar folklori, marosim folklori, aytim-olqish, afsun-avrashlarning o'ziga xos tabiatini tadqiq etishda kartografik yo'nalishda ish olib borish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Strukturual tahlil metodi. Folklorshunoslik tarixida badiiy matnni muayyan qismlarga ajratib tahlil qilishga asoslangan ilmiy metod «strukturual tahlil metodi» deb yuritiladi. Bu metod folklor asarlaridagi har bir syujet elementi – motiv, lavha, obraz va hatto, eng kichik badiiy detallargacha ilmiy tavsiflash asosida asar morfologiyasini tadqiq etadi hamda xalq badiiy tafakkurining poetik mohiyati va qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Strukturual tahlil metodining asosiy maqsadi badiiy asarning mazmunini emas, balki tuzilishini, shakliy jihatini o‘rganishdan iboratdir.

Folklorshunoslikda epik matnlarni strukturual o‘rganishga doir ilk qaydlar A.N.Veselovskiy qalamiga mansub bo‘lib, u “Asarlar to‘plami”ning 1913-yilda chop ettirilgan 2-jildi (1-qism)ga kiritilgan “Tarixiy poetika” asarida motiv - syujetni tashkil etuvchi eng kichik element ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergen edi. R.M.Volkov o‘zining xalq ertaklari syujet tizimining shakllanish tarixiga doir tadqiqotida (Odessa, 1924) rus, ukrain, belorus ertaklarning matnlarini kompozitsion qurilishi jihatidan o‘rganib, ertak strukturasida muayyan badiiy formulalar (masalan, voqeа-hodisalarning uch marta takrorlanishi, personajlar sonining uchta bo‘lishi va h.k.) muhim rol o‘ynashini aniqlagan.

1928-yilda ertaklarni strukturual tahlil qilishga bag‘ishlangan ikki asar – A.N.Nikiforovning “Xalq ertaklarini morfologik jihatdan o‘rganish masalasiga doir” nomli maqolasi hamda V.Y.Proppning “Ertak morfologiyasi” asari bosilib chiqdi.

A.N.Nikiforov tadqiqotining muhim jihat shundan iborat ediki, u folklorshunoslikda birinchi bo‘lib ertak strukturasi bilan bog‘liq quyidagi “morfologik qonun”lar mavjudligini aniqladi:

a) voqealar rivojini tezlashtirish yoki susaytirish maqsadida ertak strukturasini belgilovchi muayyan elementlarning izchil takrorlanishi;

b) “kompozitsion o‘zak qonuni” yoki har bir ertakda bitta yoki ikkita qahramon mavjudligi, qahramonlarning teng huquqli yoki aksincha bo‘lishi.

A.N.Nikiforovning fikricha, ertak syujetida harakat qiluvchi yet-akchi personaj hamda ikkinchi darajali obrazlarning kombinatsiyalashgan funksiyalari ertak syujetini tashkil etuvchi asosiy semantik elementlar tizimini tashkil etadi.

Ertak janriga oid badiiy matnlarni morfologik jihatdan tadqiq etgan V.Y.Propp esa “harakatlanuvchi personajlarning funksiyalari” sehrli ertaklarning o‘zgarmas, doimiy va takrorlanib turuvchi turg‘un elementlari ekanligini kashf etdi. “Ertak morfologiyasi” kitobida keltirilishicha, bu “funksiyalar” quyidagilardan iborat: uzoqlashish, taqiq va uning buzilishi, ziyon yetkazuvchi personajga qahramon haqida ma’lumot berilishi, yetishmovchilik, safar, homiylik funksiyasi va qahramonning unga munosabati, qahramonning qaytishi.

XX asr folklorshunosligida strukturual tahlil metodi N.Roshiyanu, M.Y.Lotman, Ye.M.Meletinskiy, B.N.Putilov, V.M.Gatsak, M.Y.Segal, F.Go‘zalov kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi.

O‘zbek folklorshunosligida strukturual tahlil metodi G’.Jalolov, X.Egamov, N.Do‘sxo‘jayevalar tomonidan sehrli ertaklarni o‘rganishda samarali qo‘llanilgan. Xususan, N.Do‘sxo‘jayevaning «O‘zbek sehrli ertaklarining strukturual tahlili» nomli nomzodlik dissertatsiyasida strukturual tahlil metodining mohiyati va xalq nashi-janrlarini tadqiq etishda qo‘llanilishi masalalari yoritib berilgan. Tadqiqotchi o‘zbek sehrli ertaklaridagi an’anaviy boshlamalar – initsial formulalar tarkibi va uning asar badiiyatini mukammallashtirishdagi vazifalarini aniqlagan. Ertak syujetini tashkil etuvchi har bir elementni alohida-alohida olingan holda o‘rgangan tadqiqotchi o‘zbek sehrli ertaklari asosan «yetishmovchilik», «shart», «taqiq», «tush», «safar», «vazifa», «qurol-yarog‘», «raqib», «tamg‘a», «mukofot-xazina», «o‘tish formulasisi», «qaytish» kabi elementlardan iborat degan xulosaga kelgan.

Strukturual tahlil metodi o‘zbek xalq sehrli ertaklarining mohiyatini belgilovchi «tilsim» yoki «sehr»ni «sehrli xususiyatga ega bo‘lgan jonivor (ot, kiyik, turli g‘aroyib qushlar, ilon, bo‘ri kabi)», «jonivor ko‘rinishida tasavvur qilingan zoomorf obrazlar (dev)», «inson qi-

yofasida tasavvur qilingan antropomorf obrazlar (yalmog‘iz, pari, Xizr)», «sehrli so‘z («ochil qamish», «qayna xumcha», «ur to‘qmoq» kabi)», «tilga kirish (ot, kiyik, ilon, sigir va boshqa jonivorning tilga kirib odamday so‘zlashi)», «sehrli ashyolar (oynai jahon, sehrli tosh, yalmog‘izning oynasi va tarog‘i, sandiq, quti, qayna, xumcha, uzuk kabi)», «transfiguratsiya (bir shakldan boshqa ko‘rinishga o‘tish, ya‘ni evrilish)» vositasida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Folklor asarlarini strukturual tahlil metodi asosida o‘rganish badiiy asarni har tomonlama tadqiq etishning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ilmiy metod deganda nimalarni tushunasiz?
2. Folklorshunoslikdagi ilmiy metodlarga ta’rif bering.
3. Tarixiy-qiyosiy metodning o‘ziga xosligi nimada?
4. Folklorshunoslikdagi yetakchi metodlarning bugungi kundagi ustivor jihatlarini so‘zlab bering.

1.6. FOLKLORNING TUR VA JANRLARGA BO‘LINISHI

Xalq og‘zaki ijodi namunalari ham barcha san’at asarlari kabi tulishi, ijro o‘rnii, ko‘rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaga bog‘liqlik darajasi, g‘oyaviy - badiiy xususiyatlariga ko‘ra, muayyan tur, guruh va janrlarga bo‘lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatlidir bo‘lib, folklor namunalarining tabiatini, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo‘lishi, mukkammal shaklga kelishi, o‘zgarishlarga uchrashi, o‘rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o‘rganish imkonini beradi. Folklor asarlari o‘z tarkibiga ko‘ra uch turdan iborat ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ularni umimiy shaklda epik, lirik, dramatik turlarga ajratib tasnif etish qabul qilingan. O‘z navbatida bu turlar ichki janrlardan tashkil topgan. Epik tur namu-

nalarida voqelik keng ko'lamlı, obyektiv syujetli-hikoyaviy shakllarda tasvirlansa, lirik turda subyektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlari, ichki his-hayojonlari aks etadi. Dramada esa personajlarning nutqi va harakatlari orqali voqelik tasvirlari beriladi. Epik tur – doston, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va boshqa janrlardan, lirik tur – marosim lirikasi, mehnat qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlar, lirik qo'shiqlar, alla, bolalar qo'shiqlari, dramatik tur esa og'zaki drama, qo'g'irchoq o'yin, askiya kabi namunalarni o'zida qamraydi.

Folklorshunoslikda tur deyilganda voqelikni ifodalash yo'li, usuli tushunilsa (epik, lirik, dramatik), janr deganda badiiy shakl tiplari (doston, ertak, qo'shiq, maqol...) tushuniladi. Ammo har bir janr ham ichki xilma-xilliklarga ega, bu uning mavzu mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, ertaklarning ichki ko'rinishlari sifatida hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar kabi xillari mavjud. Bir qator mutaxassislar maqol va topishmoqlarni maxsus tur sifatida tilga olib o'tishadi.

Folklor janrlarini ijro xususiyatlari va funksiyalariga ko'ra ikki yirik guruhga ajratib tasnif etish keng tarqalgan. 1. Marosim folklori janrlari. 2. Marosim bilan bog'liq bo'limgan folklor janrlari. Folklor asarlarining kimga mo'ljallanganligini hisobga olib ham ayrim guruhlarga bo'lish mumkin. Bolalar folklorini alohida olib ajratish shundan kelib chiqqan.

Folklorshunoslikda gohi-gohida turlararo qorishiq holatda uchrovchi namunalarga nisbat liro-epik qo'shiq yoki ertak afsona singari atamalar qo'llanilsa-da, bu holat umumiy holat emas.

Xalq badiiy tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi folklor namunalarining tadrijida aks etgani kabi, u yoki bu janrning yuzaga kelishi, turg'unlashuvida muhim o'rinn egallaydi. Insoniyat mifologik tafakkur bosqichidan mifopoetik, so'ngra badiiy estetik tafakkur tadrijiga erishdi. O'zbek folkloridagi aksariyat janr namunalari aynan badiiy estetik tafakkur darajasida mumtoz holatga kelganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham o'zbek mifologiyasi xususida so'z ketsa, xalq dostonlari, ertaklari mag'zida turuvchi mifologik tasavvurlarni,

ularning bu asarlar syujeti, yetakchi motivlari va obrazlar qatidan ajaratib, tiklab qarash lozim bo‘ladi.

O‘zbek folklorining janrlar tarkibi—boyligi, xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi. Shu o‘rinda dunyoning barcha xalqlari uchun umumiy bo‘lgan – ertak, maqol, topishmoq kabi janrlar qatorida askiya, lof kabi faqat o‘zbek xalq ijodiga xos janrlar mavjudligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘zbek folklori janrlari xilma-xilligi ijodkorlarning faoliyati va ularning professionallashuvi bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, doston, ertak, og‘zaki drama, askiya kabi janrlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni, muayyan ustozdan ta’lim olishni talab etadi. Bu janrlar ijrosi maxsus maktablarning paydo bo‘lishini, ularning o‘z an’analari doirasida shakllanib rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘zbek folklori janrlari ijro usullari, ya’ni yakka ijro, jamoaviy ijro, sozli va sozsiz ijroga ko‘ra ham farqlanadi. Ertak, afsona va rivoyat aytilsa, doston ham kuylash, ham ijro etishga mo‘ljallangan. Lapar kuylab va raqsga tushib ijro etilsa, og‘zaki drama namunalari so‘z (ba’zan kuylab, kuy jo‘rligida) va harakat omuxtaligida ko‘rsatishga, namoyish qilishga mo‘ljallangan. O‘lanlar tarafmataraf kuylangan. Latifa va loflar yakka ijro etilgan.

O‘zbek folklorining janrlar tizimi g‘oyaviy-badiiy prinsiplarining umumiyligi, tarixan taraqqiy etgan o‘zaro mushtarak munosabatga egaligi bilan yaxlit tizimni tashkil etadi. Ularning barchasida xalq hayoti, uning o‘zligini namoyon etuvchi xususiyatlar, ruhiyat, orzu-intilishlar aks etadi. Folklorning barcha janrlari uchun badiiy-estetik prinsiplar ham umumiy ko‘rinishga kelgan. Sodda shakl, donish-mandlik, badiiy-tasviriy vositalar tizimidagi umumiylilik, ramziylik, shartlilik, qahramonlarning yuksak ahloqiy mezonlar asosida aniq bahoga egaligi, syujet va kompozitsion qurilishdagi an’anaviylik ustuvor ko‘rinish oladi.

Xalq bilan birga tug‘ilgan bu xususiyatlar xalqning tarixi, madaniyati, turmushi, e’tiqodi va tiliga xos xususiyatlarni, milliy o‘ziga xoslikni yorqin ifoda etadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarlarning tur va janrlariga bo‘linishini izohlab bering.
2. Folklor asarlari qanday tur va janrlarga bo‘linadi.
3. Epik janrga ta’rif bering.
4. Og‘zaki ijod va yozma adabiyotning tur va janrlarga bo‘linishida o‘xshashlik va farqliklar.
5. O‘zbek folklori janrlarini sanab bering.
6. Folklor janrlarining bugungi kunda o‘rganilishi haqida so‘zlab bering.

1.7. FOLKLORDA MOTIV VA SYUJET

Butunni bilish uchun uni yuzaga keltiruvchi qismlarni bilish kerak bo‘ladi. Shu ma’noda epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan, ularning mohiyatini anglash mushkul. Demak, dastlab «motiv o‘zi nima» degan savolga javob berish lozim.

«Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati»da «Motiv–syujet tarkibidagi halqalardan biri», deyilgan. Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo‘lsa, motiv shu voqelikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya’ni epik asar qurilma-strukturasini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas.

Epik asarlarning syujet va motivi haqida mutaxassis olimlarning qarashlari turlicha. Biroq ko‘pchilik olimlar rus olimi A.N.Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga asos sifatida tayanishadi. Mazkur olim motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo‘g‘in ekanini ta’kidlab, «Motivlar birlashib syujet halqasini yuzaga keltiradi», – deydi. U motivlarni syujetning eng kichik bir bo‘linmas bo‘lagi sifatida tahlil etadi.

V.Propp va B.Putilovlar esa A.N.Veselovskiyning qarashlarini rivojlantirib, motivlarning hamisha o‘zgaruvchan ekanligiga, ular syujetning kichik bir bo‘lagi bo‘lgan holatda uning o‘zi ham bo‘laklardan, qismlardan tashkil topishiga e’tibor qaratadilar.

«Motiv syujetning mag‘zidir», – deydi B.Putilov. Bu o‘rinda olim motivlarning tabiiy evolyutsion jarayonini nazarda tutadi.

Syujetning yuzaga kelishi motiv bilan chambarchas bog‘liq ekan, motiv birlamchi ekanligiga hech shak-shubha yo‘q. Eng muhim esa har bir motivning syujet halqasida qanday o‘rin tutishini, qanday mazmun va mohiyat kashf etishini aniqlash folklorshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbek xalq ertak va dostonlari tahliliga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar mavjud. Bular orasida H.Zarifov, M.Saidov, M.Afzalov, T.Mirzayev, K.Imomov, X.Egamov, G‘.Jalolov, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Jo‘rayev, SH.Turdimov kabi olimlarning ishlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Epik asarlarning syujeti, versiya va variantlari, tarixiy asoslari va badiiyati borasida bu olimlarimizning izlanishlari nazariy manba bo‘lib xizmat qilishiga hech shak-shubha yo‘q. Biroq shunday bo‘lsa-da, birgina N.Do‘stxo‘jayevaning o‘zbek ertaklari tahliliga bag‘ishlangan ilmiy ishini istisno qilganda, epik asarlar strukturasi bizda haligacha yetarlicha o‘rganilgan emas.

Har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o‘z qurilmasiga ega. Motiv esa ana shu qurilmada asosiy o‘rin tutadi. Shunday ekan, folklor asarlari tahlili motivlar tahlili orqali amalga oshmog‘i kerak. Epik asarlardagi motivlarni aniqlash, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog‘liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, badiiy-estetik vazifalarini tahlil etish folklorshunoslikdagi muhim masalalardan biridir.

Ma’lumki, epik asar syujeti albatta biror makon va zamonda kechar ekan, bu harakat, shubhasiz, motivlar harakati orqali amalga oshiriladi. Bizning maqsadimiz esa ana shu motivlar, xususan, tush motivining epik asardagi o‘rni, boshqa motivlar bilan munosabati, voqelikni yuzaga keltirishdagi tadrijiy rivojini tahlil etish dan iborat. Zero, tush va tush motivi epik asarlarda muhim o‘rin tutadi.

«Alpomish» dostonining barcha variantlarida biz tush motiviga duch kelamiz. Dostondagi voqealar boshlanishida, rivojida va yaku-

nida kelgan bunday tushlar o‘rniga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Misol uchun dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida tush motivi voqeanning boshida va rivojida keladi. Qahramon, ya’ni Algomishning dunyoga kelishi, ulg‘ayishi, uylanishi, hayot qiyinchiliklarini yengib, murod va maqsadiga yetishi tush motivi orqali ochib beriladi. Agar dostondagi tush motivi tushirib qoldirilsa, unda syujet jiddiy zarar ko‘radi. Dostondagi befarzandlik, ulg‘ayish, sinov, safar, uylanish va uyga qaytish motivlari bevosita tush motivi bilan chambarchas bog‘liq holda keladiki, tush bu o‘rinda voqealar rivoji uchun asosiy poydevor vazifasini o‘taganini ko‘ramiz.

Tush motiviga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri uning ko‘pincha boshqa motivlarni o‘zi bilan birga yetaklab kelishidir. «Algomish» dostonida Algomish, Barchin va Qorajon bir vaqtning o‘zida ayni bir tushni ko‘radi: «Algomish cho‘ponlarning qo‘sxonasida uqlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi, sahar vaqtincho‘ponlarning qo‘sxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori, bul ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtida bir tush ko‘rdi. Kas’hal g‘orida, to‘qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko‘rdi. Uchovining tushi oldin keyin, do‘g‘ulish ko‘rdi».¹² Ana shu tush motivida butun doston voqealari oldindan bashorat qilinib, ramzlar tilida bayon qilinadi. Ya’ni doston syujetining butun keyingi voqealari rivoji ana shu parchada ko‘rsatib beriladi. Ushbu motivdan so‘ng doston voqealari tezlashib, syujetning keyingi halqalari uchun vaziyat yaratiladi. Qorajon ana shu tush tufayli Algomish bilan do‘st tutinadi. Sinovda o‘zi tug‘ishgan akalarining yonida turib emas, Algomish tomonda turib davraga tushadi. Algomishning do‘sti, sirdoshi, yaqin ko‘makchisiga aylanadi. Shuning uchun ham ana shu tush parchasini doston syujetining «yadrosi» deb qarash mumkin.

O‘zbek dostonlaridagi tush motivi sinov, uylanish, safar, qaytish kabi keyingi motivlar bilan chambarchas bog‘langan holda keladi.

¹² Алгомиши. Ўзбек ҳалқ қаҳрамонлик эпоси. Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. –Тошкент: Фан, 1999, 144–145 б.

Doston syujetining keyingi «taqdiri» ana shu tush motivi bilan bevosita bog‘liqliki, agar Alpomish, Barchin va Qorajon ana shu tushni ko‘rmaganlarida, Qorajon Alpomish bilan do‘s tutinmagan va voqealar tizimi boshqacha rivojlangan, bu esa syujet o‘zgarishiga olib kelgan bo‘lardi. Bu holat barcha variant va versiyalarning ichida eng mukammali hisoblangan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining badiiyatiga ham salbiy ta’sir qilmay qolmasdi.

Epik ijodda motivlar hamisha rang-barang bo‘ladi. Shuning uchun ham syujetda har bir motiv o‘ziga xos «yuk»ka ega. Motivlarning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi, syujetdagi barqarorligi doimo ham bir xil bo‘lavermaydi. Shuning uchun ularni ikki yo‘nalishda olib qarash mumkin. Birinchisi, biror bir motivlarning tushib qolishi yoki o‘zgarishi syujetda ham tub o‘zgarish bo‘lishiga olib keluvchi barqaror motivlar. Bunday motivlar asar strukturasida mustahkam o‘ringa ega bo‘ladi. Ikkinchisi, motivlar o‘zgarishi hech qanday syujetning o‘zgarishiga olib kelmaydi. Bunday motivlar boshqa bir motiv bilan almashtirish mumkin bo‘lgan nobarqaror motivlardir.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantidagi tush motivi barqaror motivlarga taalluqli bo‘lib, bu motivning o‘zgarishi boshqa motivlarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Biroq shu dostonning Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li variantidagi voqeа yakunida kelgan tush motivining o‘zgarishi yoxud tushib qolishi syujetda aytarli darajada katta o‘zgarishlarga olib kelmaydi. Shuning uchun ham unga nobarqaror motiv namunasi sifatida qarashimiz mumkin.

Barqaror motivlar ham hamisha harakatda, ichki o‘zgarishlarga moyilekanligini ham unutmaslikkerak. Misol uchun, «Kuntug‘mush», «Rustamxon», «Go‘ro‘g‘lining o‘limi» kabi dostonlarda ham tush barqaror motiv bo‘lib keladi. Lekin «Kuntug‘mish» dostonida u safar, «Rustamxon»da uylanish, «Go‘ro‘g‘lining o‘limi»da o‘lim motivi bilan bog‘liq holda keladiki, bu bog‘liqlik vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. «Kuntug‘mish»da qahramon tushida yorini, «Rustamxon»da ona o‘z qizini, «Go‘ro‘g‘lining o‘limi»da Go‘ro‘g‘li o‘z pirini tushida ko‘radi. Barqaror motivdagi ana shu kichik ichki

o‘zgarish keyingi motivga ta’sir qiladi, shu sababli keyingi motiv ana shu o‘zgarishga qarab belgilanadi.

MOTIV (fr. motif – kuy, ohang so‘zidan) – syujet tarkibidagi, uni yuzaga keltiruvchi asosiy halqalardan biri. Motivlar o‘zaro bir-lashib syujetni yuzaga keltiradi. Motiv termini xalq og‘zaki ijodida, xususan, doston, ertak kabi katta epik janrlarni o‘rganishda ishlataladi. Qahramonning g‘ayritabiyy tug‘ilishi, personajning ovga yoki safarga chiqishi, uning qahramonlik uyqusiga ketishi tush motivlari shular jumlasidandir. Rus folkloristikasida A.N. Veselovekiy, V.M. Jirmunskiy, V. P. Propp, E. Pomeranseva, B. N. Putilov; o‘zbek folkloristikasida prof. H. T. Zarifov, M. Afzalov kabi tadqiqotchilarining ishlarida motiv termini keng qo‘llanilgan. Hatto rus folkloristi V. Y. Propp o‘zining «Ertaklar morfologiysi» nomli asarida ertak syujetining tuzilishi, uning tarkibidagi motivlar va ularning birikish tiplarini maxsus tahlil qilib, umumjahon ertakshunosligida syujetlarni o‘rganishning eng qulay yo‘lini ko‘rsatib beradi.

Adabiyotshunoslikda motiv termini asarning asosiy mavzu va g‘oyasini to‘ldirishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha mavzuni g‘oyaviy liniyaga nisbatan qo‘llaniladi.

SYUJET (fransuzcha — predmet, mazmun, narsa) — badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kecha-digan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi. Syujet motiv bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy asarlarda motivlar birlashib, syujetni yuzaga keltiradi. Shu ma’noda syujetni motivlarning ilgarilama harakati deyish mumkin. Misol uchun, «Alpmish» dostoni an’anaviy befarzandlik motivi bilan boshlanadi. So‘ngra farzandning tug‘ilishi, unga ism qo‘yish, sinov, safar, uylanish, o‘lim, uyga qaytish motivlari bilan bog‘lanib, doston syujetini yuzaga keltiradi. Shuning bilan bir qatorda syujet badiiy asardagi xarakter bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, badiiy ijodda muhim o‘rin tutadi. Syujet badiiy adabiyotning barcha turlari va janrlarida mavjud. Syujet personajlar harakati tufayli shakllanadi. U she’riy asarda, ayniqsa, kichik she’riy asarlarda, prozaik asarlarga qaraganda yashi-

rinroq bo'ladi. Har bir adabiy turda syujet o'ziga xos xarakterga ega. Ko'pgina lirik asarlarda ko'zga yaqqol tashlanib turadigan syujet tizimi yo'q. Ulardagi his-tuyg'u, o'y-kechinmalar rivoji qaysidir ma'noda lirik asar syujetini tashkil etadi. Ayrim adabiyotshunoslar syujetlilik umuman lirik turga xos xususiyat emas, deb hisoblaydi. Chunki lirik asarda voqealar tizimi bo'lmasligi ham mumkin. Ayni chog'da, syujet faqat voqealar tizimidan ham iborat emas.

Badiiy asarda tasvirlangan voqealar tizimining o'zaro munosabatiga ko'ra, syujet asosan xronikal (voqeaband) va konsentrik (voqeaband bo'limgan) turlarga bo'linadi. Xronikal syujetda voqealar orasidagi vaqt munosabati yetakchilik qiladi. Konsentrik syujetda esa asarda tasvirlangan voqealar orasidagi sabab — natija muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo badiiy asarlarda yuqoridaq syujetlarning har ikki turi uyg'unligidan tarkib topgan shakli ko'proq uchraydi.

Badiiy asar Syujeti tasvirlanayotgan voqelik va asarda ishtirot etadigan qahramonlar masalasiga bevosita bog'liq. Chunki syujet asosidagi voqelikda qahramonlar harakat qiladi va, eng muhim, haqiqiy badiiy asarlarda avvalo qahramonlar o'z dardi-dunyosi bilan namoyon bo'ladi.

Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqealari rivoji, kulminatsiya, yechim singari bir qator unsurlardan tarkib topadi. Masa-lan, «Rustamxon» dostonida Rustamning Ajdarni yengish epizodi asarning kulminatsion nuqtasi sanaladi. So'ngra voqealar yechimi keladi. Badiiy asarda syujet unsurlari ba'zan turlichcha hajm va turlichcha tartibda kelishi mumkin. Shuningdek, ayrim asarlarda ekspozitsiya yoki yechim singari syujet unsurlari bo'lmasligi ham mumkin. Bu aslo kamchilik emas, aksincha, o'quvchini badiiy tafakkurga chorlaydi, tasavvurini kengaytiradi. Ba'zi adabiyotshunoslar prolog (muqaddima) va epilog (xotima) larni ham syujet element sifatida ko'rsatadilar. Syujet kompozitsiya, konflikt, fabula kabi adabiy tu-shunchalar bilan ham mustahkam bog'langan.

SYUJET TUGUNI – badiiy asarlarda voqealari va qahramonlar o'rtasidagi ziddiyatlarning boshlanishi. Misol uchun, «Kenja botir»

ertagida podsho bog‘ida olma daraxtidan olmaning o‘g‘irlanishi boshlanishi bo‘lsa, aka-ukalarning safarga otlanishi syujet tugunidir.

SYUJET CHIZIG‘I – badiiy ijodga taalluqli atama. Epik hamda lirik-epik asarlardagi voqealarning ma’lum tartibda, ketma-ket mantiqiy bog‘lanishdagi joylashishi. Badiiy asardagi syujet chizig‘i bevosita asarning kompozitsiyasiga aloqador masalalardan biderdir. Asardagi voqealar bir-biri bilan sabab-oqibat munosabatida bog‘langan bo‘lib, ular ijodkor g‘oyasini, maqsadini ifodalaydigan, ro‘yobga chiqaradigan tarzda joylashgan bo‘ladi. Asarning syujet chizig‘ida har bir detal, har bir epizod biror vazifa bajarishi lozim, ya‘ni syujet chizig‘idagi har bir epizod asar voqealarining mantiqiy talabi zarurati tufayli kiritilgan bo‘lishi kerak. Ko‘p planli badiiy asarda esa asosiy syujet chizig‘i bilan bir qatorda yordamchi syujet chiziqlar ham mavjud bo‘ladi. Yordamchi syujet chiziqlari asarning asosiy syujet chizig‘ini biror tomondan to‘ldiradi. Masalan, «Rustamxon» dostonida befarzand podshoning farzandli bo‘lishi dostonning asosiy syujet chizig‘ini tashkil etsa, undagi Rustamni o‘qitgan mulla bilan bog‘liq tavsirlar yordamchi syujet chizig‘ini tashkil etadi. Syujet chizig‘i badiiy asar konflikti va uning hal etilishi asosida yotuvchi voqealarni qamrab oladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Folklor asarlariga xos motivlarni tushuntirib bering.
2. Syujet tizimida motivning o‘rniga ta’rif bering.
3. Motivlarning janriy xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Epik asarlar syujetiga xos motivlarni aniqlang.

1.8. FOLKLOR ASARLARI STRUKTURASI

Muqaddima yoxud boshlama badiiy asar strukturasida muhim o‘rin tutadi. Yozma adabiyotdan farqli o‘laroq, og‘zaki ijodda muqaddimalar qat’iy, barqaror shaklga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi va ijrochining iqtidorini belgilab beruv-

chi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, ertaklarda boshlamalar: «Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan; bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan; qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan; toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan...», deb boshlanadi. Ertaklardagi bunday boshlama o‘zining badiiyati, majoziy mazmuni bilan qiziqarli bo‘lib, tinglovchi diqqatini o‘ziga jalb etadi va uni asosiy qahramonlar bilan tanishtiradi.

Epik asarlarning eng yirik turlaridan biri bo‘lgan dostonlar boshlamasi garchand ertaklarnikiga o‘xshab ketsa-da, faqat o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlarga ham ega. Bu o‘ziga xoslik birinchi navbatda ertakka nisbatan ancha keng qamrovli, epik ijodkor, ya’ni baxshi mahorati bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqadi. Shuning uchun aytish mumkinki, dostonlardagi nasrda saj bilan keluvchi boshlamalarning pishiq puxtaligi, mazmunan boyligi, badiiyatiga qarab doston ijro-chisining san‘atkorlik darajasini belgilab berish mumkin bo‘ladi.

«Alpomish» borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq doston muqaddimasi va uning asar strukturasida tutgan o‘rnii masalalari yetarli darajada tadqiq etilgan emas.

Epik ijoddagi muqaddimaning o‘rganilishi, eng avvalo, doston strukturasining mohiyatini oolib berishga xizmat qiladi. Epik asar syujetining keyingi rivojini ta’minlab beradi. Dostonda kechayotgan joy, asosiy obrazlar, epik asarda turgan vogelikning mohiyatini tushuntiradi. Muqaddimada ko‘pincha qahramon shajarasiga urg‘u beriladi, unda tilga olingan qahramon shunchaki, oddiy bir qahramon emas, balki bevosita ko‘k bilan, ilohiyot bilan bog‘lanishi urg‘ulanadi. Muqaddimalar har matnda, qahramonlik, romantik dostonlarda o‘ziga xos tarzda beriladi. Bu boshlamalar, bir-biridan farqlanib tursa-da, ularda umumiyligi jihatlar mavjud. Muqaddimalar:

1. Tinglovchini vogelikka tayyorlaydi, ya’ni ularni dostonning asosiy qahramonlari hamda voqeasi bo‘lib o‘tadigan joy bilan tanishtiradi.

2. Doston qamrab olgan vogelikning ko‘lami naqadar keng ekanligini urg‘ulaydi.

3. Badiiy asardagi motiv va syujetlarning rivojiga turtki beradi hamda ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi.

«Alpomish» dostonida muqaddima: «Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘i ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinsining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi», – deb boshlanadi.

«Burungi o‘tgan zamon»–bu mifologik tushunchaga ko‘ra ibtidoning boshlanishi, xaosning kosmosga aylanishidir. Bu yerda noreallik, hayotiy asosga ega bo‘lmagan badiiy to‘qima haqida gap ketmayapti. Balki yarmi afsona, yarmi haqiqat, mifologik qobiqqa o‘ralgan o‘tmish, tarix haqida hikoya qilayapti. Ertakdan farqli o‘larroq, dostonni ijro etuvchi baxshi ham, tinglovchi ham undagi voqealar chin haqiqat ekaniga ishonadi. Qolaversa, doston ajdodlarning muqaddas xotirasi, shonli tarixi haqida. Bu shonli voqealar bir necha avlodlar tomonidan kuylanib kelingan, avlodlarga yetkazilgan va ijro etilayotgan zamonda ham davom etmoqda.

«O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli» yuqoridagi o‘tmish tarixiga yanda hayotiylik bag‘ishlaydi. Bu tarix ma’lum bir urug‘, ayni bir paytda butun boshli elat o‘tmishi bilan aloqador ekanini urg‘ulamoqda.

«Dobonbiy» so‘zi dovon, yuksaklik ma’nosida keladi. Bu ism shunchaki tanlanmagan. Hayotda katta ishlarni amalga oshirgan, yuksak marralarga erishgan qahramonning ramziy timsoliy obrazidir. Dostonda bu obraz chizgilari go‘yo mukammal emasdek, doston boshlamasida eslanib, keyin unutilib ketadigan ismidek tuyuladi. Biroq bu obrazga keyingi jumlalar, keyingi voqealar oydinlik kiritadi. Alpinbiydek Alpning dunyoga kelishi o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Unga Dobonbiy chekkan zahmat, erishgan donishmandlik sabab bo‘lgan.

Boybo‘ri bilan Boysari ismdagi «Boy» old qo‘srimchasi ularning shajarasi kimlardan ekanini ko‘rsatib turibdi. Biroq e’tibor

qilsak, Dobonbiy, Alpinbiy sanalib, keyin ikki juft ism sanala-yapti. Bu bejizgami?

Folklorda egizaklar tushunchasi mavjud. Har ikkala ism ana shu egizaklar haqidagi tushunchaning ma'lum darajadagi badiiy talqinidir. Odatda, egizaklar haqidagi mifologik tasavvurda egizaklarning biri katta, ikkinchisi kichik bo'ladi. Ona urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlar ustuvor qonuniyat kashf etilayotgan davrda urg'u ko'proq kenjaga berilib, ko'p holatlarda bevosita ona bilan bog'lanadi. «Kenja botir», «Uchinchi o'g'il» kabi ertaklar, «Alibek bilan Bolibek» dostonlari buning yorqin misolidir.

Faqat bu yerda urg'u Boysariga emas, aksincha, Boybo'riga qaratilgan. Alpomishning ham Boybo'rining farzandi ekani bejizga emas. Demak, bu dostonda ota urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlar bo'y ko'rsata boshlaganidan dalolat beradi. Biroq dostonning boshqa, jumladan, Barchin, Qaldirg'och, Surxayil kampir, Tovka oyim obrazlari talqini shuni ko'rsatadiki, dostonda ona urug'chiligi bilan bog'liq tasavvurlar ham hali barqaror turibdi.

«Alpomish» dostonida alp-qahramon tug'ilishidan oldin ota-onalarning farzandsizligi aslida ramziy ma'noga ega bo'lib, gap bu yerda sultanatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana birlashtiradigan yangi avlod – Alpning tug'ilishi haqidadir.

«Alpomish» dostonida millatning bo'linishi, parokandaligi Boysarining qalmoq eliga ko'chishi orqali ifodalanadi. Zero, turkiy xalqlar tarixning ma'lum bir davrlarida ulkan sultanat, hokimiyyat va cheksiz hukmronlikka ega bo'lган. O'zaro bo'linishlar, urushlar va boshqa sabablar tufayli, bu buyuk sultanatga putur yetgan. So'ngra xalqni, millatni birlashtira olgan yangi avlod – Alplar tug'ilib, turkiy xalqlarning tarix sahnasidagi oldingi yuksak mavqeyi yana qo'lga kiritilgan. Xuddi shunga o'xshash voqealarning badiiy ifodasi har ikkala asarning mohiyatini tashkil etadi.

E'tibor qilsak, «Alpomish»da Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonni faqat Hakimbek ota oladi. Alplik kamonining ko'lda zang bosib yotishi, undan oldingi avlod o'z vazifasini oxiri-

gacha bajara olmaganidan dalolat beradi. Bunday vazifani yangi avlod – alplargina oxiriga yetkazadi. Kamon bilan bog‘liq motiv «Dada Qo‘rqtitobi»da ham o‘xshash holatda keladi.

Epic ijoddagi apllik tizimiga turlicha yondoshuv mavjud. Xorijlik olimlar Lord Raglen, Karl Rayxl, Ojal O‘g‘zular o‘z tadqiqotlariida «Qahramonlik qolipi», o‘zbek folklorshunoslari esa «Apllik tizimi» degan atamani ishlatadi. Ya’ni folklordagi qahramon shunchaki qahramon emas, balki uning jasorati, mardligi, qahramonligini bo‘rttirib turadigan jihatlar mavjud. Bu jihatlar dostonlarda epic qolip shaklida keladi. Ya’ni, qahramonlar ma’lum bir tizimga amal qilishadi. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Dostonlar muqaddimasining ilk jumlasidayoq ajdodlarimizning shonli o‘tmishi bilan bog‘liq tasavvurlar mustahkam o‘rin olgan. Demak, mazkur holat dostonning mifologik qatlami, yuzaga kelish davriga ham ma’lum darajada aniqliklar kiritadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, xaqlarning ko‘p ming yillik tarixi, tafakkur tarzi haqida juda boy va qimmatli ma’lumotlar beradi.

«Dada Qo‘rqtitobi» muqaddimmasi Kitob «Rasulalayxissalom zamoniga yaqin Bayat bo‘yida Qo‘rqtitobi degan bir er o‘rtaga chiqdi. U kishi o‘g‘izning donishmandi edi. Aytgani bo‘lardi. G‘oyibdan turli xabarlar so‘ylardi. Haq taola uning ko‘ngliga ilhom bahsh etardi», deb boshlanadi. Garchand dastlabki muqaddimada Qo‘rqtitobi hayoti islom tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda berilsa-da, biroq quyma fikr, maqol o‘rnida kelgan satrlarda Qo‘rqtitobi bilan bog‘liq qatlama juda qadimiy ekanligi sezilib turadi.

«Dada Qo‘rqtitobi»ning har bir hikoyasida Qo‘rqtitobi asosiy obraz sifatida gavdalanganadi: «Dedem Korkut boy boyladi soz soylandi», «Dedem Korkut geldi sadilik caldi boy boyladi soy soylandi? Gazi erenler basina ne geldigini soylandi» va hokazo.

Urug‘boshi, yo‘lboshchi va shuning bilan bir vaqtida epic ijodkor bo‘lgan Qo‘rqtitobi haqidagi mifologik tasavvurlar bir narsani: baxshi va shomon aslida bir sinkritik obrazning turli davrlardagi turlicha ko‘rinishi ekanligini isbotlab turibdi.

Bunday evrilishlar xalqning tarixi, qahramonlik o'tmishi va manaviyatining sarchashmasi bo'lgan epik ongning taraqqiy etishi-da muhim rol uynagan. Eposdagi magik jihatlar asta so'na borib, shomon, tabib, baxshi, yo'lboshchi funksiyalari bir-biridan tobora farqlana borgan: «..Bayot naslidan Qo'rquqt ota degan er dunyoga keldi. Ul kishi O'g'uzning tamom bilguvchisi edi. O'g'uz ichida uning bor karomati zohir bo'l mish edi. Na desa bo'lardi, g'oyibdan turli xabar suylardi». Demak, u millatning yo'lboshchisi, donish-mandi, qahramoni. Lekin u birinchi galda patriarch shomon qiyofasini o'zida mujassam etgan ulkan epik ijodkordir. Uning karomatgo'yligi, g'oyibdan sirlar so'ylashiga ham baxshichiligi sabab. «Dedem Korkut geluben sazilik caldi, bu Oguz-nameyi duzdi kosdi, boyle dedi». Demak: «geluben sazilik caldi» – epik an'anani davom ettirdi, «duzdi kosdi» – o'zining ijrochi emas, ijodkor baxshi ekanligini namoyish etdi, «boyle dedi» – kelgusi avlodga meros qoldirdi.

O'z tadqiqotlarida Qo'rquqt otaning baxshilik sifatlariga alohida e'tibor qaratgan Muharram Ergun shunday yozadi: «Bu ise Dede Korkutun Dede Korkut kitabindeki ozan ve gaipten haber verme si-fatlarina bastanbasa uygundur».

Dostondagi «Dada Qo'rgul kitobi»dagi: «Dada Qo'rgul dilinden ozan aydur» jumllalari, bir tomondan mazkur yodgorlik epik an'ana namunasi ekanini urg'ulaydigan jihat bo'lsa, ikkinchi tomondan eposda Qorqo't otani o'ziga pir va ustoz deb bilgan boshqa baxshilar obrazini ham ko'z oldimizda gavdalantiradi.

Kitobda muqaddima bir necha o'rinda, ya'ni kitob boshida hamda har bir bo'lim-doston boshida keladi. Bu muqaddimalar mohiyatan bir-birini to'ldiradi.

Dostonning dastlabki bo'lim muqaddimasida Boyindirxonning to'yidagi Dirsaxonga bo'lgan, ya'ni farzandi yo'q odamga izzat-ikrom ko'rsatilmaganligi bilan «Alpomish» dostonida Boybo'ri va Baysariga elatning to'yida izzat - ikrom ko'rsatilmaganligi, farzandsiz arning farzand ko'rish uchun chora izlashi va oxir-oqibatda alp farzand ko'rishi bilan bog'liq o'rinalar ayni bir epik voqelikning turlicha bayonidir.

Hali voyaga yetmagan Dirsaxon o‘g‘lining buqa bilan olishib, uni yengishi va Qo‘rqt ota kelib unga ism qo‘yishi ham «Alpomish» dostoni boshlamasidagi Hakimbekning yetti yoshga yetganda Alpinbiydan qolgan kamonni otib, hammani lol qoldirgani va el-ulus yig‘ilib, unga Alpomish deb ism qo‘yishi ham juda o‘xshashdir. Bunday misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, doston muqaddimasi epik asarning syujet qurilmasida o‘ziga xos asos vazifa o‘taydi. Dostonda keladigan barcha keyingi voqealar ana shu boshlama bilan bevosita bog‘langan holda keladi. Aytish mumkinki, muqaddima doston syujetini tashkil etuvchi motivlarning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Muqaddima tinglovchini epik voqelikka olib kiradi. Doston kechayotgan joy, asosiy qahramonlar bilan tanishtiradi. Epik asar voqealarini yaxlit, bir butun holda jamlab turadi. Dostonning mazmun mohiyatini ochib beradi, uning yaratilish davriga qaysidir darajada aniqliklar kiritadi.

Doston muqadimmalarining o‘rganilishi epik asarlarning asrlar osha yashab kelish sabablari, og‘zaki ijro san’atining o‘ziga xosligi, taraqqiyot bosqichlari, ijro holati haqida tasavvurlarni mukammalashtiradi, epik san’atdag‘i mifologik tasavvurlarning poetik tasavvurlarga aylanish jarayoni har bir janrda o‘z talab va mezonlaridan kelib chiqqan holda takomil topishini urg‘ulaydi.

ALPLIK TIZIMI – epik asar, asosan qahramonlik dostonlari o‘zagida turuvchi, shomonlik tasavvurlari bilan bog‘liq tizim. Bu tizimga ko‘ra, qahramon Alp bo‘lib tanilishi uchun bir qancha bosqichlarni bosib o‘tishi zarur. Bular: 1) alpning tanlanishi; 2) alplik «xasta»ligiga duch kelishi; 3) qayta yaralishi (o‘lib-tirilishi). Xuddi Alpomish kabi ko‘pgina doston qahramonlari mana shunday bosqichlarni bosib o‘tib, alp ataladi va epos qahramoniga aylanadi. Alpomish, Go‘ro‘g‘li aynan ana shunday alp qahramonlar hisoblanadi. Dostondagi “alplik kasali”, “alpning qayta yaratilishi” va “alpning tan olinishi” bilan bog‘liq syujet halqalari, epos syujetining ilk qatlamiga taalluqli bo‘lib, bevosita animistik dunyoqarashlar asosida

shakllangan hamda aplik tizimining tayanch bo‘g‘inlaridan hisoblanadi. Doston syujeti va talqinida aplik tizimining mavjudligi, uning qahramonlik eposiga mansubligini aniqlashda tayanch mezonlardan hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy asarda shakl va mazmun tushunchasiga izoh bering.
2. Folklor asarlarida mundarija va mazmun uyg‘unligi deganda nimani tushunasiz?
3. Folklor asarlariga xos struktura haqida so‘zlab bering.
4. Epik asarda muqaddimaga misollar keltiring va tahlil qiling.

1.9. O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini to‘plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko‘lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan o‘zbek folklorshunosligi fanining shakllanishi tarixi XX asrning 20-yillaridan boshlangan.

O‘zbek bilim hay’ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G‘.O. Yunusov xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini to‘plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kabi xalq baxshilarini aniqlagan. G‘.O. Yunusov o‘zbek epos-shunosligi tarixida birinchi bo‘lib 1922-yilning yozida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Hamroqul baxshilardan «Alpomish» dostonidan parchalar yozib olgan. U o‘zining «O‘zbeklarda el tanish ishi» nomli maqolasida («Turkiston», 1922, 18-dekabr) folklorshunoslikda birinchi bo‘lib «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Yusuf va Ahmad» dostonlari haqida fikr yuritgan, «Alpomish» dostonini jahon adabiyotining «Odisseya», «Iliada» kabi ajoyib durdonalariga qiyoslagan. G‘.O. Yunusov

Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo‘lib, ko‘plab qo‘sishq, ertak, afsona, maqol, topishmoq va rivoyatlarni yozib olgan, o‘zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda, boy etnografik materiallarni ham to‘plagan. Olim o‘zbek folklori namunalarini to‘plovchilar uchun metodik qo‘llanma ham yaratgan.

G‘.O. Yunusovning «Alla» to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z» («Maurif va o‘qitg‘uvchi», 1926, №6), «El adabiyotidan namunalar» («Alanga», 1928, №6-7, 3-bet), «Og‘iz adabiyotida sinfiy tuyg‘ular» («Alanga», 1930, №5-6) kabi maqolalari xalq og‘zaki ijodini ilmiy o‘rganish borasidagi ilk tajribalar sifatida folklorshunoslik tarixida muhim o‘rin tutadi.

1925–1928-yillarda G‘ozi Olim Yunusov, Hodi Zarifov, Abdulla Alaviy kabi milliy qadriyatlarimiz fidoyilari xalq baxshilarini, ertakchi va qo‘sishqchilarini aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etib, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Berdi baxshi, Abdulla shoir va boshqa ko‘plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan. Bu sharafli ishga Mahmud Zarify, Iso Ernazар o‘g‘li, Fotima (hozirgacha to‘la ismi-sharifi aniqlanmagan), Tovfiq Mustafayev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim Mirzayev, Husayn Karimiy kabi havaskor folklor to‘plovchilar ham jalb qilin-gan. O‘sha davrda to‘plangan materiallar bugungi kunda o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi durdonalari saqlanayotgan O‘zR FA Til va adabiyot instituti Folklor arxivining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

O‘zbek folklorshunosligining filologik yo‘nalishdagi fan sifatida shakllanishi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqidir. 1905-yil 20-martda Toshkentda tug‘ilgan H.Zarifov 1921-yilda o‘z ona shahridagi maktab internatni tugatgach, 1923–1926-yillarda Boku o‘qituvchilar seminariyasining talabasi bo‘lgan. 1926–27-yillarda sobiq O‘zbekiston xalq Maorif komissariati ilmiy markazining O‘zbeklarni o‘rganish komitetida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. 1928-yilda «Etnografiya, folklor va arxeologiya bo‘yicha ilmiy-tekshirish kabineti»ni tashkil etgan. 1928–1930-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik texni-

kumida o‘qituvchi bo‘lib ishlagach, 1929-yilda O‘zbekiston Markaziy muzeyini tashkil etib, 1931-yilgacha uni boshqargan. 1931–1934-yillarda O‘zbekiston Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish instituti Etnografiya seksiyasining mudiri, 1934–1938-yillarda Toshkent davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, 1940–1956-yillarda Toshkentdag‘i Adabiyot muzeyi-ning tashkilotchisi va direktori, 1943–44-yillarda O‘zRFA Sharq-shunoslik instituti-ning tashkilotchilaridan biri va direktor muovini, 1943–45-yillarda O‘rta Osiyo davlat universiteti o‘qituvchisi bo‘lgan. Shundan keyin O‘zRFA Til va adabiyot instituti direktori (1944–1948), direktor muovini (1955–1962), Folklor bo‘limining mudiri (1934–1972), “O‘zbek ensiklopediyasi” bo‘limining boshlig‘i (1965–1972) vazifalarida ishlagan. Atoqli folklorshunos olim 1967-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, 1973-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti bilan taqdirlangan.

H.T.Zarifov folklor asarlarini yozib olish, to‘plash, nashr etish va o‘rganishga ulkan hissa qo‘sghan alloma, o‘zbek folklorshunosligining asoschisidir. 1928-yilda uning tashhabbusi bilan tashkil etilgan «Etnografiya folklor va arxeologiya bo‘yicha ilmiy-tekshirish kabinet» negizida keyinchalik Til va adabiyot institutining Folklor bo‘limi yuzaga kelgan. H.T.Zarifov ana shu bo‘limning rahbari sifatida butun umrini o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini to‘plash va ilmiy o‘rganishga bag‘ishlagan. O‘zining folklorshunos sifatida ilm faoliyatini to‘plovchilikdan boshlagan H.T.Zarifov Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan va Islom shoirdek zabardast so‘z san’atkorlarini aniqlab, ularning ijodiy merosini to‘plagan. Bu baxshilardan yozib olingan “Alpomish”, “Yodgor”, “Jahongir”, “Rustam”, “Ravshan”, “Ochildov”, “Hasan batrak”, “Yusuf va Ahmad”, “Avazning uylanishi”, “Mardikor”, “Shayboniyxon” kabi dostonlar o‘zbek eposining eng ajoyib namunalari sirasiga kiradi.

H.T.Zarifov ishtirok etgan yoki uning o‘zi tomonidan uyushtirilgan har bir ekspeditsiya fanga yangi materiallar va tahliliy xulosalarini taqdim etgan. Jumladan, H.T.Zarifov 1929-yilda G‘.O.Yunusov rah-

barligidagi folklor ekspeditsiyasining a'zosi sifatida Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida bo'lib, Abdulla Nurali o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li kabi chechan baxshilar ijodiyotini o'rgangan. 1930-yilgi Xorazm folklor-etnografik ekspeditsiyasi chog'ida esa Bola baxshi, Qurbon sozchi, Bibi shoira, Ahmad Matnazar o'g'li, Xo'jayor baxshi Voids o'g'li kabi xalq shoirlaridan "Asilxon", "Xirmondali", "Qirq ming" dostonlarini yozib olgan. H.T.Zarifov 1935-yili Farg'ona vodiysi dostonchilik maktabining Bo'ri Sodiq o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Umrzoq baxshi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Hasanboy Rasul o'g'li kabi ijrochilarini aniqlaganligi ham folklorshunoslik uchun muhim yangilik bo'lgan. Bu baxshilardan yozib olingan doston va termalar Farg'ona vodiysida dostonchilik an'analari allaqachon yo'qolib ketgan degan da'volarning asossiz ekanligini isbotlagan.

Atoqli olim H.Zarifov o'zining 20-yillarda o'tkazgan ekspeditsiyalari chog'ida Jizzax viloyatidan «yo ramazon» qo'shiqlarining mukammal namunasini yozib olishga, shuningdek, xalqimizning irim-sirimlari va e'tiqodlariga oid boy faktik materiallar to'plashga muvaffaq bo'lgan.

H.T.Zarifovning yirik fan tashkilotchisi sifatidagi faoliyati havaskor folklor to'plovchilar ishini markazlashtira olganligi va bu ezgu ishga ko'pgina ziyolilarni jalb eta bilganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning topshirig'i va bevosita rahbarligi ostida havaskor folklor to'plovchi, xalq ijodiyotining haqiqiy fidoyilari biri bo'lgan Iso Ernazar o'g'li 1927-yilda Jizzax va Samarcand viloyatlaridagi qishloqlarni kezib chiqib, o'zbeklarning yaylovga ko'chish, ot sotib olish, qamchi saqlash, cho'pon tayog'i, pichoq berish, nikoh to'yi, bolaga ism qo'yish, chechakni davolash bilan bog'liq materiallarni, dafn mafrosimi folklori, irim-sirim va taqiqqlarni to'plagan. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo'lib qoqimchi, azayimxon va baxshilarning davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni - qaytarma, qoqim, badik namunalarini yozib olgan.

H.T.Zarifov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib XX asrning 20-yillaridayoq xalq ijodi asarlarini to'plash va nashr

etish uchun maxsus transkriptsiyani ishlab chiqqan. Bu ilmiy prinsip chuqur nazariy bilim va keng ko‘lamli matniy tayyorgarlikka asoslanganligi uchun ham hozirga qadar nafaqat o‘zbek, balki qardosh turkiy xalqlar folklorshunosligida ham samarali qo‘llanilmoqda.

H.Zarifov “Shayboniyxon”, “Ravshan”, “Malika ayyor”, “Cham-bil qamali”, “Kuntug‘mish”, “Oysuluv”, “Yodgor”, “Kunduz bilan Yulduz”, “Ochildov”, “Xurshidoy”, Mammatkarim polvon”, “Jizz-zax qo‘zg‘oloni”, “Hasan batrak”, “Alpomish”, “Yakka Ahmad”, “Xoldorxon” kabi dostonlarni nashrga tayyorlagan. U “O‘zbek folkloridan namunalar” (1939), “O‘zbek folklori” (1939), “Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi” (1947), “O‘zbek xalq shoirlarining ijodi” (1958), “O‘zbek she’riyati antologiyasi” (1-tom, 1961) majmularining ham noshiridir.

H.T.Zarifov o‘zbek folklorining o‘ziga xos xususiyatlari, folklorshunoslik tarixi, xalq shoirlarining ijodi va ijrochilik mahorati, repertuari, epik an’ana, dostonlar tasnifi, dostonchilik san’ati, Qo‘rg‘on, Bulung‘ur, Shahrisabz, Xorazm, Juma kabi dostonchilik mакtablarining o‘ziga xos xususiyatlari kabi eposshunoslikning nazariy masalalariga doir asarlar yaratgan. U folklorshunoslik tarixida birinchi bo‘lib xalq og‘zaki ijodiyoti fanidan dastur va majmular tuzgan, folklor asarlarini to‘plash va yozib olish metodikasi haqida ilk qo‘llanma yaratgan.

O‘zbek folklorshunosligi maktabining asosiy ilmiy yo‘nalishi xalq ijodiyoti yuzasidan fundamental ilmiy tadqiqotlar yaratishdan iborat bo‘lib, H.Zarifovning ilk tadqiqotlari bilan o‘zbek folklorini ilmiy o‘rganish ishiga asos solingan. Ayniqsa, uning yirik epos-shunos V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yaratilib, rus tilida nashr ettirilgan «O‘zbek xalq qahramonlik eposi» monografiyasi, shuningdek, o‘zbek xalq dostonlarining epik tabiatini va tarixiy asoslarini tekshirishga oid qator maqolalari, xalq eposini fundamental tadqiq etishning mumtoz namunasi bo‘lishi bilan birga, o‘zbek folklorshunosligi maktabining ilmiy-nazariy asosi ham hisoblanadi.

O‘zbek marosim folklori janrlari etnograf M.Gavrilovning kichik bir risolasini hisobga olmaganda, o‘tgan asrning 30-yillariga qa-

dar deyarli tadqiq etilmay kelinardi. Ana shu badiiy qadriyatlarning to‘planishi va o‘rganilishi folklorshunos olima Muzayyana Alaviya nomi bilan bog‘liqdir.

1909-yil 26-mayda Toshkent viloyatining Piskent tumanidagi Mo‘minobod mahallasida tug‘ilgan Muzayyana Akmalxonovna Alaviya folklorshunoslikka dastlab to‘plovchi sifatida kirib kelgan. U Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to‘plagan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir, Boymurod Boymat o‘g‘li, Haydar Boychayev, Abdulla shoir Nurali o‘g‘li, Umr shoir Safarov, Qo‘zi va To‘qli Ro‘ziyev kabi xalq baxshilaridan o‘nlab termalar va dostonlarni yozib olgan. Olima ning ko‘p yillik izlanishlari natijasida “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1955), “Yangi qo‘shiqlari” (1959), “O‘zbek folkloridan namunalar” (1955), ”Oq olma qizil olma” (1979), “Xalq qo‘shiqlari” (1983) kabi to‘plamlar yuzaga kelgan. U Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining “Intizor” dostonini nashrga tayyorlagan. M.Alaviya o‘zbek xalq marosim qo‘shiqlarining mavzu qamrovi, g‘oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari, ijtimoiy mohiyati, qo‘shiqchilarning ijrochilik san’ati, qo‘shiqlarning tarixiy asoslariga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar muallifidir.

M.Alaviya O‘zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyalari ishtirokchisi sifatida oilaviy-maishiy marosimlar bilan aloqador o‘lan, yor-yor, kelin salom, lapar kabi janrlarga oid matnlarni to‘plagan. 1969-yilda Sayram, Turkiston, Iqon, Qorabuloq bo‘ylab o‘tkazilgan folklor ekspeditsiyasi chog‘ida shamol to‘xtatish marosimi bilan bog‘liq «Choymomo» qo‘shig‘ining ko‘plab variantlarini aniqlagan.

Marosim folklori namunalarini izchil to‘plab, tadqiq etgan M.Alaviya 1957-yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Do‘sbergan qishlog‘ida yashovchi Qirmiz momo hamda Ashirroy Ro‘ziyevadan boqimchilik va baxshichilik amaliyotining to‘liq tavsifini yozib olgan. Olima baxshi chorlovi, xudo va avliyolarni yodga olishi, pir va parilarni chaqirishi, pirlardan yo‘l so‘rashi, mo-

molarni chorlashi, qirq chilton, pari, devlar, lashkarga o‘z boshidan o‘tganini aytib berishi va lashkarni yo‘lga solishi, shuningdek, gulafshonni davolash bilan bog‘liq aytimini yozib olgan bo‘lib, bu materiallar o‘zbek shomon folklorini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. M.Alaviyaning o‘zbek marosim folklorini ilmiy tadqiq etish borasidagi izlanishlari 1974-yilda chop ettirilgan «O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari» nomli monografiyasida umumlashtirildi.

O‘z ilmiy faoliyatini 1932 yilda Toshkentdagি Madaniy qurilish institutida boshlagan Mansur Afzalov o‘zbek xalq nasri asarlarini to‘plash, nashr etish va ilmiy o‘rganishga katta hissa qo‘shtigan. O‘zbek xalq ertaklari, doston va afsonalarni to‘plab, tadqiq etgan M.Afzalov Islom shoirning “Orzigel” (1940, 1956, 1961), “Gulixiromon” (S.Asqarov bilan hamkorlikda, 1965), Fozil shoirning “Shirin bilan Shakar” (1955), “Murodxon” (X.Rasul bilan hamkorlikda, 1956), “Balogardon” (X.Rasul bilan hamkorlikda, 1957), “Farhod va Shirin” (1966), “Zulfizar” (1969), Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Xushkeldi” (1962) dostonlarini nashrga tayyorlagan. U Islom shoir “Tanlangan asarlar”i (1953), “O‘zbek folkloridan o‘quv materiallari” (1950), “O‘zbek dostonlari” (1956-58), “O‘zbek she’riyati antologiyasi” (1948), “O‘zbek xalq ertaklari” (1951), “O‘zbek xalq ertaklari» (1960-1962), “O‘zbek xalq maqollari” (1958-1960) majmualarini ham chop ettirgan.

O‘zbek xalq nasrining janrlar tarkibi, xalq baxshilarining hayoti va ijodi, folklor va ijtimoiy hayat, folklorshunoslik tarixi masalalari bilan shug‘ullangan olimning “O‘zbek xalq ertaklari haqida” (1964) asari o‘zbek ertaklari haqidagi birinchi yirik tadqiqotdir. Bu kitobda o‘zbek xalq ertaklari tasnif qilingan, ertaklarning o‘rganilish tarixi, obrazlar tizimi, motivlarning tarixiy asoslari, ertaklarning yuzaga kelish tarixi va badiiy xususiyatlari, ertak ijrochiligi tadqiq etilgan.

O‘zbek folklorini to‘plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo‘shtigan olima Z.Husainova 1951-yildan buyon O‘zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi safida respublikamizning barcha viloyatlari, Janubiy Tojikiston va O‘shda bo‘lib, xalq

og‘zaki ijodiyotining qo‘sishq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to‘plagan. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lidan “Malika ayyor”, “Xolbeka” (1946), Umr Safar o‘g‘lidan “Zandigor” (1949), Abdulla Nurali o‘g‘lidan “Alpomish”, Toshmurod baxshi To‘rabovdan “Mayda savdogar”, Hamro Ergashevdan “Alpomish”, Niyozi Alimqul o‘g‘lidan “Yusuf va Ahmad”, Beknazар Rahmatovdan “Qoraqum” dostonlarini yozib olgan.

Olima “Oshiq G‘arib va Shohsanam” (1958), “Gulnor pari” (1965), “Gulshanbog” (1966), “Avazxon” (1967), “Xolbeka” (1968), “Alibek va Bolibek” (1973), “To‘lg‘anoy” (1974), “Chambil qamali” (1978), “Avazxonning o‘limga hukm etilishi” (1976), “Mashriq” (1988) dostonlarini nashrga tayyorlagan, shuningdek, professor T.Mirzayev bilan hamkorlikda Nurali Nurmat o‘g‘li va Abdug‘afur Shukurov kabi ertakchilardan yozib olingen ertak, naql, latifalar hamda Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarni chop ettirgan.

Z.Husainova xalq shoirlarining hayoti va ijodiyoti, topishmoqlarning tarixiy asoslari, janr xususiyatlari, tasnifi va badiiyatiga doir ilmiy asarlar yaratgan. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir va Po‘lkan shoir kabi atoqli baxshilarning bibliografiyasi hamda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutidagi H.Zarifov nomli O‘zbek folklori arxivi materiallarining manbalar ko‘rsatkichini tuzgan. U Ergash Jumanbulbul o‘g‘li adabiy merosini nashr etish va o‘rganishdagi xizmatlari uchun Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Xalq teatrini o‘rganishni an’anaviy og‘zaki dramalarni yozib olishdan boshlagan M.Qodirov 1958-yildan boshlab Hamza nomidagi San‘atshunoslik institutining folklor ekspeditsiyasi tarkibida Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona, Namangan, Andijon, O‘sh, Xorazm viloyatlarida bo‘lib, 300 ga yaqin xalq teatri ijrochilarining ijodiy faoliyatini o‘rgangan, ellikdan oshiқ professional va havaskor masxarabozlar bilan ijodiy suhabatlar o‘tkazgan, yuzga

yaqin xalq dramasi, kulgi-hikoya va qiziqchilik namunalarini yozib olgan, ko'plab pantomima, xalq raqlari va tomosha san'atiga doir materiallar to'plagan. M.Qodirov tomonidan yig'ilgan materiallar o'zbek xalq tomosha san'atini o'rganishda yangi yo'naliishlarni ochib berdi. Chunki ilgari «o'zbek xalq teatri» deganda, faqat Farg'ona vodiysi qiziqchilik san'ati nazarda tutilardi, xolos. M.Qodirov esa respublikamizda o'zbek xalq teatrining Buxoro, Qo'qon va Xorazm maktabi mavjudligi hamda har bir an'anuning umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlagan. U o'zbek xalq og'zaki dramasining folklor asari sifatidagi o'ziga xos badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, xalq san'atkorlarining ijrochilik mahoratini chuqr tadqiq etib, teatr folklorshunosligi yo'naliishiga asos solgan.

M.Qodirov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib xotin-qizlar folklor teatri mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berган. У 1958-yilda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi G'o's qishlog'ida yashovchi ayollardan o'ttizta og'zaki drama va kulgi-hikoyalarni yozib oldi va ayollar xalq teatrining tarixiy asoslari, asosiy yo'naliishlari, ustoz-shogird munosabatlari, ijro usullari, og'zaki dramalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rgangan. O'zbek xalq san'atining muqallid, tanqid, kulgi-hikoya, masxarabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, ot o'yin, askiya, qarsak o'yin, muallaqchilik-dorbozlik, nayrangbozlik kabi qadimiy turlariga doir boy materiallarni to'plab, tadqiq etgan. O'zbek xalq teatrini jonli aktyor teatri va qo'g'irchoq teatriga bo'lib tasniflagan M.Qodirov "Laylak ilonni ovлади", "Yumronqoziq", "Kichkinajon", "Kadi bad-baxt", "Buva qovoq", "Tevarak o'yin", "Ajdaho o'yin", "Mavrigi" kabi xalq o'yinlari hamda Yusufjon qiziq, Usta Olim, Mulla To'ychi, Toshkanboy dorboz, Karim chavandoz, Aka Buxor, Komil qori singari xalq san'atkorlarining ijodiy merosini o'rgangan.

O'zbek xalqining musiqa merosini to'plash bilan izchil shug'ullangan Y.Rajabiy 1955–1959 yillarda o'zi to'plagan materiallar asosida mingdan oshiq xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini o'z ichiga olgan "O'zbek xalq musiqasi" majmuasining besh

jildini nashr ettirgan. U Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro "Shashmaqom"i va uning tarkibiy qismlarini to'plab, mukammal-lashtirib nashrga tayyorlagan hamda 1966–1975 yillar davomida olti jiddlik kitob holida chop ettirgan.

Folklorshunos olim R.Muhammadiyevning tashabbusi va ishtirokida askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va om-malashtirish maqsadida maxsus folklor ekspeditsiyalari o'tkazilgan. 1961 yilda Farg'ona vodiysida ish olib borgan birinchi ekspeditsiyada askiya janrining tarqalish doirasi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar to'plangan, askiya payrovlarini yozib olingen. 1963-yilda o'tkazilgan ikkinchi ekspeditsiya chog'ida mashhur askiyaboz-larning repertuari tadqiq etilgan, ustoz so'z san'atkorlari haqidagi xotiralar, rivoyatlar, latifalar va o'zbek askiyachilarining ijodiy me-rosi to'plangan. 1965-yilning yozida esa Farg'ona vodiysining shi-moliy tumanlarida, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi yosh aski-yachilar ijodiyoti o'rganilgan.

O'zbek xalq dostonchiligidagi badiiy mahorat masalalarini chuqur tadqiq etgan M.Saidov "Nurali", "Zulfizar", "Gulnor pari", "Avazxon", "Misqol pari", "Tohir va Zuhra", "Sumanbar", "Zevarxon", "Varqa bilan Gulshoh", "Vomiq va Uzro", "Balxuvon", "Gulshan-bog" dostonlarini chop ettirgan.

O'zbek folklorini to'plash, nashr ettirish va o'rganishga katta hissa qo'shgan J.Qobulniyozov Xorazm xalq dostonlari va qo'shiqlarini yozib olib, xalfalar ijodini o'rgangan. Bola baxshi Abdullayevdan "Bozir-gon", "Avazxon", "Oshiq Mahmud", Mahmud Yusupovdan "Oshiq Mahmud", "Sayyodxon va Hamro" dostonlarini yozib olib, 1966–1970 yillarda chop ettirgan. 1966-yilda esa o'zi to'plagan xalq qo'shiqlari aso-sida "Xorazm xalq qo'shiqlari" to'plamini nashr ettirgan.

O'zbek folklori asarlarini to'plash va sistemalashtirish ishiga katta hissa qo'shgan M.Murodov 1959-yildan to 1990-yillarning oxiriga-chaga respublikamizning turli viloyatlarida folklor ekspeditsiyalari-da bo'lib, Yusuf O'tagan o'g'li, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Husan baxshi Rajab o'g'li, Haydar Boycha o'g'li, Usmon Madumar o'g'li,

Eshqobil Qo'shoq o'g'li, Hazratqul Xudoyberdi o'g'li, Qodir Rahim o'g'li, Xushvaqt Mardonqul o'g'li kabi baxshilar ning repertuarini o'rgangan, yuzlab ertak, rivoyat, afsona, maqol va topishmoqlarni yozib olgan. U "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Xilaman", "Bahrom va Gulandom", "Zavarxon", "Gulruh pari", "Qorako'z oyim", "Jorxun maston", "Nurali" kabi dostonlarni nashrga tayyorlagan. O'zi yozib olgan materiallar asosida "Allomalar ibrati" (1983) rivoyatlar to'plami va "O'zbek xalq fantastikasi" silsilasidagi "Oymoma ajdaho" (1983), "Qora dev" (1984), "Yonar daryo" (1985), "Ilon pari" (1986), "Samo tulpori" (1987), "Guliqahqah" (1988), "Oltin olma" (1989) kabi ertak majmularini chop ettirgan.

XX asrning 40-80-yillarida H.Zarifov, A.Alaviya, M.Afzalov, M.Toshpo'latova, Z.Husainova, F.Karomatov, H.Razzoqov, T.G'oziboyev, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, M.Saidov, M.Qodirov, Y.O.Jo'rayev, T.Mirzayev, M.Murodov, T.Ochilov, G'.Jahongirov, R.Muhammadiyev, T.Ashurov, S.Asqarov, F.Sultonova, A.Qahhorov, S.Sodiqov, K.Imomov, B.Sarimsoqov, R.Abdullayev, O.Madayev, T.Sobitova, M.Qalandarova, S.Ro'zimboyev, O.Safarov, A.Musaqulov, I.Yormatov, U.Jumanazarov, A.Tursunqulov, I.Bekmurodov, K.Ochilov, A.Ergashev, M.Jo'rayev, Sh.Turdimov o'zbek folklor shunoslari keng ko'lamlili folklor to'plash ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar.

XX asrning 60-70-yillarida dostonchilik maktablari, baxshishoirlar epik repertuari, xalq dostonlarining variantlari va badiyati (H.Zarifov, M.Afzalov, T.Mirzayev, A.Qahhorov, T.Ochilov, M.Saidov, M.Murodov, O.Madayev, O.Sobirov, T.Ashurov), xalq qo'shiqlari (M.Alaviya), o'zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti (J.Qobulniyozov, O.Sobirov, S.Asqarov), askiya, xalq dramasi va qiziqchilik san'ati (R.Muhammadiyev, H.Razzoqov, M.Qodirov), musiqa folklori (F.Karomatov), o'zbek xalq ertaklari (M.Afzalov, K.Imomov, G'.Jalolov), topishmoq (Z.Husainova), bolalar folklori (G'.Jahongirov), latifa (F.Yo'ldosheva)ga bag'ishlangan yirik monografik tadqiqotlar yaratilgan.

O‘zining ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini taniqli folklorshunos olim M.Afzalov rahbarligida boshlagan Komiljon Imomov dastlab o‘zbek satirik va humoristik ertaklarining janr xususiyatlari, badiyati hamda obrazlar tarkibini o‘rgangan. Uning o‘zbek xalq ertaklarining to‘planishi, nashr etilishi va o‘rganilishi tarixi, xususan, A.A.Kushakevich, A.N.Samoylovich, A.A.Divayev, N.Ostromovlar faoliyatining o‘zbek ertakshunosligi tarixida tutgan o‘rni, xalq og‘zaki badiiy ijodida satira va humor, satirik ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlari, ertaklardagi an’anaviy sinov motivining genezisi va epik vazifalari, o‘zbek xalq ertaklarida komik va hajviy qahramon masalasi, ertaklardagi kal, Aldar ko‘sса, Afandi obrazlarining o‘ziga xos tabiatи, genezisi va xarakteri, o‘zbek satirik ertaklarida konflikt va ijtimoiy motivlar masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilk maqolalarida folklor asarlarining g‘oyaviy-badiiy xossalari va estetik tabiatи o‘ziga xos tarzda tadqiq etilgan.

K.Imomovning 1974-yilda bosilib chiqqan «O‘zbek satirik ertaklari» nomli ilk monografiyasida xalq ertaklarining alohida turi hisoblangan satirik va humoristik ertaklar tadqiq etilgan. Olimning «O‘zbek xalq prozasi» nomli monografik tadqiqoti folklorimizdagи og‘zaki nasriy asarlarning janrlar tarkibini keng ko‘lamda tadqiq etishga bag‘ishlangan. Unda ertak janri va uning poetikasi, o‘zbek ertaklarining ichki turlariga xos xarakterli belgilari, ayrim epik syujetlar va an’anaviy motivlarning genezisi ochib berilganligi e’tiborlidir. Afsona, rivoyat va matal (naql) kabi janrlar epik turga mansub alohida janrlar silsilasi sifatida o‘rganilib, har bir janrning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari yoritilgan.

Olim o‘zbek xalq ertaklaridagi an’anaviy motivlarning tarixiy-genetik tipologiyasini tadqiq etib, o‘zbek eposidagi g‘ayritabiyy tug‘ilish, sinov, shart, kurash, tush ko‘rish, qahramonning o‘lib-tirilishi, qahramonni olovda kuydirish motivlarining kelib chiqishi qadimgi mifologik tasavvurlar hamda e’tiqodiy qarashlarga bog‘liqligi aniqlangan. O‘zbek folklorining keng tarqalgan mifologik personajlaridan biri yalmog‘iz obrazining genetik asoslari esa matriarxat

davri mifologiyasi bilan bevosita bog‘liqligini aniqlagan K.Imomovning tadqiqotlari qadimiy marosimlar epik motivlarni shakllantiruvchi ritual asos vazifasini bajarganligini qiyosiy-tarixiy jihatdan tasdiqladi.

Afsona va rivoyat janrlarining o‘ziga xos hamda mushtarak jihatlari, afsonalar tasnifi, mifologik, tarixiy va toponimik afsonalarda hayotiy voqelik haqidagi axborotning epik talqin qilinishi, mifologik afsonalarning obrazlar talqini va qadimgi tasavvurlar bilan bog‘liqligi kabi masalalar K.Imomov tadqiqotlarida keng yoritilgan.

80-yillardan boshlab o‘zbek marosim folklori B.Sarimsoqov tomonidan o‘rganila boshlangan. Olim o‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, tasnifi, genezisi va tarixiy taraqqiyoti, o‘zbek oilaviy-maishiy marosimlar folklori, mavsumiy marosimlar folklori, so‘z magiyasiga aloqador badik, kinna, olqish va qarg‘ish kabi janrlarni tadqiq etган.

Marosim folklorni tipologik aspektida o‘rgangan B.Sarimsoqov o‘zining bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarini «O‘zbek marosim folklori» (1986) nomli monografiyasida umumlashtirgan. Mazkur asarning ilmiy qimmati shundan iboratki, unda «marosim» va «marosim folklori» tushunchalarining mohiyati oydinlashtirilgan, o‘zbek marosim folklorining janrlar tarkibi bir necha mezonlar asosida izchil tasniflangan. «Yas-yusun», «Oblo baraka», «Shox moylar», «Lola sayli», «Loy tutish», shamol chaqirish va yomg‘ir yog‘dirish bilan bog‘liq marosimi folklor namunalari, so‘z magiyasiga asoslangan badik va kinna janrlari tadqiq etilgan.

B.Sarimsoqovning «Dostonlarda psixologik tasvirning xarakteri haqida ba’zi mulohazalar» (1976), «Dostonlar yuzasidan tekstologik qaydlar» (1976), «Orzigel» dostoni yuzasidan bir necha qaydlar» (1978), «Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti» (1981) kabi maqolalarida xalq eposining o‘ziga xos tabiatni, tasnifi va xalq dostonlarining kelib chiqishi, tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari o‘ziga xos tarzda tahlil qilingan.

Xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti bilan yozma adabiy an‘ananing o‘zaro munosabatlari, ya’ni so‘z san’atining bu ikki ko‘rinishi ora-

sidagi ko‘p qirrali ijodiy ta’sir va badiiy-estetik aloqalarning qadimiy asoslari chuqur tarixiy zaminga ega. Shuning uchun ham B.Sarimsoqov yozma adabiyot bilan xalq og‘zaki poetik ijodi orasidagi badiiy-estetik aloqadorlikni tadqiq etishga alohida e’tibor qaratgan. Uning «Folklor va yozma adabiyot munosabatiga doir izlanishlar» (1975), «Folklorizmlar tipologiyasiga doir» (1980), «О типологии фольклоризмов» (1984), «Folklor va adabiyot munosabatlaridagi aks jarayonning hozirgi ahvoli» (1988) kabi maqolalarida yozma adabiyotning folklor bilan tarixiy-genetik aloqadorligi masalasi tadqiq etilgan. B.Sarimsoqov o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi bo‘lib folklorizmlarni xarakteri va poetik tabiatiga ko‘ra «oddiy folklorizm» hamda «murakkab folklorizm», tipologik jihatdan esa folklorizmlar analitik, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlarga kabi turlarga ajratgan.

XX asrning 70-80-yillarida Qashqadaryo (A.Qahhorov, K.Ochilov, Ch.Hamro, A.Ergashev), Buxoro (O.Safarov, Y.Nurmurodov, D.O‘rayeva), Xorazm (S.Ro‘zimboyev, H.Abdullayev, N.Saburov), Namangan (T.G‘oziboyev), Andijon (H.Razzoqov), Surxondaryo (Q.Mamashukurov), Qo‘qon (G‘.Akramov, I.Bekmurodov)da o‘z ilmiy faoliyatlarini olib borgan folklorshunoslар o‘zbek xalq dostonlarining poetikasi, variantlari va lokal xususiyatlari, dostonchilik an’analaring saqlanishi va yetakchi baxshilarning badiiy mahorati, dostonlarda turkumlilik, bolalar folklorining o‘ziga xos tabiatini va janrlar tarkibi, mehnat qo‘shiqlarining badiiyati, mifologiya va boshqa mavzularda yirik tadqiqotlarni yaratdilar.

Bu davrda uch jildlik «O‘zbek folklori ocherklari»ning ikki tomi nashr etilganligi, epik repertuarning o‘ziga xosligi, xalq baxshilarining badiiy mahorati, xalq dostonchiligining hududiy-lokal tabiatini (T.Mirzayev, M.Murodov, M.Qo‘shmoqov, S.Ro‘zimboyev, H.Abdullayev, O.Madayev), xalq dostonchiligidagi turkumlilik (M.Mirzayeva, M.Obidova, Q.Mamashukurov), dostonlar poetikasi (M.Saidov, S.Yo‘ldosheva, T.Zufarov, T.Ashurov), mifologiya va uning o‘zbek folklori epik janrlarida tutgan o‘rnini (G‘.Akramov,

B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev), o'zbek marosim folklorining janrlar silsilasi, genetik asoslari va poetikasi (M.Alaviya, B.Sarimsoqov), ertak badiiyati va epik syujetlar tipologiyasi (G'.Jalolov, X.Egamov, K.Imomov, M.Jo'rayev), o'zbek bolalar folklori (G'.Jahongirov, O.Safarov), yozma adabiyot va folklor munosabati (O.Sobirov, G'.Mo'minov, B.Sarimsoqov, I.Yormatov), o'zbek folklori va tarixiy voqelik (M.Boboyev, U.Jumanazarov, S.Umarov)ning tad-qiq etilganligi, terma (A.Musaqulov, A.Tursunqulov), topishmoq (Z.Husainova), lirik qo'shiqlar (Sh.Turdimov), musiqa folklori (F.Karomatov, R.Abdullayev), o'zbek xalq og'zaki dramasi (M.Qodirov, R.Muhammadiyev) chuqur o'rganilganligi o'zbek folklorshunosligini yangi bosqichga ko'tardi.

XX asrning 80-yillariga kelib, O'zR FA Til va adabiyot instituti ning Folklor bo'limida markazlashgan o'zbek folklorshunosligi maktabi xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganish borasida eng yetakchi ilmiy maktablardan biri darajasiga ko'tarildi.

Milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan folklor an'analarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Natijada, dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan xalqimiz yaratgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analar bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylantirildi.

Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergen yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks eta boshladi. Zero, folklor san'ati an'analar "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy

tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs-komil insonni tarbiyalash”¹³dek ulug’vor maqsadlarga xizmat qiladi.

Bugungi tarixiy-folkloriy jarayon o‘ziga xos taraqqiyot tamo-yillariga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin boshlangan keng ko‘lamdagи ma’naviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda, ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folklor yodgorliklarining jahonshumul ahamiyati xususida so‘z yuritish, xalq ijodiyotining umutilish arafasiga kelib qolgan ko‘plab janrlarini qayta tiklash, ijrochilik an’analarni rivojlantirishning misli ko‘rilmagan imkoniyatlari yuzaga keldi. Natijada joylarda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalar soni ko‘paydi, nafaqat, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatida, balki baxshichilik maktablarining jonli an’analari yo‘qolib ketgan deb hisoblangan Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ham baxshi-shoirlar yetishib chiqa boshladи. «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi tantanalari keng nishonlanishi va baxshi-shoirlar hamda oqinlarning ko‘rik-tanlovlari an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotganligi ham ko‘plab yangi ijrochilarni kashf etish bilangina cheklanib qolmasdan, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Orzigul”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” singari an’anaviy dostonlarning yangi variantlari yuzaga kelishiga yo‘l ochdi. Baxshi-shoirlar hur diyorimizda istiqlol yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarni tarannum etuvchi doston va termalarni yaratdilar. O‘zbek marosim folklori, askiyachilik, qiziqchilik, tomosha san’ati, xalq hunarmandchiligining qadimiy an’analari tiklandi.

Milliy istiqlol o‘zbek folklori asarlarini barcha hududlar bo‘yicha izchil to‘plash va sistemalashtirish borasidagi ishlarni jadallashtirib yubordi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin folklor asarlarini nashr etish borasidagi ishlar ham sifat, ham miqdor, ham qamrov jihatidan o‘sdi. Ko‘pgina dostonlar, xalq kitoblari ilk bor

¹³ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фарони хаёт - пировард мақсадимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 25-бет.

nashr ettirildi. «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarini 1999 -yilda alohida kitoblar holida to‘la nashr ettirdi. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi marotaba «Alpomish» dostoni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining matni, rus tiliga qilingan ilmiy-adabiy tarjimasi bilan birgalikda akademik nashrga tayyorlab, chop ettirdi.

Folklor bo‘limi xodimlarining xorijiy mamlakatlardagi ilmiy markazlar va oliv o‘quv yurtlari bilan ilmiy aloqalari ham yaxshi samsara bermoqda. Ayniqsa, Germaniyadagi Bonn universiteti profesori Karl Rayxelning Folklor bo‘limi bilan ijodiy aloqalari samarasi o‘laroq bir qator o‘zbek xalq ertaklari va «Alpomish» dostonining nemis tiliga qilingan tarjimasi nashrdan chiqdi. Alisher Navoiy haqidagi o‘zbek xalq tarixiy rivoyatlarining M.Jo‘rayev nashrga tayyorlagan majmuasi 1996-yilda Bokuda ozarbayjon tilida chop etildi. Folklor bo‘limida o‘z ilmiy malakasini oshirgan Filiz Qirbosh o‘g‘li (Turkiya) «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostonini, Selami Fidokor (Turkiya) esa «Rustamxon» va «Erali va Sherali» dostonlarini turk tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. Shuningdek, Turkiyada ham «Alpomish» dostoni bosilib chiqdi. Yapon olimi Xerokining «Turkiy xalqlar qahramonlik eposi» kitobi (2002) Tokioda, Karl Rayxelning «Turkiy xalqlar eposi» kitobi (2002) Anqarada bosilib chiqdi. 2007-yilda professor T.Mirzayev hamda J.Eshonqul tomonidan nashrga tayyorlangan «Oychinor», «Erali va Sherali» dostonlari Turkiyada chop ettirildi.

O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va uning eng mukammal majmuasini yaratish borasidagi ishlar uzlucksiz davom ettirildi. Natijada 2005–2006-yillarda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulovlar tomonidan nashrga tayyorlangan «O‘zbek xalq maqollarisi»ning kirill va lotin alifbosidagi nashri «Sharq» nashriyot-matbaa konsernidan bosmadan chiqarildi.

1999-yilda Termiz shahrida «Alpomish» dostoni va uning jahon xalqlari epik ijodiyotida tutgan o‘rnini mavzuidagi xalqaro ilmiy an-

juman o'tkazildi. Ilmiy konferensiya materiallari o'zbek, rus va ing-liz tillarida bosmadan chiqarildi. O'sha yili «Alpomish» dostoniga bag'ishlangan eng yaxshi tadqiqotlarning natijalari «Fan» nashri-yotida chop ettirilgan «Alpomish» – o'zbek xalq qahramonlik eposi» nomli ilmiy to'plamda o'z aksini topdi.

O'zbek folklorshunosligi maktabining kelgusidagi rejalar: o'zbek folklori materiallarini izchil toplash maqsadida atoqli alloma H.Zarifov asos solgan ilmiy ekspeditsiya ishini yanada kengroq qam-rovda o'tkazish va uning muntazamligini ta'minlash; H.Zarifov nomli O'zbek folklori arxivi materiallarini to'la ilmiy tavsif qilish va kataloglashtirishni amalga oshirish; folklorshunos olimlar tomonidan qariyb 80 yil mobaynida to'plangan arxiv materiallari va kelgusidagi ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib olinadigan folklor namunalari asosida «O'zbek folklori yodgorliklari» 100 jiddlik akademik nashrini tayyorlash; folklor asarlarining ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop nashrlarini tayyorlab, lotin yozuvida chop ettirish; o'zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasini dunyo folkloristikasining ustuvor ilmiy metodlari asosida tadqiq etish; oliy o'quv yurtlari talabalari uchun xalq og'zaki badiiy ijodiyoti bo'yicha yangi darslik va qo'llanmalar yaratishdan iboratdir.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek folklori va folklorshunosligi atamalarining farqini tu-shuntirib bering.
2. O'zbek folklorshunosligiga qachon va kim asos solgan?
3. Hodи Zarifovning ilmiy merosi haqida so'zlab bering.
4. Mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi haqidagi qarashla-riningiz.
5. Bugungi kun o'zbek folklorshunosligi haqida so'zlab bering.

2-BOB

O'ZBEK XALQ FOLKLORSHUNOSLIGI JANRLARINI O'RGANILISH MASALALARI

2.1. EPOS VA UNING ILMIY O'RGANILISHI

Epos – yunoncha “epos” – rivoyat, hikoya, qo'shiq so'zidan iborat bo'lib, badiiy adabiyotda voqeа, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma'nosini anglatadi. Taniqli folklorshunos olimlardan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o'zbek xalq og'zaki ijodidagi dostonlarni «Qahramonlik eposi» deb ataganlar. 1947-yilda Moskvada e'lon qilingan katta hajmdagi kitobni «O'zbek xalq qahramonlik eposi» deb nomlangan va unda, o'zbek dostonlarning tabiatи, turlari, doston ijrochilari, ijro jarayoni, yetakchi dos tonchilar, dos tonchilik maktablari, doston kuylash tartibi, ustoz va shogird munosabatlari, «Alpomish», «Go'ro'g'li» turkumiga oid dostonlar, «Kuntug'mish» kabi ishqiy-romantik dostonlar va boshqa masalalar tahlil etilgan.

Doston atamasi yozma adabiyotda ham katta hajmdagi epik asarlarga nisbatan keng istifoda etiladi. Biroq og'zaki va yozma adabiyotdagи dostonlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu dostonlar yozma adabiyotdan birinchi navbat og'zaki o'zlashtrilganligi, og'zaki ijro etilishi va og'zaki tarzda meros qoldirilishi bilan ajralib turadi.

«Alpomish», «Go'ro'g'li», «Rustamxon» kabi dostonlar o'zbek folklorida alohida o'rн tutadi. Bu dostonlarda birinchi navbatda xalqning qahramonligi, jasorati ulug'langan.

Har qanday folklor asari namunasi bu milliy qadriyatlar namunasidir. Xalq og'zaki ijodining eng kichik janri maqoldan tortib to epik hajmga ega bo'lган dostongacha barcha, barchasida milliy qadriyatlар o'ziga xos tarzda aks etganligini ko'ramiz. Biz bugun ushbu

ulkan masalaning faqat birgina jihatni, ya’ni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz epos va marosimda qay tariqa aks etishini ko‘rib chiqamiz.

Epos va marosim haqida so‘z ketganda, mutaxassislar ularni bir-biriga bog‘lab turuvchi eng muhim jihatni eposning xalq ijodining spetsifik namunasi sifatida marosim va marosim fol’klori bilan bevosita aloqadorligida ko‘rishadi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, eposning, ayniqsa, qahramonlik dostonlarining bevosita marosim, bog‘liq jihatlari hali yetarli darajada o‘rganilgan emas. Arxaik eposda, jumladan, mazkur maqolamizning tahlil obyekti bo‘lgan «Alpomish» dostonida ham marosimlarning muhim o‘rin tutishi va ustuvor qonuniyat kashf etishi kuzatiladi. Biroq, qahramonlik eposi birgina marosimlardan kelib chiqadi yoki tug‘iladi, deb xulosalash masalani o‘ta jo‘n hal etish bo‘ladi. Marosim epik formalarning transformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ushbu arxaik epik formaning bevosita marosim bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etish eposning tub asoslarini yoritishda o‘ta muhimdir. Bu o‘rinda ikki jihatga alohida to‘xtalib o‘tish zarur:

Birinchidan, eposning marosimlardagi o‘rni va funksiyasi. Bungungi kunda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida davom etayotgan qadimiy an‘ana – to‘y-tomosha va boshqa marosimlarning baxshilar ishtirokida o‘tkazilishi.

Ikkinchidan, marosimlarning eposda aks etishi, ya’ni marosimlarning epos syujetida tutgan o‘rni. «Alpomish» dostonini, ta’bir joiz bo‘lsa, xalqimizning ko‘hna marosimlar, urf odatlar, irim-sirim, tabularning qomusi” deb atash mumkin. Chunki hech bir eposda xalqimizning maishiy hayoti bunchalik keng ko‘lamda o‘zining badiiy ifodasini topmagan. Farzandning tug‘ilishidan oldin ovga chiqmoq, suyunchi olmoq, farzandning tug‘ilishi, farzandga ism qo‘ymoq, etagiga solmoq, beshik to‘y, to‘y maslahati, jarchi qo‘ymoq, chufuron to‘y, to‘yona bermoq, atashtirib beshikkerti qilmoq, ikkinchi ism qo‘ymoq, atashtirib ro‘mol o‘ramoq, qalliqqa bormoq,sovchi quymoq, shartlashish (kurash, ko‘pkari, poyga), kuyov navkar, to‘qqiz

tovoq, kuyov tovoq, o‘tni aylanmoq, qiz yashirdi, vakil ota, vakilini bermoq, chimildiq tutmoq, it irillar, oyna ko‘rsatar, soch siypatar, qo‘l ushlatar, kuyov uloq, yuz ochdi, baqan tashlamoq, solim bermoq, o‘lan aytmoq kabi turli xil odad va marosimlarning «Alpomish» eposidan joy olishi muhim ahamiyatga ega va u maxsus tadqiqotni talab etadi.

Epos va marosimni o‘rganishda birinchi navbatda qiyosiy tipologik metodning ustuvorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvo - poetik va ruhiy tahlil kabi ko‘plab metodlarga ham suyanish lozim bo‘ladi. Qiyyosiy tipologik tahlilda birinchidan, marosimlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘iladi. Lingvo - poetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuqurroq yoritib berishda asosiy omil bo‘ladi. Struktural metod esa epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini ko‘ramiz.

Shomonning shajarasi, uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi-bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, «Alpomish» eposida ham shajaraga alohida urg‘u beriliishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng, qayta tirilib chiqib, qo‘ltoy qiyofasiga kiriishi, struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz. Qolaversa, eposning genetik xususiyati uning janr strukturasini o‘rganish orqali ochiladi.

Marosimning eposda aks etishi haqida so‘z ketar ekan, uning asosan ikki: a) **maishiy turmushda o‘z ijro o‘rniga ega bo‘lib**, eposda ham badiiy aks etgan (farzandning tug‘ilishi, ism qo‘yish, beshik-kerti qilmoq, atashtirib ro‘mol o‘ramoq,sovchi qo‘ymoq, qalliq o‘ynamoq va hokazo; b) **maishiy turmushda ijro o‘rni unutilib**,

badiiy holatga ko'chgan (farzand tug'ilishidan oldin ovga chiqish, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo'yilishi va h.k.) jihatlarini tadqiq etish lozim bo'ladi.

«Alpomish» dostonida farzandning tug'ilishi ilohiy xususiyat kashf etadi. Ilohiy tug'ilish esa folkorda yetakchi motivlardan biri bo'lib, u bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, ota-onaning farzandsizlik holati. Bu bir tomondan ona urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlarning marosim va dostonlarimiz qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan dostonda ramziy ma'no kashf etib, parokanda elni birlashtiradigan, hokimiyatni mustahkamlaydigan yangi avlod, yangi alpning tug'ilishini anglatadi.

Qahramonga ism berilishi bilan bog'liq o'rinalar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo'lsa-da, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni Hakimbek yetti yoshga to'lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon parli yoyni otgani uchun tug'ulish «Alpomish» deb ataladi: „Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib sanaga o'tdi”.¹⁴

Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so'ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu, birinchidan, shomonning eranlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolotga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan, uning boshqa qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega bo'lganligini ham ko'rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba'zan oilada o'g'il farzand tug'ilsa, uni "orqalik" ekan deb hamda ins-jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg'on ism berildi. Agar shunday qilinmasa u xastalikka chalinishi mumkin, degan qarash mavjud. Ma'lum bir muddatdan so'ng kichik bir marosim o'tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo'yilgan.

Eposda marosim hech qachon batapsil tasvirlanmaydi, balki, uning muhim nuqtalari o'z aksini topgan bo'ladi. Eng e'tiborli jihat, marosim epos tizimida syujetni yuzaga keltirib, epik xarakter kasb

¹⁴ «Алпомиши» Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи Ҳоди Зарифов ва Тўра Мирзаев.-Тошкент.: Шарқ, 1998, 18 б.

etadi. «Alpomish» dostonidagi Hakimbekka ikkinchi ism berilishi bilan bog‘liq halqa olib tashlansa, doston mazmuniga jiddiy putur yetadi. Demak, marosim ma’lum ma’noda epos syujet halqasining yuzaga kelishiga zamin bo‘lishi bilan birga, bevosita estetik funksiysi yani ham bajaradi.

Dostonda Surxayl kampir Barchinning onasiga qarata shunday deydi:

*Qozonda qaynagan shirboz go ‘shtmidi,
Shul qizingning agar boshi bo ‘shmidi.
Boshi bo ‘shmi deyin, sendan so ‘rayman,
Kelin qilib biror ro ‘mol o ‘rayin.*

«Boshning bo‘shligi» hali qizning birovga atalmaganligi, hech kim bilan ahdu paymon qilmaganligi va ota - onasining rozi-rizoligi olinmaganligini anglatadi. Barchin esa tug‘ilgandayoq «beshikkerti» qilingan edi. «Ana shunda Shohimardon piri Hakimbekka oy Barchinni atashtirib, beshikkerti qilib: «Bu ikkovi er-xotin bo‘lsin, Hakimbek bilan hech kim barobar bo‘lmasin, omin ollohu akbar», – deb fotihani betiga tortdi». Beshikkerti qilish odati va u bilan bog‘liq marosimlar bugungi kungacha ham xalqimiz hayotida saqlanib qolgan. Beshikkertida albatta, bo‘lg‘usi kelinning boshiga ro‘mol o‘ralib, biror bir tilla taqinchoq taqilgan.

Bosh kiyim esa hamisha muqaddas sanalgan. O. Suxareva O‘rta Osiyo xalqlari bosh kiyimga alohida e’tibor berishlarini, yoshiga qarab bosh kiyimlari ham o‘zgarib borganligi va har bir marosimda bosh kiyim muhim ahamiyat kasb etganligini ta’kidlaydi.

Qadimda esa bosh va bosh kiyim ko‘k bilan bog‘langan. Shuning uchun Boybichaning Surxayl kampirga bergen keskin javobida ham bir tomondan qizining yoshligida Hakimbek bilan “beshikkerti” qilinganligi ta’kidlanayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ular ikki dunyo, ikki olam vakili ekanligiga ham ishoradir.

Barchinning eldan ajratilib, baland bir tepalikka o‘tov tikishi dostonda shunday tasvirlanadi: «O‘n ming uyli Qo‘ng‘irotdan chiqarib,

Barchinning o‘tovini ko‘tarib, hu, anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo‘ydi. Bul o‘tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o‘tirdi». Bu yerda diqqatimizni tortadigan ikki jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Birinchisi, Barchin o‘tovining tepalikka tikilishi. Tepalik, tog‘ qadimda marosimlar o‘tkaziladigan muqaddas joy hisoblangan. Ikkinchisi, o‘tovning oq va baxmal ekanligi. Oq va qizil (baxmal) rang birinchi navbatda ikki olam (erkak va ayol birligining makoni) haqidagi qadim tushunchalarni o‘zida ifoda etgan. Shuning uchun bu ikki rang eposda ham, marosimlarda ham aniq ramziy ma’noga ega.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida uzatilayotgan qiz to‘y kuni biror bir qarindoshi yoxud qo‘shnilaridan birinikida, ya’ni o‘z uyi-dan o‘zoqroqda bo‘ladi. Qizning dugonalari uzatilayotgan qizni yashirishib, „qiz yashirdi” marosimini o‘tkazadi. Kuyov tomondan tanlangan vakil bo‘lg‘isi kelinni topib olishi kerak. Ana shu “qiz yashirdi” marosimidan so‘nggina, bo‘lg‘usi kelindan vakillar rozi - rizolik olishadi. Dostonda ham ayni marosim o‘z aksini topgan: Qadimgi rasmi shunday bo‘ladi, Barchinoyni qiz opqochedi qiladi,... Bir yerda bularni topib oladi”. Ana shu kabi marosimlardan yaxshi xabardor bo‘lmasak, Barchinning o‘tov tikib, o‘z elidan ajralib chiqishini juda jo‘n talqin qilishimiz tabiiy, albatta. Aslida esa, «Alpomish» kabi klassik eposda, biror bir detal noo‘rin kelmaydi va ularning har biri o‘zining chuqur ma’nosiga ega.

Barchinning alohida o‘tov tikib, o‘z elidan ajralib chiqishi, bu bir tomondan qizning balog‘atga yetganidan dalolat bersa, ikkinchi tomonidan uning ihota qilinishini anglatadi.

«Qiz yashirish», ya’ni turmushga chiqayotgan qizning jamoadan ajratilishi, uning ihota qilinishi, ya’ni har xil noxushliklardan, yomon ko‘zlardan saqlash uchun qilingan amaliy harakat bo‘lib, Barchinning tepalikka o‘tov tikishi esa, ana shu qadim marosimning dostondagi badiiy ifodasiadir.

Sochning marosim va folklorligi o‘rnini, funksiyasi va poetik ko‘lami shu darajada ulkanki, buni birgina maqola yoki tadqiqot doirasida hal etish anchayin mushkul masala.

Marosimda magik harakatlar ritual ahamiyat kasb etsa, eposda u badiiy ko‘rinishga ega. Buni «Alpomish» dostonidagi “soch siypatar” va shu kabi marosimlarda ko‘rishimiz mumkin.

Soch, yol–bular ruhga tegishli, birovning sochi yoxud yoliga egalilik qilish, uning ruhiga egalik qilish, uni o‘ziga tobe etish bilan barobar hisoblangan. Frezer soch qadim marosimlarda eng yuksak mavqedä bo‘lganligini, ibtidoiy inson sochni tarash, oldirish, kuydirish orqali tabiatga va ruhga ta’sir qilish mumkin, deb hisoblaganligini ta’kidlaydi.

Folkloshunos olim Asqar Musaqulov jahondagi ko‘pgina xalqlarning tug‘ilish, nikoh, o‘lim marosimlari bilan bir qatorda, soch olinishi ham inson hayotidagi eng muhim jarayonlardan biri bo‘lib, u osmon g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lganligini yozadi.

Soch siypatar, umuman, sochning o‘rilishi qiz bolaning balog‘atga yetganligi, anglatuvchi unsurlardan biri bo‘lib, u qadimiy soch magiyasi bilan bog‘liq marosimning transformatsiyaga uchragan bir ko‘rinishidir. Soch magiyasi birinchi navbatda hosildorlik kultiga bo‘lgan e’tiqoddan kelib chiqqan. «Alpomish» dostonidagi «soch siypatar» marosimida ham ana shunday qadim tasavvurlar o‘z ifodasini topgan.

Arqon, tayoq, oyna kabilar marosimlarda eng ko‘p ishlatiladigan predmetlardir. Ularni birlashtirib turuvchi jihat esa, bu uchala jism, qadim tasavvurlarga ko‘ra, ikki dunyo o‘rtasidagi chegara, belgini ifodalashidir. Shuning uchun kuyov-kelin yo‘liga tashlanadigan arqon, tayoq (baqan) bu ularni bir dunyodan ikkinchi bir dunyoga qadam qo‘yanligini anglatgan. Shuning uchun ham homilador ayol tayoq yoki arqondan hatlamaydi, oqar suvda cho‘milmaydi, tunda ko‘zguga qaramaydi, sochnini kesmaydi degan odatlar bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Oyna aslida suvning atributi hisoblanadi, suv tabiiy xususiyati bilan ko‘zguga tenglashtirilgan. Suv esa ikki dunyo o‘rtasidagi chegara. Shuning uchun ham suvning barcha din va turli xil marosimlardagi o‘rnii juda baland.

«Kampir o‘ldi» marosimi nikoh to‘yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba‘zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan.

«Alpomish» dostonida u kelin, ya’ni Barchinning uyida amalga oshiriladi: «Baxmal o‘tovda chimildiq tutib, ko‘yov novkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo‘lib, bir necha xotinlar «kampir o‘ldi» bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar” degan rasmini qilib, bunga ham bir narsa berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o‘tirib, oldiga dasturxon solib, qo‘ylarning to‘smini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo‘yib, xo‘p yeb to‘yib, ko‘yov novkarlarga to‘ppi, ro‘mol, sarmoy berib, hammasi o‘z rasmiga dasini qilib, ko‘yov navkarlar chiqib ketdi, bular ham mazgiligi-joy-joyiga qarab ketdi».

N.P.Lobacheva bu marosim o‘tgan asrning o‘rtalarida O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlarning barchasida uchrashini ta’kidlaydi. Bu marosim bugungi kunda saqlanib qolgan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida dostonda aynan keltirilgani kabi kelin tomonda amalga oshiriladi. Chimildiq tutilgan uyga kirmoqchi bo‘layotgan kuyov navkarlarining yo‘li to‘silib, ostonada turgan bir kampir it bo‘lib “irillarydi”. Odatda, it bo‘lib irillarydigan kampir kayvoni, uvali -juvali va obro‘ - e’tiborli, eng muhimmi, kelin tomonning eng yaqinlaridan biri bo‘lishi kerak.

Kampirning «ulushi» berilgach, kuyov ichkariga kiritiladi. Shundan so‘ng «kampir o‘ldi» marosimi boshlanadi. Unda yana uvali-juvali bir kampir kelin-kuyovga solingan o‘ringa yosh bolani quchoqlab yotib oladi. Atrofda turganlar “kampir o‘lib qoldi”, “kampir o‘lib qoldi” deyishadi. So‘ng kampir tush ko‘rganini aytadi:

*Tush ko‘ribman,
ikki yoshni xush ko‘ribman,
Oltin beshik bu yonda
Oltin beshik u yonda.
toq, emas, juft ko‘ribman.*

*qo 'chqorday ul bir jonda,
Basolqi qiz bir jonda,
Ko 'rkam savlatli,
Molu – davlatli,
Farzandli, nevarali, chevarali ko 'ribman.*

Ba'zi o'rnlarda «o'lgan» kampirning tushini ikkinchi bir kampir ta'biri qilib, tushdagi ramzlarning nima ma'no ifodalashini aytib turadi.

Bu o'rinda eng avallo, tushga to'xtalib o'tish zarur bo'ladi. Chunki tush ko'pchilik marosimlarda, umuman, inson hayotining barcha nuqtalarida alohida ahamiyat kasb etgan. Ibtidoiy inson o'zining o'tmishi, buguni va kelajagini ham tushsiz tasavvur eta olmagan. Biror bir insonning dunyoga kelishi, kamol topishi, baxtli bo'lishi yoki falokatlarga yo'liqishi tushlarda ayon bo'lgan.

Nikoh esa hamma vaqt o'lim va tug'ilish orasidagi muhim bir vosita, hayot – o'lim – hayot davomiylik siklining boshlanishi hisoblangan.

O'lib tiriluvchi ma'budlar haqidagi qadim tasavvurlarga ko'ra, keksa qish yer yuzini tark etgandan so'ng, u yangi – bahor qiyofasida dunyoga keladi. O'lim yo'q ekan, tug'ilish ham bo'lmaydi; qish o'lmasa, bahor tug'ilmaydi. Aslida o'lim va tug'ilish bir holatning ikki ko'rinishi, xolos.

Dostondagi «kampir o'ldi» marosimida ham xuddi ana shu narsa, ya'ni bir fasl (sikl) o'rnini, ikkinchi bir fasl olganligi, "kampir o'lib", yangi oila dunyoga kelayotganligi, mangu davomiylik siklining ramziy ifodasidir.

Tabiat faslini keksa kampir qiyofasida tasavvur qilish «Choy momo», «Sust xotin» marosimlarida o'zining yanada yorqinroq ifodasini topgan.

Ma'lumki, o'lib tiriluvchi ma'budlar haqidagi ko'plab miflar mavjud. Bunday miflarga xos bo'lgan eng muhim xususiyat ularning tabiat va hosildorlik kultini o'zida mujassam etgani va ularning

ko‘pchiligi albatta ayol qiyofasida bo‘lganidir. Har fasl almashganda esa ularga qurbanliklar qilinib, maxsus marosimlar o‘tkazilgan. Qadim Misrda Osirisning o‘lib-tirilishi bahor marosimlarida tomosha tariqasida ko‘rsatilgan.

Germaniyada yangi nikoh qurgan kelinchaklarga o‘limni ifodalovchi somondan qilingan qo‘g‘irchoq ko‘rsatilgan. Qari kampir ko‘rinishidagi “o‘lim” kelinchakning ko‘p farzandli bo‘lishiga yordam beradi, degan tasavvur bo‘lgan.

Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘limning hosildorlik va serfarzandlik bo‘lishida ko‘rsatadigan ta’siri haqida tasavvurlar nikoh marosmlari-da juda barqaror ekanligini ta’kidlashadi.

Shuning uchun ham, oila va mavsum marosimlarini bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq ravishda o‘rganilishi zarur. Zero, oila marosimlarining barcha qirralari mavsumiy marosimlarni o‘rganish orqali ochiladi.

Epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda eposga murojaat etish tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o‘rganganimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to‘laroq ochilishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. «Alpomish» dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olin-gan variantini o‘qing.
2. Dostonning bugungi kunda xalq qadriyatları qatorida e’tiborga loyiq ekanini izohlang.
3. «Alpomish» dostonidagi mifik dunyoqarash belgilarini alohida-alohida ko‘rsating. Ular haqida bilganlariningizni so‘zlang.
4. Dostonning o‘rganilishida olimlar fikrlarini ayting. Ularni bahlashga urining.
5. Dostondan parcha yodlang.

2.2. O'ZBEK XALQ NASRINING O'RGANILISHI

Afsona – sehr - jodu, xayolotga yo‘g‘rilgan, ajdodlardan avlod-larga o‘tib kelayotgan og‘zaki hikoya, Nomoddiy madaniy meros (NMM) namunalaridan biri. Afsona o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo‘lib, insonning dunyo va o‘zini qur-shab turgan voqelikni anglash, tushunishga qaratilgan tushuncha va tasavvurlari mujassamlashgan voqeа va hodisalar, badiiy to‘qima asosida hikoya qiladi. Shu-ning uchun ham afsonada ijtimoiy hayot, kishilarning dunyoqarashi, urf-odatlari va tarixiy hodisalar haqida ix-cham ma’lumot, axborot beriladi.

Afsonalar haqidagi ma’lumotlar mashhur tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida «sag» so‘zi orqali ifodalangan bo‘lib, hikoya, qissa deya ta’rif berilgan.

Afsona matnida an‘anaviylik yo‘q ekan, voqealar tuzilishi ham murakkab emas. Shuning uchun aytuvchining mahorati bilan bog‘liq holda voqealar doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Afsona syujetlari mifologik hodisalar, geografik joylar nomi bilan bog‘liq g‘aroyib voqealardan tashkil topgan. Xarakterli tomoni shundaki, deyarli barcha afsonalarning syujeti bir yoki ikki epizoddan tashkil topadi. Syujet voqealar esa ko‘proq tugundan boshlanadi. Bunday epik tugunlar esa tinglovchilarni kutilmaganda voqealar ichiga olib kiradi.

Afsonalarda ertaklardagiga o‘xshash an‘anaviy boshlama va tugallamalar uchramaydi. Bu narsa faqat afsona aytish bilan shug‘ullanuvchi professional ijodkorning yo‘qligi bilan izohlanadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, afsona keng ommaviy ijro etiluvchi janr hisoblanadi – uni bilgan shaxs o‘zi istagan shaklda ay-taveradi.

Afsonalarning tematikasi rang-barangdir. Osmon, yer, suv pir-lari (muakkil)ning g‘aroyib ishlari, yovuzlik yaratuvchi ruhlar bilan ezgulik yaratuvchi ruhlar o‘rtasidagi doimiy to‘qnashuvlar, yer yuzida odamning paydo bo‘lishi, narsa yoki hodisalarga taalluqli bel-

gilarning paydo bo‘lish sababli, tabu (taqiq) bilan bog‘liq ajoyib va g‘aroyib voqealar afsonalar tematikasini tashkil etadi.

Afsonalar voqeа va hodisalarni g‘ayritabiiy tasvirlashi bilan ertaklarga o‘xshab ketadi, biroq syujetning barqaror shaklga ega emasligi va qisqaligi bilan ulardan ajralib turadi. Demak, afsonalar da barqaror syujet va kompozitsiya yo‘q. Bunday xususiyat ularning ommaviy ijro shakli hamda axborot berish vazifasini o‘tashi bilan bog‘liq.

Darhaqiqat, ko‘pgina afsonalardagi epizodlarda otashparastlik diniga aloqador talqinlar ham uchraydi. «Qayu-mars», «Odami Od», «Er Xubbi», «Anbar ona», «Hazrati Xizr» kabi mifologik afsonalar ibtidoiy dunyoqarash, u yoki bu sirli ko‘ringan narsani muqaddas-lashtirish, unga e’tiqod qo‘yish kabi diniy tasavvurlar zamirida paydo bo‘lgan.

Afsonalar g‘oyaviy-tematik yo‘nalishlariga ko‘ra, shartli ravishda sof mifologik afsonalar, tarixiy voqeа va hodisalar haqida to‘qilgan afsonalarga bo‘linadi. Afsonalarni asosan osmon jismlari bilan bog‘liq samoviy afsonalar, o‘simpliklar olami, hayvonot olami, makon, zamon va insoniyat tarixi bilan bog‘liq katta besh guruhga bo‘lish mumkin. O‘z navbatida bu guruhdagi afsonalar ham kichik – kichik guruhlarga bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalq afsonalari sira-sida tarixiy voqeа va hodisalar haqidagi afsonalar katta o‘rin egal-laydi. «Devqal’a», «Shirin qiz», «Kalta minor», «Ilon buzgan» kabilalar shundai afsonalardandir. Ular insoniyatning beqiyos kuchi va go‘zalligini madh etadi.

«Baroqtom», «Shohsanam va G‘arib», «Hazorasp», «Iskandar va Afrosiyob» kabi afsonalar esa tarixiy joy va tarixiy shaxslar nomi bilan bog‘langan. Ularda voqelik fantastik yo‘nalishda hikoya qilinadi. Bu xildagi afsonalar ko‘proq muayyan hodisa, qabila yoki elat, geografik joy – qal‘a, maqbara, qo‘rg‘on, saroy, minora, daryo, den-giz, shaharlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning yuzaga kelishi va vayron bo‘lish sabablari, u yoki bu nomning paydo bo‘lishi tarixidan xabar beradi. Shu jihatdan. «Hazorasp» afsonasi xarakterlidir.

Rivoyat – og‘zaki tarzda aytib beriluvchi hikoya. Yuzaga kelishi va tarixiy asoslari juda qadimiy folklor, NMM namunalaridan biri. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan tarixiy hodisa yoki kechmisht voqeani badiiy to‘qima vositasida tasvirlovchi, hajman qisqa, an’anaviy shaklga ega bo‘lmagan asar.

Rivoyatlar ertak yoxud doston kabi qat’iy, an’anaviy uslubiy shaklga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun rivoyatlarni maxsus ijrochi emas, istagan odam hikoya qilib berishi mumkin. Odatda, rivoyatlar oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tish jarayonida erkin tarzda talqin qilinadi va xuddi shu narsa ularning og‘zaki ijodga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlaridan biri–variantliligi ta’minlaydi.

Afsona va rivoyatda tarixiy voqelik fantastika libosida bo‘ladi. Ular o‘z shakliga ko‘ra sehrli ertaklarga yaqin turadi. Rivoyat bilan afsona o‘xhash bo‘lsa ham o‘zaro farqlarga egadir. Rivoyatlarda afsonaga nisbatan tarixiylik ustun turadi. Aksincha, afsonalar rivoyatlarga nisbatan fantastik bo‘yoq va diniy elementlarga boy bo‘ladi. To‘maris va Shiroq haqidagi rivoyat bunga misol bo‘la oladi.

Rivoyatlar g‘oyaviy va mavzu ko‘lami jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar, odatda, ixcham syujetga ega bo‘lib, ikki, uch epizoddan iborat voqelikdan tashkil topadi va qat’iy kompozitsiyaga ega emas. Shuning uchun syujet voqealari, ko‘pincha, go‘yo tugallanmagan-dek, davomi bordek seziladi va tinglovchiga katta asardan uzib olin-gan bir lavha singari tuyuladi.

Rivoyatlarda tarixiy voqea va shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar, kishilar hayoti, geografik makon – tog‘, dengiz, ko‘l, sahro, shahar, qishloq, qal‘a, saroy va hokazolarning paydo bo‘lishi yoxud tanazzulga yuz tutishi haqida hikoya qilinadi. Binobarin, rivoyatlar u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o‘taydi. Rivoyatlarda milliylik va umuminsoniylik ulug‘lanib, inson-parvarlik, ezgulik, yaxshilik tushunchalari vahshiylilik, yovuzlik va yomon illatlarga qarama-qarshi qo‘yiladi.

Rivoyatlar tematikasiga ko‘ra tarixiy va toponimik rivoyatga bo‘linadi.

Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etadi. To‘maris, Shiroq, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Ibn Sino, Beruniy singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Tarixiy rivoyatlarni u yoki bu tarixiy shaxs yoki voqealar guvohi bo‘lganlarning, ko‘rgan-bilganlarning esdaliklari asosida yuzaga kelgan, deyish mumkin. Bu narsa rivoyat janrinining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ba’zi tarixiy rivoyatlarda esa faktik voqealar dan asar ham qolmay, faqat shaxs nomigina saqlanib qolishi ham mumkin. Ba’zan esa tarixiy shaxs sayyor syujetlar qolipida hikoya qilinadi. Shunga qaramay tarixiy shaxslarning ishtirok etishi, syujetda badiiy to‘qimaning mavjudligiga qarab, bunday asarlarni tarixiy rivoyat deyish mumkin bo‘ladi.

Toponimik rivoyatlarda shahar, qishloq, qo‘rg‘on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi. Toponimik rivoyatlar xotimasida, odatda, ushbu hikoyadan maqsad ta’kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi (mas, «To‘rabek xonim maqbarasi», «Anda jon qildi», «Odinajonim», «Qo‘ng‘irot» va b.).

Rivoyatlar og‘zaki ijod namunasi bo‘lgani uchun, bizgacha asosan og‘zaki hamda qisman yozma shaklda yetib kelgan. Geredotning «Tarix», Vosifyuning «Badoye’ ul vaqoye’», Xondamirning «Makorim ul-axloq» va boshqa asarlarda rivoyatlarning qadimiylarini keltirilgan. O‘zbekistonda juda ko‘p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy-estetik qarashlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalq rivoyatlarining yozib olingan ko‘plab namunalari bugungi kunga qadar folklor abiyotlar arxivida saqalandi.

Ertak – o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylarini va eng omma-viy janrlaridan biri. Fantastik xayolot hamda badiiy to‘qimalar asosida.

siga qurilib, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deb ataladi. NMM namunasi bo'lgan ertaklarda xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi, tafakkur olami ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ertaklarning paydo bo'lishida qadimiy miflar, urf-odat va marosimlar muhum o'rinni tutadi. Ertak atamasi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «*etuk*» shaklida kela-di va biror voqeani og'zaki hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Folklor-shunoslikda ertak atamasi qabul etilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning turli hududlarda **matal, ushuk, varsaqi, cho'pchak** nomlari ham uchraydi.

Ertaklarda biror bir voqeа mukammal hikoya tarzida bayon qili-nadi, voqelik xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida kishilarda badiiy zavq uyg'otadi.

Ertaklar tarixiy taraqqiyot jarayonida turlicha o'zgarishlarga uchrab, bizga qadar yetib kelgan. Shu sababdan ko'pgina ertaklarning g'oyaviy yo'nalihi, kompozitsiyasi, qahramonlarning vazifalari o'zgarib, yangi-yangi variant va versiyalari yuzaga kelgan. Ertaklardagi variantlarning vujudga kelishi, ertak aytilganda ijrochining ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi, voqelikni aks ettira olish iqtidori, ertakchilik an'analarini qay darajada bilishi, tajribasi, ruhiy holatlari bilan bog'liq holda amalgalashadi.

Ertak asosida yotgan badiiy to'qimaning davr e'tibori bilan tashkil topgan vaqt va o'rnni, uning real haqiqatga bo'lgan munosabati va asosiy funksiyasi, badiiy aks ettirish prinsiplariga ko'ra:) **hayvonlar haqidagi ertaklar** («Tulki va laylak» kabi), b) **sehrli ertaklar** («Kenja botir», «Muqbiltoshotar» va h.), v) **maishiy** («Davlatmirzo», «Ayoz» va h.) **ertaklarga bo'linadi**.

Hayvonlar haqidagi ertaklar shakl va mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi: sof hayvonlar haqidagi ertaklar va majoziy ertaklar.

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar nisbatan qadimiydir. Hayvon-personajlar harakati va munosabati qadimiy dunyoqarash bilan bog'langan.

Majoziy ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar zaminida vujudga kelib, tanqidiy vazifani ado etishga bo'ysundirildi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettiruvchi ko'chma ma'nodagi personajlarga aylanadi. Bunday ertaklarning g'oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o'rinda turadi. Majoziy ertaklarning pedagogik ahamiyati katta.

O'zbek xalq ertaklari orasida sehrli ertaklar alohida turkumni tashkil etadi. Sehrli ertaklarning yuzaga kelishi qadimiy tarixga ega bo'lib, ularning ildizi ibtidoiy jamiyatga bog'lanadi.

Sehrli ertaklarda personajlar, voqeа va hodisalar odatdan tashqari, g'ayritabiiy holda tasvirlanadi. Sehrli ertaklardagi har bir epizod qahramonlarning xatti-harakatlari, sehr, jodu, mo'jiza, xayoliy obrazlar bilan bog'lanadi.

Sehrli ertaklarda u yoki bu totem hayvon asosiy personaj bo'lib, bosh qahramon yordamchisi sifatida hal qiluvchi rolni o'ynaydi.

Sehrli ertaklar poetikasida tilsim alohida o'rin tutadi. Tilsim va tilsimli hodisalar ta'sirchanlikni orttirib, ertaklarga xos tabiat yaratadi, voqeа va hodisalar mazmunini ochadi, qahramon ruhini belgilaydi. Tilsim syujetning asosiy bezagi, ertak poetikasining tarkibiy qismidir. Chunki sehr-jodu va tilsim vositalari ertak syujetini harakatga keltiradi, qahramonlar xarakterini belgilaydi.

Maishiy ertaklarning tematikasi, g'oyaviy mazmuni sehrli ertaklardan farq qiladi. Aqlni sinash, vafodorlik, jangovarlik, oilaviy tortishuvlar, ayyorlik va tentaklikni tanqid qilish bu xildagi ertaklarning asosiy tematikasini tashkil etadi. Shuning uchun ularda ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik, zulm va zo'rlik qoralanib, ezgulik va haqiqat ulug'lanadi. Ertak qahramonlari – hayotning faol kishilari, ular ajoyib va g'aroyib yordamchilarsiz ish ko'radilar, aql kuchi, tadbirkorlik, chidam, jasorat, iroda kuchi, do'stga vafodorlik, sadoqat, adolatsizlikka nisbatan murosasizlik ularning asosiy sifatlaridir. Maishiy ertaklarda voqealar harakati nisbatan hayotiy. Ertak syujetini asosan sotsial-maishiy motivlar tashkil qiladi.

Ertaklar o‘ziga xos kompozitsiyaga ega bo‘lib, kirish qismi – boshlama, voqealar rivoji, tugallanmalardan tashkil topadi.

Qirish qismi – boshlama tinglovchi diqqatini jamlab, uni ertak eshitishga hozirlaydi. Ertakning an’anaviy boshlamasi voqeaneing qaysi vaqtda bo‘lib o‘tganini aniq bildirmaydi, uni umumiy tarzda ifodalaydi. Maishiy ertaklarda boshlama nihoyatda ixcham va sodda. Bunda ham voqelikning bo‘lib o‘tgan vaqtி noaniq bo‘lsa ham, biroq sirlilik sezilmaydi, hayotiylik hukmron bo‘ladi. Voqea bo‘lib o‘tgan joy va qahramon nomi aniq hamda to‘liq beriladi.

Tugallanma–ertakning yakuniy qismini ifodalaydi. Sehrli ertaklarda tugallanma doimo to‘y-tomosha tasviri bilan yakun topadi. Maishiy ertaklarda esa, u voqealar sintezidan kelib chiqqan xulosa bo‘lib, sotsial ruh hamda ta’limiy mazmunni anglatadi.

Ertak aytib beruvchiga **ertakchi** deyiladi. Har bir ertakchi aytib berayotgan ertaklarining xarakteri va hikoya qilib berish uslubiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Ayrim ertakchilar hayvonlar haqidagi, ayrimlari sehrli, ba‘zilari esa maishiy mazmundagi ertaklarni aytish bo‘yicha dong taratganlar.

Ertakchilar: ijodkor va ijrochi ertakchilarga bo‘linadi. Ijodkor ertakchi o‘zi eshitgan ertakka ijodiy yondoshadi, an’anani buzmagan holda, ertak voqeligiga yangiliklar qo‘sadi, uning ta’sir kuchini oshiradi. O‘z bilim darajasi va mahorati hamda tinglovchi talabidan kelib chiqib, ertak voqelariga o‘zgartirishlar kiritadi. Ijrochi ertakchi esa o‘zi qanday eshitgan bo‘lsa, aynan shunday takrorlaydi, matnga ijodiy yondoshmaydi.

Ertaklarning asrlar osha yashab qolishida, ajdodlardan avlodlarga yetib kelishida mahoratlι, ya’ni professional ertakchilarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o‘g‘li, Haydar Boycha o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li, Husanboy Rasulov, Abdug‘ofur Shukurov kabi mashhur ertakchilar o‘z davrida mashhur bo‘lgan va ulardan ko‘plab ertak namunalari yozib olingan. Bugungi kunga qadar ko‘plab ertak namunalari turli nomlar ostida chop etib kelinmoqda.

Milliy va umuminsoniy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan ertaklarning ta’limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

Savol va topshiriqlar:

1. Ertaklarning janr xususiyatlarini moddama-modda ayting, ularning har birini izohlang.
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar boshqa tur ertaklardan qanday farqlanadi? Boshqa tur ertaklar bilan o‘xshashligi bormi?
3. Sehrli ertaklar haqida o‘qiganingiz bilan avvalgi taassurotlar o‘rtasida farq bormi?
4. Xalq ertaklari – so‘z san’atining namunasi ekanini isbotlang.
5. Afsonalarning mavzuga ko‘ra turlarini ko‘rsatib bering va o‘z fikringizni isbotlang.
6. Rivoyatlar bilan afsonalarning farqli jihatlarini izohlang.

2.3. O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINING O‘RGANILISHI

Qo‘shiqlar folklorda eng qadimiy va eng boy janrlardan biri hisoblanadi. Maqol, matal, topishmoq bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlarining Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» kitobidan joy olishi ham bejizga emas.¹⁵ Bu bir tomondan xalq qo‘shiqlarining o‘sha olis davrlarda ham rang-barang bo‘lganligini, tarixiy ildizlari juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ularni tasniflashtida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo qo‘shiq deganda biz nimani nazarda tutishimiz lozim? Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan xalq qo‘shiqlari bilan ma’lum bir individual ijodkor tomonidan yaratilgan qo‘shiq o‘rtasida qanchalik o‘xshashlik va farq mavjud?! O‘xshashlik har ikkala qo‘shiqning ham musiqaga, ohangga, ma’lum bir o‘lchov – vaznlarga amal

¹⁵ Махмуд Кошгариј. Девону луготит турк. Биринчи жилди–Тошкент: Фан, 1960.

qilishidadir. Xalq qo'shig'i yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlardan an'anaviyligi, jamoaviyligi, maishiy yo'nalganligi, variantliligi, ya'ni asrlar davomida xalq tomonidan og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etilib, og'zaki meros qilib qoldirib kelinayotganligi bilan tubdan farq qiladi.

Xalq qo'shiqlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uzoq tarixiy taraqqiyot davomida qo'shiqlar mifologik tafakkurdan badiiy tafakkurga aylanib borganligining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun qo'shiqlarda qadimiy tasavvur izlari bilan bir qatorda, o'rta asrlarda hamda kuni kecha yoxud bugun yuz berayotgan voqealar, kechinmlar o'z ifodasini topadi.

Turkiy xalqlarda «qo'sh» so'zi uch ma'noda: «kuyylamoq», «qo'sh qo'shmoq» – yer haydab, ekin ekmoq va juft ma'nolarini bildiradi. Har uch ma'no ham bir-birini inkor etmaydi.

«Qo'sh» mavsum, ya'ni bahor marosimida ilohlarni ulug'lab aytilgan qutlov, alqovdir. (Saxa turklarida shomonlik qo'shig'i – kulturuu – so'zi kut – ruh, uruu –ulug'lamoq, qutlamoq ma'nolarini anglatadi).¹⁶ Shuning uchun «kuyylamoq»ning bevosita hosildorlik kulti bilan aloqadorligi, ekin-tekin payti bu qo'shiqning kuyylanishi albatta shart bo'lган.

Qo'shiqning qo'sh bilan o'zaro bog'liq ekanini folklorshunos olim Asqar Musaqulov o'rinli izohlab bergen.¹⁷

Ma'lumki, qo'shiqlar asosan to'rtliklardan tashkil topgan. Ikki misraning birikib, juftlik, ya'ni «qo'shiq» hosil qilishi shunchaki tasodif emas.

«Er-xotin – qo'sh ho'kiz» degan maqol bor. Qo'sh haydamoqning ko'chma ma'nosi qiz va yigitning qo'shilishi, ya'ni oila qurishi, juftlashishidir. Xalq qo'shiqlarida bu tasavvurlar o'zining chiroyli ifodasini topgan. Shunday ekan, yuqoridaq maqol bilan qo'shiq kuylayotganda «juft bo'lsin» degan ibora ham aslida qo'shiq va juftlikni muqaddas deb bilish bilan bog'liq qadim tasavvurlarning mahsulidir.

¹⁶ Обрядовая поэзия Саха (Якутов).—Новосибирск: Наука, 2003, 59 с.

¹⁷ Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси.—Тошкент: Фан, 2010, .31-33 б.

Qo'shiq so'zi «Devonu lug'otit turk»da «koshug», Yusuf Xos Hojibda «qoshuq», Haydar Xorazmiyda «qo'sh», Mahmud Umar Zamahshariyning «Muqaddimatul-adab» asarida «qo'shiq», Alisher Navoiy asarlarida «qo'shiq», «surud», «ayolg'u», «lahn», «turku», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida «qo'shiq» shaklida kelganini ko'ramiz.¹⁸ Alisher Navoiy ham, Bobur ham xalq qo'shiqlarini nazarda tutganda «qo'shiq» kalimasini ishlatadi. Qolgan paytlarda «surud» yoxud boshqa bir atamani keltiradi.¹⁹

Turk folklorshunoslari ham O'rta Osiyo xalqlaridagi «qo'shiq» Turkiyadagi «qoshma» va «turku»lar bilan o'xshash ekanligini ta'kidlaydilar.

O'zbek xalq qo'shiqlari bugungi kunga qadar ko'p marotaba o'rganilganligiga qaramay, afsuski, yetarli darajada tasnif etilgan emas.

Folklorshunos olima Muzayyana Alaviya o'zbek qo'shiqlarini:

- 1.Lirik;
- 2.Mehr baytlari;
- 3.Terma;
- 4.Mehnat qo'shiqlari;
5. Mavsum marosim qo'shiqlariga bo'ladi.²⁰

F.Karomotov xalq qo'shiqlarini: maishiy, oilaviy-marosim, mehnat, tarixiy va sotsial norozilik qo'shiqlariga bo'lib tahlil etadi.²¹

¹⁸ Divanu Lugat-it Turk. Ceviren Besim Atalay. I cild. – Anakara: Turk Tarih Kurumu basimevi, 1992. – S. 376; Юсуф Хос Жошиб. Кутадғы билиг. Нашрға тайёрловчи Қаюм Каримов. –Тошкент: Фан, 1971, 58 б; Алишер Навоий. Мезонул Авзон. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967, 180 б; Захирiddин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент.

¹⁹ «Яна «кўшиқ» дуркум, ярғуштак усулида шойиъдур ва баъзи адвор кутубида ул усул зикр булубтур». Алишер Навоий. Мезонул Авзон. – Ташкент: Бадиий адабиёт, 1949, 68 б.

²⁰ Алавия М. Ўзбек маросим кўшиклари. – Тошкент: Фан, 1974, 49 б.

²¹ Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Ташкент: Фан, 1972, 161 с.

Asqar Musaqulov qo'shiqlarni uch guruhga:

- a) marosim: to'y va motam qo'shiqlari;
- b) nomarosim lirika: mehnat qo'shiqlari, allalar, termalar, ishqiy-maishiy qo'shiqlar;
- d) bolalar folkloridagi lirik qo'shiqlarga bo'ladi.

Bu tasnifni boshqa tasniflarga qaraganda nisbatan mukammal deyish mumkin. Biroq bu o'rinda mavsum marosim bilan bog'liq qo'shiqlar e'tibordan chetda qolmoqda. M. Alaviya tasnifiga kelsak, unda oilaviy marosim qo'shiqlariga o'rin ajratilmagan. Mehr bayt-lari esa umuman xalq qo'shiqlarining tasnifi doirasiga kirmaydi. F. Karomatov tasnifida ko'pgina noaniqliklar ko'zga tashlanadi. Birinchidan, maishiy va oilaviy marosim deb ajratilishida noaniqlik mavjud. Chunki oilaviy marosimlar maishiy xususiyati bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, sotsial-norozilik qo'shiqlari deyish ham tasnifda chalkashlikka olib keladi.

Turkiyalik olimlar Abdurahmon Guzal va Ali Turinlar turkularni 1) Mavzusiga ko'ra; 2) Qurilishiga ko'ra ikki guruhga ajrata-dilar.

Qardosh qoraqalpoq mutaxassislari qo'shiqlarni besh turga:
1) Mavsum qo'shiqlari; 2) To'y qo'shiqlari; 3) Motam qo'shiqlari,
4) Cho'pon qo'shiqlari; 5) Diniy qo'shiqlarga bo'lishgan.²²

Sibir va turkiy xalqlarda qo'shiqlar musiqaga munosabatiga qarab tasnif etilgan. Tuvalik folklorshunos Z.K. Kirgis qo'shiqlarni:
1) uzun irlar; 2) Qisqa irlar; 3) Naqorat (kojamiktan) larga bo'ladi.

Qo'shiqlarning tasnifi masalasida xorijlik olimlarning ham fikri turlicha. Ayrimlari qo'shiqlarning ijro etilishi holati va musiqiyligiga qarab tasnif etilish kerak desa, ayrimlari ijro o'mniga qarab tasniflash lozim deyishadi. Ayrim olimlar qo'shiqning ma'lum bir turi yuzasidan fikr bildirsa, boshqasi boshqa bir tur xususiyatidan kelib chiqib, fikr yuritadilar.

²² Коракалпок фольклори ва очерклари. – Тошкент: Фан, 1977, 130-142 б;
Айимбетов К. Коракалпок фольклори.–Нукус, 1977, 24-40 б.

Rus folklorshunosi D.M.Balashov xalq qo'shiqlarini 1) Mavsum; 2) to'y; 3) motam marosimi folklori namunasi sifatida o'rgansa, V.Propp mavsum va oilaviy marosim deb ikki guruhga ajratadi.²³

Shu o'rinda qo'shiqlarni qaysi mezonlar asosida tasnif etish lozim, degan savolning qo'yilishi tabiiy, albatta.

Bizning nazarimizda qo'shiqlarning tasnifida eng avvalo bitta mezonga amal qilish lozim. To'g'ri, qo'shiq janrining tur va uzvlarning har biri o'z spetsifik xususiyatlariga ega ekanligi tabiiy. Biroq bu xususiyatlar ularni tasnif etilishida yaxlit bir mezondan kelib yondoshishga monelik qila olmaydi. Shunday ekan, qo'shiqlar ijro o'rni, holati, musiqaga munosabati va badiiyatidan kelib chiqib: 1) ijro o'rni; 2) poetik strukturasi; 3) musiqiyligi va raqsga munosabatiga qarab tasnif etilishi lozim.

Ijro o'miga qarab tasnif etilganda qo'shiqlar, marosim va nomarosim qo'shiqlariga ajraladi.

O'z navbatida marosim qo'shiqlari ham ikki: **mavsumiy marosim** va **oilaviy-maishiy marosimlar qo'shiqlariga** bo'linadi. Mavsumiy marosim qo'shiqlari tematik va funksional xususiyatlariga ko'ra, yilning to'rt mavsumi bilan bog'liq (navro'z, sust xotin, choy momo, oblo baraka, yasun-yusun) bilan bog'liq qo'shiqlarni kiritish mumkin.

Marosim qo'shiqlari inson hayotining eng muhim davrlari, burilish nuqtalari (tug'ilish, balog'at, uylanish, o'lim) va ularning tabiatga munosabati o'z aksini topgan bo'lib, maishiy, psixologik hamda estetik funksiyani ham bajarib keladi.

Ayrim mavsumiy marosim qo'shiqlari davrlar o'tishi bilan lirik qo'shiqlarga aylangan holatlar mavjud. «Qoshingni qora deydilar», «Kichkinajon - kichkina», bolalarning «Boychechak», «Cho'chvara qaynaydi», «Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari ana shular jumlasidandir. Bu qo'shiqlar dastlab faqat mavsum marosimi-

²³ Балашов Д.М. О радовой и видовой систематизации фольклора. // Русский фольклор. Том 17. –Ленинград: Наука, 1977 23-33 с; Пропп В. Жанровой состав русского фольклора. // Фольклор и действительность. – Москва, 1976 66-69 с.

olma qizil olma» to‘plamida noma’lum shoirdan yozib olingen «Bibi shaylanayotir» termasi shu paytgacha yozib olingen termalarning eng go‘zal namunasidir.

Bolalar qo‘shiqlari atamasini ham keng ma’noda tushunmoq kerak. Birinchi o‘rinda kattalar tomonidan bolalarga atab aytildigan qo‘shiqlar: alla va huyalar. Alla hamma uchun tushunarli. «Huya» bu O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkatalish uchun aytgan qo‘shiqlaridir. Alladan farqli tomoni—uni faqat erkaklar ijro etadi. Huya aytish an’anasi bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelinayapti. Ikkinchisi esa bolalarning o‘zi tomonidan kuylanadigan qo‘shiqlar. «Boychechak», «Chittigul», «Oq terakmi ko‘k terak», chorlamalar shular jumlasidandir.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarining asosiy qismini lirik qo‘shiqlar tashkil etadi. Bu o‘rinda lirik deganda, biz sevgi-muhabbat haqidagi ishqiy-maishiy qo‘shiqlarni nazarda tutamiz. Lirik qo‘shiqlarni ham Aytishuv yo‘nalishidagi (o‘lan va lapar), aytishuv yo‘nalishida bo‘limgan, turli mavzudagi qo‘shiqlarga ajratib tasniflash mumkin.

O‘lan ham, lapar ham qadimda to‘y kuni, qiz uzatish marosimida aytilgan. Qiz va yigitlar tarafma-taraf bo‘lib shodu-xurramligini, baxtiyorligi yoxud afsus nodamatini, xullas, kechinmalarini qo‘sinqorqali ifoda etishgan. Har ikkalasi ham aytishuvga, ya’ni qiz va yigiting so‘z musobaqasiga asoslanadi. Faqat laparlarda voqebandlik kuzatilsa, o‘lanlarda bu holat kuzatilmaydi. Bugungi kunda o‘lan ham, lapar ham istalgan sharoitda, istalgan joyda ijro etilishi mumkin. O‘lanlar asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan, ko‘chmanchi hayot kechirgan urug‘lar orasida uchrasa, laparlar ko‘proq o‘troqlashgan hayot tarziga mosligi ko‘zga tashlanadi.

Poetik strukturasiga ko‘ra tasnidfa qo‘shiqlar ohangini, ya’ni yo‘lini naqoratlar va takrorlar belgilab beradi. Qo‘shiqlar ohang yo‘liga qarab farqlanganda ikki holatni kuzatamiz. Birinchi holat—to‘rtliklar erkin holda birikib, har bir to‘rtlik individual bir kechinmani aks ettiradi va o‘ziga xos kompozitsion qurilmaga ega bo‘ladi. Ikkinchisi—qo‘sinq matnidagi to‘rtliklar o‘zaro birlashib, ma’lum bir

voqeani yoxud kechinmani ifodalab keladi. Qo'shiqlar ohang yo'liga ko'rabb farqlanganda ular asosan ikkita katta guruhga ajraladi:

a) Voqeaband bo'lмаган – to'rtlik qo'shiqlar.

b) Voqeaband – to'rtlik qo'shiqlar.

Voqeaband qo'shiqlarda yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir to'rtliklar ma'lum bir voqeaband bilan o'zaro birkib keladi. Bu yerda to'rtliklarning ketma-ketligi turg'un holatga kelib, voqeabandlik hosil bo'ladi.

Voqeabandlik masalasiga olimlarning qarashlari turlicha. Ayrim olimlar voqeabandlik (syujet) barcha qo'shiqlarga xos desa²⁴ boshqa olimlar butunlay teskarisini, ya'ni syujetlilik qo'shiqlarga xos emasligini uqtirishadi.²⁵ Har ikki qarashga ham qo'shilib bo'lmaydi. Birinchidan, syujet hamma qo'shiqlarda ham uchrayvermaydi. Biz tahlilga tortgan qo'shiqlarning asosiy qismi voqeaband emas, ya'ni syujetga ega bo'lмаган qo'shiqlardir. Bundan syujet qo'shiqlarga xos emas degan fikr kelib chiqmaydi. Shunday qo'shiq namunalari borki, ularda voqeabandlik ustunlik qiladi. Bunday qo'shiqlar ma'lum bir syujet asosiga quriladi va matndagi satrlar ushbu voqeani ifodalab keladi.

Misol uchun:

Oqtி, oqtி, oqtி

Aminaxon oqtி.

Hasan-Husanlar bilan,

Soylarga botdi.

Uni ko'rib onasi

Bilagidan tortdi.

«Tortmang, onajon, tortmang»,

Deb soyga oqdi.

Aminarining kovushini

Soylardan topdi.

²⁴ Акимова Т.М. О поэтической природе народной лирической песни.– Саратов, 1966, 9–11 с.

²⁵ Тимофеев Л.И. Лирика // Краткая литературная энциклопедия. –М, 1967, Т.4, 210 с.

*Qilgan sayohatlari
Qon bo 'lib oqti.
G 'isht ko 'prik tagida
Uch kuncha yotti.
Chilvir-chilvir sochlari,
Balchiqqa botdi.
Yalli, yalli, yalli,
Yallining boshi.
Aminaxonning yoniga botgan,
Soylarning toshi.*

Bu qo'shiqda Aminaxon ismli qiz balog'at yoshiga yetib, bir yigitning yolg'on va'dasiga ishonib, homilador bo'lib qolgani, onasi bilib qolgach, qiz nomusiga chiday olmasdan o'z joniga qasd qilgani, uch kundan keyin uning jasadini ko'prik tagidan topib olingani hikoya qilinmoqda.

«Savrixonning ro'moli» qo'shig'ida ham aynan shunday voqeabandlikni ko'ramiz. Bunday voqeabandlik kelin salom, yor-yorlarda va ayrim mehnat qo'shiqlarida ham uchraydi.

Voqeaband bo'limgan qo'shiqlarda har bitta to'rtlik mustaqil alohida bir kechinmani ifodalab keladi. Ularni faqat ohang va naqoratlar bog'lab turadi.

*Devor ustiga devor,
Devona bo 'lsin akang.
Boshida shoyi ro 'mol,
Parvona bo 'lsin akang.
Yaqu-yaqu yaquyaq. Yaqu-yaqu yaquyaq.

Tog 'lar boshi o 'rama,
Kiyik shoxi bo 'rama.
Boy qizini bermasa,
Boyni xudo urama.

Yaqu-yaqu yaquyaq. Yaqu-yaqu yaquyaq.*

o‘lanlarda ham voqeabandlik kuzatilmaydi.

Voqeband bo‘Imagan qo‘shiqlarning o‘zi kompozitsion jihatdan yana 3 ga bo‘linadi.

1. Holat qo‘shiqlari. Hamma qo‘shiqlarda kechinma, holat aks etsa-da holat qo‘shiqlarida qahramon hech kimga murojaat qilmaydi, balki o‘z holatini anglatishga harakat qiladi.

Yor yurgan ko‘chalarini,

Supuray sochim bilan.

Chang chiqsa suv sepay,

Ko‘zdagi yoshim bilan.

2. Murojaat qo‘shiqlari. Bunday qo‘shiqlarda qahramonning so‘zlarini kimgadir – sevgilisi, yaqinlari yoki boshqa bir kimsaga murojaat tarzda bo‘ladi.

Otma meni toshlar bilan,

Uchib ketay qushlar bilan.

Qushlar qaytsa, men qaytmasam,

Ko‘zing to‘lsin yoshlar bilan.

3. Aytishuv qo‘shiqlarining eng go‘zal namunasi o‘lan va laparlardir. Ularda qiz va yigit just bo‘lib yoxud tarafma-taraf bo‘lib, aytishuvda o‘zaro musobaqalashadilar.

Yigit:

Kakang keldi deganda, kakang keldi, yor-yor.

Xo‘rozlarning ichida, dakang keldi, yor-yor.

Qiziq-qiziq o‘landan ayt oxun qiz, yor-yor,

Tarap bo‘lib aytmoqqa akang keldi, yor-yor.

Qiz:

Bulbullarning qo‘ngani gul bo‘ladi, yor-yor,

Olamdagisi bor so‘zni, til biladi, yor-yor.

Tarap bo‘lib aytmoqqa kepsiz, aka, yor-yor,

Oxunliging bu yerda kim biladi, yor-yor.

Qo'shiqlarning asosiy qismi barmoq vaznidagi to'rtliklardan iborat bo'lib, aruz vaznidagi namunalar ham uchraydi. To'rtliklar qo'shiqning eng qadimiy namunasi ekanligini mutaxassislar e'tirof etishadi. Qo'shiqlarda bir xil turoqlarga amal qilinishi qo'shiqning ohangdorligini ta'minlab, uning poetik xususiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xo'p hayda-yo, xo'p hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12

Qalqon tuyog'im hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12

Temir tuyog'im hayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12

Xirmonni qilgin mayda, mayda-yo, mayda. 7+5=12

(*Yanchiq qo'shiqlari*)

Takrorlar xalq qo'shiqlari badiyati tizimidagi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Satr boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishidan qat'i nazar takrorlar qo'shiqdagi ilgari surilgan mazmunni ochib berishga xizmat qilish barobarida, ohang va kuyning yaxlitligini ta'minlab beradi.

Qo'shiqlardagi naqoratlar esa an'anaviy naqoratlar va noan'anaviy naqoratlarga bo'linadi. An'anaviy naqoratlarda: **so'z; misra; to'rtlik** takrorlanib keladi. Bular an'anaviy naqoratlar. Bu naqoratlar turli xil qo'shiqlarda uchrashi mumkin. To'g'rirog'i, bu yerda ohangni ushlab turuvchi naqoratlar qoladi, faqat matn o'zgaraveradi. Har qanday matn ushbu naqorat ohangiga moslashadi. Takrorlarda matn bilan chambarchas bog'liqlik ko'zga tashlansa, naqoratda mazmun bilan bog'liqlik sezilmaydi. Bu o'rinda ohang muhim ahamiyat kasb etadi.

Bulardan tashqari, faqat ayrim qo'shiqlarning o'zigagina xos bo'lган ma'lум **tovush** (ha, hu) va **misra** takrorlanib kelish holatlari borki, ularni noan'anaviy noaqoratlar sifatida baholash mumkin.

Qo'shiqning kuyga munosabatiga kelsak, hamma, hatto motam qo'shiqlarida ham musiqiy ohang mavjud, biroq motam marosimi qo'shiqlari biror bir musiqiy asbob jo'rлигидаги куylanmaydi. Motam

marosimi va ayrim mavsum marosim qo'shiqlarini inobatga ol-maganda, hamma holatlarda qo'shiqlarga biror musiqa asbobida kuy chalinishi mumkin. Shunga ko'ra qo'shiqlarni: **soz bilan ijro etiladigan qo'shiqlar; hech qanday sozsiz ijro etiladigan qo'shiqlarga bo'lish** mumkin.

Hozirgi jonli jarayonda o'zbek qo'shiqlari doira, do'mbira, dutor, balomon, tor va hakazo musiqa asboblari jo'rligida ijro etiladi. Qanday musiqa asbobi tanlanishi qo'shiq mazmuni va ijro etilayotgan vaziyatdan kelib chiqiladi.

Qo'shiq va raqs haqida so'z ketar ekan, ularning hamma davrlarda kuy bilan birqalikda uyg'unlikda qaralganligining guvohi bo'lamiz. Fuod Ko'prili turklarning adabiy qarashlari diniy tasavvurlar hamda raqs va musiqa bilan birqalikda taraqqiy etganini yoza-di. Yoxud «Chig'atoy lug'ati»da qo'shiq «raqs havosiga bog'langan kuy» tarzda kelgani aytildi.

Qo'shiqlarning raqsga munosabatiga kelsak, hech bir qo'shiq yo'qki, unda harakat bo'lmasin. Yig'i-yo'qlov, motam qo'shiqlarida ham garchand harakatlar raqs deb atalmasa-da, raqs elementlarini o'zida to'la saqlab qolgan. Birgina misol, motam marosimida azador o'zining yuzlarini timdalab, sadr tushishi motam marosimidagi raqsning eng qadimiy ko'rinishlaridan biridir.

Qo'shiq va raqsning eng mukammal uyg'unligini biz «Beshqarsak» qo'shiqlari va o'yinida ko'rishimiz mumkin. Bu o'yinni o'rgangan san'atshunos olim Muhsin Qodirov, uni o'zbek xalq san'atining qadimiy ko'rinishlaridan biridir, deydi. Bu o'yinda qarsak va qo'shiq qaytariqlari alohida ahamiyatga ega. Raqqoslar doira shaklini yasab, qarsak ohangiga mos harakatlar qilishadi. Qarsakning turlari ko'p: mayda qarsak, yakka qarsak, qo'sh qarsak va hokazo. Cholg'u asbobi vazifasini ko'pincha qarsaklar bajaradi. Biroq bu qo'shiq kuy-siz ijro etiladi, degani emas. Qarsak ham, kuy ham, naqoratlar ham eng mukammal uyg'unlik kasb etadi. O'rtada raqqos turli harakatlar bilan raqs tushadi, davradagilar qarsak chalib, kuyga mos qo'shiq ijro etishadi. Qarsak o'yinlarida naqoratlar muhim ahamiyatga ega.

*Hoy bola-bola, yor-yor,
Omon bola yor-yor.
Hay-hu, ho-ho-ho.*

*Oq otingni maqtaysan,
Bo'z otimga yetmaydi.*

*O'yinchingni maqtaysan,
Qarsoqchidan o'tmaydi.*

*Hoy bola-bola, yor-yor,
Omon bola yor-yor.
Hay-hu, ho-ho-ho.*

Bu raqs o'yin sifatida san'atshunoslar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, bu o'yining verbal qismi, ya'ni so'z komponenti olimlar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Bu raqsda kuylanib kelinayotgan «Omonyor», «Gulbog'», «Dig'ajon», «Hoy bola-bola, yor-yor»lar xalq qo'shiqlarining eng yorqin namunalaridir.

«Qarsoq» bo'ri degani, ya'ni «Bo'ri o'yini» raqsi va qo'shiqlari asosan chorvachilik bilan shug'ullangan joylarda to'y-tomoshalarda, gap-gashtaklarda, Navro'z bayramlarida sevib ijro etilgan.

Ishirokchilarning qarsak chalib, doira hosil qilishi, raqqosning o'rtada turishi uch narsani yodimizga soladi. Birinchisi—qadimda ovchilarning ovga chiqib, halqa hosil qilib, o'ljasiga hujum qilishi. Ikkinchisi – o'tov chang'arog'inining aylana shaklda ekanligi, unga birikkan uvuqlar bizga raqqosni o'rtaga olib, davra hosil qilgan qarsoqchilarni eslatadi. Uchinchisi, «Ko'pkari» (boshqa bir nomi «Ko'kbo'ri») o'yini, ya'ni ko'pkari o'yinida ham chavandozlar dastlab davra hosil qilishib, keyin «o'lja» – uloqqa tashlanishadi.

Bizning nazarimizda har uchala holat ham xalqimizning mavsumiy marosimi, ya'ni Navro'z bilan bog'liq. Chunki qish kirishi bilan ko'klam-bahorning yaxshi kelishi uchun ko'plab marosimlar o'tkazilgan. Shulardan birinchisi ov, ikkinchisi ko'pkari va nihoyat baho kelishi bilan chorvadorlar keng yaylovlarga chiqib o'tov tikishgan.

Fuod Ko'prili qadimda turklarning kuy-ko'klarning soni 365 ta, ya'ni yil kunlariga teng bo'lib, har kuni hoqon huzurida ayri bir kuy

chalinganini urg'ulaydi. O'tovdagi uvuqlar soni ham odatda 52 ta, ya'ni yillik haftaga tengligi tasodifiy bo'lmasa kerak.

Navro'zga bag'ishlangan ko'pgina marosimlar, udumlar, aytim va qo'shiqlar zamirida quyoshga bo'lgan topinch yotganini ko'rishimiz mumkin. Qarsak o'yinidagi halqa bizga kunni-quyoshni ham eslatadi. Qolaversa, qo'shiq matni naqoratidagi «hu», aslida xu, qu, ku (gu) kun-quyosh so'zi bilan o'zakdosh emasmikan degan taxmin uyg'otadi. Nima bo'lganda ham, bu o'yin qo'shiqlari maxsus tadqiq etilishi lozim.

Tasnifni yana davom ettirish mumkin. Misol uchun, erkak va ayol qo'shiqlari, har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, Surxondaryo, Qashqadaryo; Jizzax, Samarqand, Buxoro; Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona hamda Xorazm qo'shiqlari deyish ham mumkin. Biroq bunday tasniflar ikkilamchi tasnifga kirdi. Eng muhimmi esa qaysi turkum qo'shiqlari bo'lmasin, marosim qo'shiqlarimi yoxud nomaroSIM qo'shiqlari yuqorida biz tilgaolgan barcha turkumlik uchun birdek bo'lgan umumiylmez onlardan kelib chiqqan holda tasnif etilmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqlaridagi maishiy yo'nalgalik va ijro o'rni masalalari uning o'ziga xosligini ko'rsatib turuvchi omillardan hisoblanib, ularning tasnifida eng avvalo har bir janr-ning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi va bugungi jonli og'zaki ijro jarayonidagi holati, poetik xususiyatlari, badiiy tasviriy vositalari, mifologik tafakkur tabiatni, obrazlar tizimi yaxlitlikda olib qaralishi zarur bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq qo'shiqlari shu muddatgacha o'rganilgan boshqa janrlardan qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?
2. Xalq qo'shiqlarining tasnifi qanday asoslanadi?
3. Mehnat qo'shiqlari haqida so'zlang.
4. Mavsum-marosim qo'shiqlarining xos xususiyatlarini aytинг.
5. Lirik qo'shiqlar haqida nimalar bilasiz? Yod olgan namunalaringizni hirgoyi qilib ayta olasizmi?
6. Xalq qo'shiqlarini bilgan shaxslardan namunalar yozib oling.

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI

1-seminar mashg‘uloti. Mustaqillik davri o‘zbek folklorshunosligi

Reja:

- 1. Mustaqillik va milliy qadriyatlar.**
- 2. Mustaqillik davri folklorshunosligi.**
- 3. Istiqlol davri folklorshunosligining taraqqiyot omillari.**

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy ma’naviyatimiz asoslari haqida so‘zlab bering.
2. Mustaqillik davri folklor san’ati o‘ziga xosligini nimada deb tushnasiz?
3. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida folklorغا qanday baho berilgan ?
4. Bugungi zamон o‘zbek folklorshunoslаридан kimlarning izlanishlaridan xabardorsiz ?
5. O‘z hududingizning folklor san’ati haqida so‘zlab bering.

2-seminar mashg‘uloti. Folklorshunoslik maktablari va metodlari

Reja:

- 1. Folklor materiallarining ilmiy o‘rganilishi tarixi.**
- 2. Folkloرنi tadqiq etuvchi metodlar.**
- 3. Folklorshunoslik maktablari.**

Savol va topshiriqlar:

1. Folkloрning o‘rganilish tarixi deganda nimani tushansiz?
2. Folklorshunoslik maktabalariga qachon asos solingan?
3. Folkloshunoslikdagi tarixiy maktabning mohiyatini tushuntiring.
4. O‘zbek folklorshunosligi qanday maktablarga suyanib ish ko‘rgan?

5. Bugungi kundagi yetakchi ilmiy maktablar.
6. Ilmiy metod deganda nimalarni tushunasiz?
7. Folklorshunoslikdagi ilmiy metodlarga ta’rif bering.
8. Tarixiy-qiyosiy metodning o‘ziga xosligi nimada?
9. Folklorshunoslikdagi yetakchi metodlarning bugungi kunda-gi ustuvor jihatlarini so‘zlab bering.

3-seminar mashg‘uloti. Folklorda motiv va syujet

Reja:

1. Folklor asarlari mazmun-mundarijasi.
2. Folklor asarlari syujetining o‘ziga xosligi.
3. Folklor asarlarida motiv va ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Savol va topshiriqlar:

1. Folklor asarlariga xos motivlarni tushuntirib bering.
2. Syujet tizimida motivning o‘rniga ta’rif bering.
3. Motivlarning janriy xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Epik asarlar syujetiga xos motivlarni aniqlang.

4-seminar mashg‘uloti. Epos va uning ilmiy o‘rganilishi muammolari

Reja:

1. Epos va uning janriy xususiyatlari.
2. Eposning ilimi o‘rganilishi masalalari.
3. Eposda milliy qadriyatlar talqini.

Savol va topshiriqlar:

1. «Algomish» dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variantini o‘qing.
2. Dostonning bugungi kunda xalq qadriyatları qatorida e’tiborga loyiq ekanini izohlang.
3. «Algomish» dostonidagi mifik dunyoqarash belgilarini alo-hida-alohida ko‘rsating. Ular haqida bilganflaringizni so‘zlang.
4. Dostonning o‘rganilishida olimlar fikrlarini aytинг. Ularni baholashga urining.
5. Dostondan parcha yodlang.

5-seminar mashg‘uloti. O‘zbek xalq nasrining o‘rganilishi Reja:

- 1. O‘zbek xalq nasri janrlari.**
- 2. Afsona va rivoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.**
- 3. O‘zbek ertaklarining tasnif etilishi masalalari.**

Savol va topshiriqlar:

1. Ertaklarning janr xususiyatlarini moddama-modda ayting, ularning har birini izohlang.
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar boshqa tur ertaklardan qanday farqlanadi? Boshqa tur ertaklar bilan o‘xhashligi bormi?
3. Sehrli ertaklar haqida o‘qiganingiz bilan avvalgi taassurotlar o‘rtasida farq bormi?
4. Xalq ertaklari – so‘z san’atining namunasi ekanini isbotlang.
5. Afsonalarning mavzuga ko‘ra turlarini ko‘rsatib bering va o‘z fikringizni isbotlang.
6. Rivoyatlar bilan afsonalarning farqli jihatlarini izohlang.

6-seminar mashg‘uloti. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining o‘rganilishi Reja:

- 1. O‘zbek folklorida qo‘shiq janri.**
- 2. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tasnif etilishi.**
- 3. Xalq qo‘shiqlarining badiiyati masalalari.**

Savol va topshiriqlar:

1. Xalq qo‘shiqlari shu muddatgacha o‘rganilgan boshqa janrlardan qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?
2. Xalq qo‘shiqlarining tasnifi qanday asoslanadi?
3. Mehnat qo‘shiqlari haqida so‘zlang.
4. Mavsum-marosim qo‘shiqlarining xos xususiyatlarini ayting.
5. Lirik qo‘shiqlar haqida nimalar bilasiz? Yod olgan namalaringizni hirgoyi qilib aytma olasizmi?
6. Xalq qo‘shiqlarini bilgan shaxslardan namunalar yozib oling.

“FOLKLORSHUNOSLIKKA KIRISH” FANIDAN MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR

1. O‘zbek folklorshunosligining shakllanish tarixi.
2. Folklor asarlarini yozib olib, tadqiq etuvchi ilmiy yo‘nalishni shakllantirish fanining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan ilk manbalar.
3. Xalq dostonlarining tarixiy asoslari va shakllanish bosqichlarining folklorshunoslikda o‘rganilishi.
4. O‘zbek eposi poetikasining tadqiq etilishi, o‘zbek folklorining janrlar tarkibida nasriy turga mansub asarlarning tutgan o‘rni.
5. Folklorshunoslikda nasriy turga kiruvchi asarlarni to‘plab nashrga tayyorlash.
6. Folklorshunoslikda marosim folklorini tadqiq etish muammoları.
7. O‘zbek xalq musiqa folklori va uning o‘rganilishi.
8. O‘zbek xalq teatr an‘analari va uning folklorshunoslikda o‘rganilishi.
9. Xalq dramalarining ilmiy tavsifi va poetikasi.
10. Marosim folklorining janrlar tarkibi va tasnifi.
11. Hozirgi zamon folklorshunosligining yangi ilmiy metodlari.
12. Postfolklor – hozirgi tarixiy-folkloriy jarayonning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida.
13. Hozirgi folklor ijrochiligi va ijrosi.
14. H.Zarifovning hayoti va ijodiy faoliyati.
15. O‘zbek xalq dostonchiligi va dostonchilik maktablari.
16. Ertak, afsona va rivoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
17. Xalq ijodiyoti va badiiy tafakkur taraqqiyoti.
18. O‘zbek folklorshunosligining ilmiy yo‘nalishlari.
19. Mifologik matabning yutuq va kamchiliklari.
20. Milliy mustaqillik va o‘zbek folklorshunosligining yangilanish jarayoni, ma’naviy qadriyatlar tizimini folkloristik asosda o‘rganish.
21. O‘zbek folklorshunosligining jahon filologiyasi taraqqiyotiga qo‘shtan qissasi.
22. Folklor asarlarini nashr etish sohasidagi yangilanishlar, folklorshunoslikning boshqa fanlar tizimidagi o‘rni.
23. Folklor – umuminsoniy qadriyat namunasi sifatida.
24. Folklor va komil inson tarbiyasi.
25. O‘zbek folklorshunosligining istiqbollari.

hissa qo'shgan xalqimiz yaratgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analar bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylantirildi.

«O'zbek xalq ijodi yodgorliklari» deb nomlanuvchi ulkan loyi-hanining amalga oshirishga kirishilganligi mamlakatimiz ma'naviy hayotida katta voqeа bo'ldi.

Hammamizga ma'lumki, folklor – bu xalq ijodi. Xalqimiz tabiatи, uning ruhiyatini folklor asarlaridek teran badiiy ifoda etuvchi namunalarni topish qiyin. Shunday ekan, o'zligimizni, dunyo madaniyati va sivilizatsiyasi tarixi, bugunidagi munosib o'rnimizni ko'rsatish-folkorni o'rganish, targ'ib etish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazzkur o'quv qo'llanma ham talaba va magistrantlarga folklorshunoslik fanining mohiyati, o'rganish obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, jahon folklorshunosligidagi yetakchi ilmiy maktablarning nazarialari, o'zbek folklorshunosligi tarixi va xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini toplash metodikasi bo'yicha chuqur bilim berish orqali milliy o'zlikni anglashdek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.

GLOSSARIY

Abruk chiqarish (chorvaning barakasini saqlab qolish)	Boshqa chorvadorlar bilan birgalikda yulduzlar holati va sayyoralar harakatini yaxshi biluvchi hisobdonlar maslahati bilan belgilangan kuni bahorgi yaylovga ko'chib ketolmagan cho'pon oilasi o'zining biror ro'zg'or anjomini ko'chuvchilardan berib yuborish udumi.
Boychechak sayli	Boychechak chiqqanligi – qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatgan.
Bo'g'cha tashlandi	Erta ko'klamda yulduzlarning turishiga qarab, dehqonlar dala hovlilariga ko'chib chiqmoqchi bo'lганlarida, o'zлari tanlagan joyga pichoq suqib belgi qilish va band qilish uchun biror bo'g'chani tashlab kelish odati. Agrar kultlar va hosildorlik g'oyasini o'zida mujassamlashtirgan qadimiylar marosim.
Darveshona	Har yili bahorda serhosillik niyatida o'tkaziladigan marosim.
Shoxmoylar	Erta ko'klamda dalaga qo'sh olib chiqqan dehqonlarning ho'kizlarining shoxini yog' bilan moylash udumi.
Kadi sindirdi	Navro'z sayili kuni mahalla ahli bir yerga jam bo'lib, idish sifatida foydalanib kelinayotgan suv va moyqovoqlarning bir nechtasini yerga urib sindirish udumi.
Qozon to'ldi	Navro'z bayramiga o'tar kechasi oila davrasida o'tkaziladigan udum.
Halinchak uchish	Ko'klamda qiz-juvonlarning arg'imchoq uchish udumi.
Sumalak pishirish	Sumalak pishirish bilan bog'liq an'anaviy marosim.
Ashshadarizi	Sumalak pishirish bilan aloqador marosim

22. Slavic and East European Folklore Association <http://www.virginia.edu/~slavic/seefa>

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Аникин В. Теория фольклора. – М.: Наука, 2012, 480 с.
2. M.Jo'rayev, L.Xudoyqulova. Marosimnomma.– Т. 2008. 172 б.
3. M.Jo'rayev. Navro'z qo'shiqlari. –Т. 2007. 163 б.
4. M.Jo'rayev, O'. Tohirova. Ostonasi tillodan. –Т. 2003, 78. б.
5. K.Imomov. O'zbek xalq nasri poetikasi. –Т. "Fan" 2008, 252 б.
6. M.Inoyatov. O'zbek xalq ijodiyoti an'analar. –Т. 2010, 132 б.
7. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. –Т. 2006, 216 б.
8. I.Jabborov. O'zbek xalq etnografiyasi. –Т."O'qituvchi" 1994, 312 б.
9. S.Davlatov. An'ana va marosim. O'quv-uslubiy qo'llanma.–Т. "Fan" 2009, 120 б.

Internet va Ziyonet saytlari

1. www.etno.jurnal. – etno jurnal sayti.
2. <http://www.google.uz>
3. <http://www.ziyonet.uz>
4. Journal of American Folklore . <http://afsnet.org>
5. Journal of Folklore Research (Indiana University) <http://www.indiana.edu/~jofr/home.html>
6. New York Folklore. <http://www.nyfolklore.org/>
7. Zeitschrift fur Volkskunde. <http://www.waxmann.com/zs/zsfv.html>

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1- BOB	Folkorshunoslik tarixi.....	5
1.1.	Mustaqillik davri o‘zbek folklorshunosligi.....	5
1.2.	Folkloarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	12
1.3.	Folkloarning o‘rganilish tarixi.....	17
1.4.	Folklorshunoslik maktabları.....	26
1.5.	Folklorshunoslik metodlari.....	88
1.6.	Folkloarning tur va janrlarga bo‘linishi.....	102
1.7.	Folklorda motiv va syujet.....	102
1.8.	Folklor asarlari strukturası.....	111
1.9.	O‘zbek folklorshunosligining tarixiy taraqqiy oti.....	118
2- BOB	O‘zbek xalq folklorshunosligi janrlarini o‘rganilish masalalari.....	136
2.1.	Epos va uning ilmiy o‘rganilishi.....	136
2.2.	O‘zbek xalq nasrining o‘rganilishi.....	146
2.3.	O‘zbek xalq qo‘shiqlarining o‘rganilishi.....	153
	Seminar mashg‘ulotlari.....	168
	“Folklorshunoslikka kirish” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar.....	171
	Xulosa.....	172
	Glossariy.....	175
	Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati.....	177

**Mamatqul Jo‘rayev,
Jabbor Eshonqulov**

Folklorshunoslikka kirish

(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2017

Muharrir: Sh. Aliyeva

Tex.muharrir: F.Tishaboyev

Musahhih: D.Vohidova

Kompyuterda

sahifalovchi: A.Kuchkarov

E-mail: Barkamolfayz@mail.ru

Nashr.lits. AIN№ 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi 18.12.2017.

Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida
bosildi. Sharqli bosma tabog‘i 11,75. Nashriyot bosma tabog‘i 11,25.

Tiraji 200. Buyurtma №16.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi 171-uy.

ISBN 978-9943-5010-9-6

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-5010-9-6.

9 789943 501096